



T.N.Qori Niyoziy nomidagi O'zbekiston Pedagogika
fanlari ilmiy tadqiqot instituti

UZLUKSIZ TA'LIM



ILMIY-USLUBIY JURNAL

2021
maxsus son

DJURAYEV Risbay
Bosh muharrir

Jurnal 2001 yildan nashr qilina
boshlangan.

O'z MAAdan 2007 yil 3-yanvar-
da № 0101-tartib raqami bilan
qayta po'yxatdan o'tgan.

Jurnalda e'lon qilingan
maqolalardan iqtibos keltiril-
ganda «Uzluksiz ta'lim»
jurnalidan olinganligi ko'rsa-
tilishi lozim.

Tahrir hay'ati:

Sherzod SHERMATOV
Uzoqboy BEGIMQULOV
Alisher UMAROV
Nargiza RAXMANQULOVA
Nodira EGAMBERDIYEVA
Xolboy IBRAGIMOV
Shavkat QURBONOV
Roxatoy SAFAROVA
Islom ZOKIROV
Dono G'ANIYEVA
Lobar QARAXANOVA

Tahririyat manzili:

100027, Toshkent sh.,
Furqat ko'chasi,
174-uy.

O'zPFITI

Tel.: (71)-245-92-34

(93)-503-52-07

e-mail: uzluksiztalim_jurnal@mail.ru
liya_2305@mail.ru

- 3 **B. B. Sobirov**
Pedagog kadrlarning umummadaniy kompetensiya modelini takomillashtirish prinsiplari
- 9 **Sh. A. Abdullayeva**
Oliy ta'lim didaktikasida zamonaviy ta'lim trendlarining ilmiy-metodik yo'nalganligi
- 15 **F. A. Abdullayev**
Ta'lim sifatini boshqarishda axborot xizmatini tashkil qilish bo'yicha xorij tajribalar
- 22 **S. T. Ruzmetova**
Talabalar bilimi transformatsiyasida raqamli texnologiyalardan foydalanish masalasining dolzarbligi
- 28 **L. I. Suvonova**
Steam texnologiyalari mohiyati va ularni oliy ta'limda qo'llash tamoyillari
- 34 **F. Yuldashev**
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining bilim o'zlashtirishini diagnostika qilish: amaliyot va monitoring
- 38 **G. Abilova**
Oliy ta'lim muassasalarida vebinarlarni tashkil etishning samarali ko'rsatkichlari
- 42 **Sh. A. Tadjibayeva**
Pedagogik jamoada ixtilof va nizolarning paydo bo'lish sabablarini aniqlash
- 47 **O. O. Davulov**
Texnika oliy ta'lim muassasalarida talabalarining jismoniy sifatlarini differensial metodikalar asosida rivojlantirish
- 51 **D. Z. Usmonova**
Boshlang'ich sinf o'quvchilari kompetensiyalarining rivojlanishini xalqaro baholash dasturlaridan foydalanish asosida kuzatish
- 59 **I. R. Jo'raeva**
Umumiy o'rta ta'lim maktab o'qituvchilarning umummadaniy kompetensiyalarini diagnostika qilish
- 62 **E. E. Xurramov**
Bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarining kasbiy faoliyatga tayyorlashda sifat bosqichlaridan foydalanish
- 66 **M. A. Iminova**
Boshlang'ich sinf o'qituvchilarining o'quv faoliyatlarini loyihalash metodlari asosida tashkil qilish
- 72 **S. A. Axmedova**
Fan, ishlab chiqarish va texnologiyalar intergratsiyalashuvini ta'minlash jarayonida bo'lajak mutaxassislarining kasbiy salohiyatini rivojlantirishda sport kouchingining ahamiyati
- 77 **O. O. Sirojov**
Bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarining valeologik kompetentligini amaliy metodlar yordamida rivojlantirish
- 82 **X. K. Rashidov**
Jismoniy chiniqtiruvchi mashqlar yordamida oilalarda ma'naviy-axloqiy muhitni barqarorlashtirish
- 86 **III. П. Батмундеева**
Модель воспитания в педагогических вузах и её внедрение
- 92 **Д. Истамова**
Развитие прагматических компетенций у будущих педагогов
- 98 **X. C. Раимова**
Организация работы по физической культуре и женским спортом в педагогических вузах
- 105 **M. T. Arunova**
Применение коллаборативных проектов на занятиях по русской литературе
- 112 **III. Алимова**
Требование к постановке вопроса совершенствования системы обучения теории и практическим умениям будущих учителей русского языка
- 117 **У. К. Турдыев**
Педагогические условия применения образовательных технологий по физической культуре
- 122 **T. T. Nazarov**
«Chaqiriqqacha harbiy ta'lim» yo'nalishi talabalarining o'quv faoliyatini loyihalash bosqichlari



PEDAGOG KADRLARNING UMUMMADANIY KOMPETENSIYA MODELINI TAKOMILLASHTIRISH PRINSIPLARI

B.B.SOBIROV,

*TDPU moliya va iqtisodiyot ishlari bo'yicha prorektori,
pedagogika fanlari nomzodi, dotsent*

Maqolada xalq ta'limi tizimida faoliyat yuritayotgan pedagog kadrlarning umummadaniy kompetentligini rivojlantirish jarayonlarini modellashtirish mazmuni, bosqichlari, kollaborativ va metakompetensiyalar integratsiyasiga asoslangan kompetensiyalar modeli asosidagi mexanizmlarni takomillashtirish yo'nalishlari va pedagogik shart-sharoitlari haqida fikr yuritilgan.

Tayanch tushunchalar: *xalq ta'limi, pedagog kadrlar, umummadaniy kompetentlik, modellashtirish, integratsiya, takomillashtirish.*

В статье рассматриваются вопросы моделирования процесса развития общекультурной компетентности учителей в системе народного образования, направления и педагогические условия совершенствования механизмов на основе модели компетенций, основанной на интеграции коллаборативных образовательных целей.

Основные понятия: *государственное образование, преподавательский состав, общекультурная компетенция, моделирование, интеграция, совершенствование.*

The article discusses the issues of modeling the process of development of general cultural competence of teachers in the system of public education, directions and pedagogical conditions for improving mechanisms based on a competency model based on the integration of collaborative educational goals.

Basic concepts: *public education, teaching staff, general cultural competence, modeling, integration, improvement.*

Xalqaro tajribalar tahlilidan ma'lumki, mamlakatning global innovatsion indeks reytingidagi o'rmi fan, ixtirochilik va texnologiyalar transferini rivojlantirish, ta'lim sifatini oshirish, inson kapitali va kadrlar salohiyatini rivojlantirish bilan uzviy bog'liqdir. Shu nuqtai-nazardan, bugungi kunda milliy va xalqaro maydonda kadrlar malakasini oshirish tizimini verisifikatsiya asosida ta'lim sifatini oshirish, kadrlar kompetentligini rivojlantirish va zamonaviy ta'lim xizmatlarini diversifikatsiyalash, pedagog kadrlarning innovatsion va umummadaniy kompetentligini rivojlantirish, ularda mehnat bozoridagi o'zgaruvchan tendensiyalarga tezkor moslashish imkonini beruvchi metakompetensiyalar (soft



skills)ni qaror toptirish innovatsion iqtisodiyot («innovation-driven economy»)ning strategik yo'nalishlaridan biri sifatida qaralmoqda.

Dunyo hamjamiyati va davlatlar o'rtasidagi turli madaniy, ta'limiy va ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarning integratsiyalashuvi ta'limning hamma bosqichlarida, shu jumladan, malaka oshirish tizimida ham ta'lim sifatini oshirishga qaratilgan pedagogik kompetensiya mohiyatini yangi mazmunda ko'rib chiqishga undaydi.

Pedagogik kompetensiyani pedagogik hodisa sifatida o'rganish jahonning yetakchi ilmiy markazlari va oliy ta'lim muassasalarida, jumladan, Buyuk Britaniyaning London universiteti qoshidagi Ta'lim institutida, Germaniyaning Bavariya akkreditatsiyalash, sertifikatlash va sifatni kafolatlash institutida, Fransiyaning Nant universitetida, AQShdagi Kaliforniya, Ogayo, Massachusetts universitetlarida, Avstraliyaning Vullongong universitetida olib borilmoqda.

Tadqiqot doirasida xalq ta'limi tizimida faoliyat yuritayotgan pedagog kadrlarning umummadaniy kompetentligini rivojlantirish jarayonlarini modellashtirish mazmuni, bosqichlari, kollaborativ va metakompetensiyalar integratsiyasiga asoslangan kompetensiyalar modeli asosidagi mexanizmlarni takomillashtirish yo'nalishlari va pedagogik shart-sharoitlari o'rganildi.

Prognostik yondashuvda pedagog kadrlarning umummadaniy kompetentligi yoshga oid qobiliyat va imkoniyatlar darajasini aniqlash; faoliyatni amalga oshirish imkoniyatlari va natijalarini kasbiy kompetentlik, faoliyatning ushbu turiga bo'lgan psixologik tayyorgarlik bilan integratsiyalashuvini hamda uning natijalari uchun ijtimoiy javobgarlik darajasini aniqlash; reflektiv-innovatsion rivojlanish imkoniyatlarini belgilash; kasbiy rivojlanishning muayyan darajasi tahlili asosida shaxs imkoniyatlarini yanada takomillashtirish jihatlarini e'tiborga olgan holda rivojlantirish masalasi ustun bo'lib kelmoqda.

Tahlillar asosida xalq ta'limi tizimida faoliyat yuritayotgan pedagog kadrlarning umummadaniy kompetentligini rivojlantirishning aksiologik-motivatsion, konseptual, texnologik, reflektiv va kreativ darajalari aniqlandi. Mazkur daraja bosqichlarining faoliyat talablari bilan o'zaro aloqadorligi hamda mazmunan integratsiyasini ta'minlash asosida pedagog kadrlarning ekvibratsion tuzilmasi ishlab chiqildi. Professiogramma qadriyatga oid ko'rsatmalar, o'zini o'zi baholash, tahlil qilish, refleksiya, kasbiy va ijtimoiy o'sish, kasbiy mahoratini takomillashtirish usullari, kommunikativ ko'nikmalarni tashxislash asosida pedagog kadrlarning umummadaniy kompetentligini rivojlantirish mazmuni va ustuvor yo'nalishlarini belgilash imkonini berdi.



Xalq ta'limi tizimida faoliyat yuritayotgan pedagog kadrlarning umummadaniy kompetentligini belgilashda tizimlilik, umumiylikdan xususiylikka tamoyiliga asoslanish, ya'ni korporativ-tayanch, profil kompetensiyalar tizimini individual-psixologik yondashuvga asoslangan metakompetensiyalar bilan uyg'unlashtirishga bugun alohida ehtiyoj tug'ilishi nazarda tutildi.

Ma'lumki, metakompetensiyalar – kasbiy, ijtimoiy va kognitiv kompetensiyalar integratsiyasi asosida shakllangan shaxsning mustaqil o'zini o'zi kasbiy rivojlantirish jarayoni samaradorligini ta'minlovchi shaxsiy sifatlar, motiv va qadriyatlar, qobiliyatlar yig'indisidir. Xalq ta'limi tizimida faoliyat yuritayotgan pedagog kadrlarining umummadaniy kompetentligi funksional kompetentlikdan farqli ravishda mustaqil harakatlanish va o'zgaruvchan mehnat sharoitlariga tezkor moslashish, o'z bilim hamda ko'nikmalarini amaliyotga muvaffaqiyatli joriy etish, innovatsion-ijodiy yondashuvlar asosida kasbiy rivojlanish traektoriyasini yangi rivojlanish yo'nalishlari va strategiyalarini belgilash, shuningdek akmeologik rivojlanish motivatsiyasini ta'minlash imkonini beradi.

Tadqiqot doirasida olib borilgan so'rovlar natijasida xalq ta'limi tizimida faoliyat yuritayotgan pedagog kadrlar tomonidan tahliliy-ijodiy fikrlash, muammo yechimiga qaratilgan optimal qarorlar qabul qilish, axborotlarni interpretatsiyalash va sohaga yo'naltirish, loyihalarni boshqarish, tarmoqlararo kommunikatsiya, tadbirkorlik, moslashuvchanlik kabi kompetensiyalarga ustuvorlik berilganligi, shu bilan birga, ularning aksariyati (62, 3%) ish tajribasidan qat'iy nazar, o'z kasbiy bilim va ko'nikmalarini innovatsion talablarga muvofiq doimiy yangilab borishga ehtiyoj sezishi aniqlandi.

Shu jihatlarni e'tiborga olib, tadqiqotimiz natijalari asosida xalq ta'limi tizimida faoliyat yuritayotgan pedagog kadrlarning umummadaniy kompetentligini rivojlantirish modeli va uning klasterli tuzilmasi kollektiv, ya'ni faoliyat turi uchun tayanch va yordamchi kompetensiyalar va metakasbiy kompetensiyalar tizimi integratsiyasi asosida ishlab chiqildi.

Ishlab chiqilgan mazkur model xalq ta'limi xodimlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish jarayonida pedagog kadrlarning umummadaniy kompetentligini rivojlantirishning amaliy-texnologik tizimini kasbiy faoliyat muhiti talablari va ustuvor yo'nalishlari mazmuni bilan o'zaro aloqadorligini ta'minlashga qaratilgan integratsiyalashgan ijtimoiy-ta'lim muhitini ifodalaydi.

Tavsiya etilayotgan kompetensiyalar modeli pedagog kadrlarning kasbiy faoliyat doirasidagi aniq vazifalarni muvaffaqiyatli bajarishi uchun zarur bo'lgan tayyorgarlik darajasini ta'minlovchi kompetensiyalar majmui hisoblanadi.



Kompetensiyalar klasteri esa mazmun va mohiyat jihatidan biri-biriga yaqin va o‘zaro aloqadorlikdagi kompetensiyalar tizimini guruhlashtirilgan ko‘rinishidan iborat. Aynan pedagog kadrlarning umummadaniy kompetentligini rivojlantirish jarayonlarida modelning qo‘llanilishi kadrlarning sohaga oid kompetentligini baholash, rivojlantirish va boshqarish strategiyalarini belgilash imkonini beradi [3].

Tadqiqot natijalari asosida ishlab chiqilgan kompetensiyalar modelining klasterli tuzilmasi sifatida ijtimoiy-huquqiy, shaxsiy, kommunikativ (lingvistik), AKT, reflektiv kabi kompetensiyalar klasteridan tashkil topgan korporativ(tayanch) kompetensiyalar hamda kasbiy-pedagogik, boshqaruv klasteridan iborat bo‘lgan metakasbiy va kollaborativ (yordamchi) kompetensiyalar belgilandi. Shuningdek, ularning konstruktiv faoliyat turi talablaridan kelib chiquvchi xususiy indikatorlar tizimi yoritildi. Bunda konstruktiv faoliyat sifatida

Tadqiqot doirasida pedagog kadrlarning umummadaniy kompetentligini rivojlantirish modeli uzluksiz innovatsion-kasbiy rivojlanishga yo‘naltirilgan rivojlangan mamlakatlar modellari - ta’lim ehtiyojlariga yo‘naltirilgan yevropa, shaxsiga yo‘naltirilgan Janubiy Osiyo va kompetensiyalar sifatini nazorat qilish AQSh modellari asosida tashkil qilindi va aprobatsiyadan o‘tkazildi.

Pedagog kadrlarning umummadaniy kompetensiya modelini takomillashtirish prinsiplari, parametr va indikatorlarini ishlab chiqish uchun takomillashtirilgan Davlat talablari quyidagi tarkibda takomillashtirildi:

1. Umumiy qoidalar.
2. Mohiyati va qo‘llanish sohasi.
3. Normativ havolalar.
4. Xalq ta’limi tizimi pedagog kadrlari malakasini oshirish tizimi tuzilmasi.
5. Xalq ta’limi tizimi pedagog kadrlari malakasini oshirish turlari va shakllari.
6. Xalq ta’limi tizimi pedagog kadrlari malakasini oshirish mazmuni va sifatiga qo‘yiladigan umumiy talablar.
7. O‘quv yuklarni hajmi; ma’naviy-ma’rifiy tadbirlar ko‘lami.
8. Xalq ta’limi tizimi pedagog kadrlari malakasini oshirishga qo‘yiladigan Davlat talablarining mazmuni.
9. Malaka oshirish ta’limining tayanch o‘quv rejalari.
10. Xalq ta’limi tizimi pedagog kadrlari malakasini oshirish ta’limining majburiy minimal mazmuni.
11. Xalq ta’limi tizimi pedagog kadrlarining malakasini oshirish tizimi huquqiy-me’yoriy hujjatlari.



12. Xalq ta'limi tizimi pedagog kadrlarining malakasini oshirish sifatini xalqaro baholash tizimi asosida baholash.

Kattalar ta'limini tashkil etishning yuqoridagi xususiyatlarini hisobga olgan holda xalq ta'limi xodimlarining umummadaniy kompetentligini oshirishda ta'lim mazmunini shakllantirishning quyidagi mezonlariga amal qilindi:

- tinglovchining o'qish jarayonidagi yetakchilik roli;
- o'z maqsadlariga erishish, mustaqillik, o'zini-o'zi boshqarish imkoniyatining ta'minlanganligi;
- tinglovchining hayotiy (turmush, ijtimoiy, kasbiy) tajribasidan uning o'zini va hamkasblarini o'qitishda muhim manba sifatida foydalanish;
- o'qish jarayonida olingan bilim, ko'nikma va malakalarni zudlik bilan qo'llash imkoniyati;
- tinglovchi va professor-o'qituvchining o'qitishning barcha (rejalashtirish, amalga oshirish va baholash) bosqichlaridagi birgalikdagi faoliyati[4].

Xalq ta'lim xodimlari malakasini oshirish ta'limi mazmuni va sifatiga qo'yiladigan Davlat talablarini takomillashtirishda malaka oshirish tizimining quyidagi vazifalariga alohida e'tibor qaratildi:

1. Uzluksiz malaka oshirish sharoitida xodim(pedagog, mutaxassis)ning umummadaniy kompetentligini oshirish.

2. Malaka oshirish ta'limining mazmunini ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot va ta'lim tizimi rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mos ravishda yangilab borish.

3. Malaka oshirish tizimining kompetentli va raqobatbardosh pedagog kadrlarni tayyorlash ehtiyojlariga hozirjavobligini ta'minlash.

Yuqorida qayd etilganlardan kelib chiqib, malaka oshirish ta'limiga qo'yiladigan Davlat talablarini ishlab chiqishda xodimlarning kasbiy faoliyati xususiyatlari, ehtiyojlari, umummadaniy rivojlanishi talablari va ta'limdagi ilg'or texnologiyalarni o'zlashtirish zaruriyati hisobga olindi. Bunda malaka oshirish ta'limi mazmunini xodimlarning kasbiy faoliyat xususiyatlaridan kelib chiqib belgilashda "Xalq ta'limi xodimlari asosiy lavozimlarining malaka tavsiflari" asosiy manba sifatida xizmat qildi.

Quyidagilar malaka oshirish bo'yicha *ta'lim dasturlari mazmuniga qo'yiladigan bazaviy talablar* hisoblanadi: kasbiy malaka talablariga muvofiqlik; ta'lim va kadrlar tayyorlash sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo'nalishlarini bilishga qaratilganlik; malaka oshirishga jamiyat buyurtmasi va shaxs



ehtiyojining uyg'unligi; ta'lim turlari va bosqichlari bo'yicha davlat talablari (davlat ta'lim standartlari)ning uzviyligi va uzluksizligini ta'minlashga qaratilganlik; tinglovchilarning kasbiy bilimlarini yangilash va chuqurlashtirishga qaratilganlik; yangi, qo'shimcha kasbiy malaka va ko'nikmalarni hosil qilish va takomillashtirishga qaratilganlik; ta'lim-tarbiyaning samarali usullari, texnologiyalarini egallash, takomillashtirishga qaratilganlik; zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalana olishni nazarda tutish; davlat talablari hajm va mazmunining malaka oshirish muddatlariga muvofiqligi [3].

Malaka oshirish kurslari jarayonida tinglovchilar bilan olib boriladigan ma'naviy-ma'rifiy ishlar saviyasini oshirish bilan bog'liq yo'nalish ularning umummadaniy kompetentligini oshirishga xizmat qiladi.

Malaka oshirish ta'lim muassasasida tashkil etiladigan ma'naviy-ma'rifiy va tarbiyaviy tavsifdagi tadbirlar (davra suhbatlari, ijodiy uchrashuvlar, badiiy kechalar, sahna ko'rinishlari, madaniyat maskanlariga tashriflar va boshqalar) ning tinglovchilar xohish-irodasini, o'tkazilayotgan tadbirning kursdan keyingi kasbiy faoliyatga foydaliligini, shuningdek, tadbirlar mazmunining malaka oshirish kursi o'quv dasturidagi mavzularga hamohangligini hisobga olgan holda tashkil etilishi yo'lga qo'yilishi muhimdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 6 noyabrda "Ta'lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" PQ-4884-son qarori/ Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi; 06.12.2020 y., 06/20/653/1592-son

2. Афанасьева Т.П., Немова Н.В., Профессиональное развитие кадров муниципальной системы образования. Кн. 1. Развитие профессионального мастерства педагогических кадров. - М., 2104.-С.98.

3. Мирсолиева М.Т., Султонов А.Ш., Гиясова У.Э. Социально-педагогические факторы развития тьюторской деятельности педагога в ВУЗах/ Society. Integration. Education. Proceedings of International Scientific Conference. Volume I, – Rezekne, 2016. – P. 158-164.



OLIV TA'LIM DIDAKTIKASIDA ZAMONAVIY TA'LIM TRENDLARINING ILMIY-METODIK YO'NALGANLIGI

SH.A.ABDULLAYEVA,

*Boshlang'ich ta'lim fakulteti dekani,
pedagogika fanlari doktori, professor*

Maqolada oliy ta'lim didaktikasida zamonaviy ta'lim trendlarining ilmiy-metodik yo'nalganligi, ularning xususiyati, o'quv dasturlari va talablarni baholash tizimlari negizida qayta ko'rib chiqish zarurati haqida fikr bayon etilgan.

Tayanch tushunchalar: ta'lim trendi, oliy ta'lim didaktikasi, ta'lim sifati, rivojlanish, intellekt, innovatsion metodlar, raqamli texnologiyalar, teskari aloqa.

В статье рассматривается научно-методическая направленность современных образовательных трендов в дидактике высшего образования. Автором акцентируется внимание на том, что созрела необходимость пересмотра на основе учебных планов и систем оценки требований к этим направлениям.

Ключевые понятия: образовательное направление, дидактика высшего образования, качество обучения, развитие, интеллект, инновационные методы, цифровые технологии, обратная связь.

The article discusses the scientific and methodological orientation of modern educational trends in higher education didactics, their nature, the need to review them on the basis of curricula and requirements assessment systems.

Key words: educational trend, higher education didactics, quality of education, development, intelligence, innovative methods, digital technologies, feedback.

Zamonaviy ta'lim trendlarining xususiyati, eng avvalo, ta'lim mazmunida aks etadi. Shu sababli, sun'iy intellekt va yuksak texnologiyalarga tayanadigan "to'rtinchi sanoat inqilobi" insonga qo'yadigan talablarini oldindan modellashtirishimiz va ta'lim-tarbiya tizimini ularga moslashtirish kerakligini anglatadi. Oliy ta'lim muassasalarining faoliyati yetuk mutaxassislarni shakllantirishga yo'naltirilgan bo'lishi muqarrar. Buning uchun aniq maqsad va vazifalarni belgilash, zarur tashkiliy qo'llab-quvvatlash tuzilmalarini yaratish, professor-o'qituvchilarni raqamli texnologiyalar bilan ishlashga o'rgatish, o'quv dasturlari va talablarni baholash tizimlari negizida qayta ko'rib chiqish zarur.

Ta'lim trendlari - bu uning o'zgarishlarini belgilovchi tendensiyalaridir. Birinchidan, bu ta'lim paradigmasining asosi bo'lgan yangi sharoitlar va faol o'qitish usullarini yaratishdir. Ikkinchidan, tanqidiy fikrlaydigan va funksional jihatdan savodli, o'z bilimlarini doimiy ravishda yangilab turadigan, tez o'zgarib turadigan dunyoda muvaffaqiyatli hayot uchun o'z qobiliyatlarini tezda qayta



qo‘radigan, moslanuvchan mutaxassilarni tayyorlash demakdir.

Ilg‘or o‘qitish usullarini joriy etish jamiyatda madaniy o‘zgarishlarni talab qiladi. Oliy ta‘lim muassasalarining tuzilishi yangi g‘oyalar almashinuvi, talabalarning muvaffaqiyatli loyihalarni bajarishi, ularni rivojlantirish va amalda qo‘llash maqsadida osonlashtiriladigan tarzda tuzilishi kerak.

Talabalarga haqiqiy amaliy ko‘nikmalarni o‘rgatish kelajakda ish bilan ta‘minlashda, shuningdek ularning kelgusida egallaydigan kasbiy malakalarini oshirishda yordam beradi, hamkorlikning samarali yechimlarini topish uchun kalit hisoblanadi. Hamkorlikda oliy ta‘lim muassasalarining birlashmalarini yaratish, ularga ta‘lim xizmatlarining jahon bozorida foydali pozitsiyalarini egallashga yordam beradigan alyanslar tuzish tendensiyasi mavjud.

Mamlakatimizda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va onlayn o‘quv materiallari keng tarqalgan bo‘lsada, hozirda butun dunyoda, shu jumladan O‘zbekistonda ham barcha aholi guruhlari uchun bir xil maromda Internetdan foydalanish yuklamasini bajarish imkoniyati mavjud emas. Shu sababli, kelajakda talab qilinadigan talabalarning kasbiy ko‘nikmalari, ijodkorlik qobiliyatlari va tanqidiy fikrlash qobiliyatlari bo‘yicha baholash mezonlarini ishlab chiqish OTMLar uchun eng ustuvor vazifadir.

Mamlakatimizda turli madaniyat markazlari jadal faoliyat olib boradi. Masalan, respublikada mavjud ellikka yaqin madaniyat markazlari O‘zbekistonda yashab, mehnat qilayotgan turli millat va elatlar madaniyatlarini saqlab qolish va rivojlantirish uchun barcha shart-sharoitlar yaratib berilgan. Shu bilan birga mustaqillik yillarida xorijiy davlatlar universitetlarining mamlakatimizdagi filiallarini ochish ishiga asos solindi. Ulardan Buyuk Britaniyaning Toshkent xalqaro Vestminster universiteti, Toshkentdagi Singapur menedjmentni rivojlantirish instituti, Toshkentdagi Turin politexnika instituti, G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universitetining Toshkentdagi filiali, Gubkin nomidagi neft va gaz universitetining Toshkentdagi filiali, Moskva davlat universitetining Toshkentdagi filiallari mana shular jumlasidandir.

Bugungi kunda innovatsion texnologiyalar ta‘lim trendlari sifatida baholanar ekan, bu uning o‘zgarishlari bilan bog‘liq bo‘lgan dinamika ko‘rsatkichini belgilaydi.

Bilimlarga asoslangan jamiyat va raqobatbardosh iqtisodiyotni shakllantirishga intilayotgan mamlakatlar har doimgidan ko‘ra aholining bilimlarini doimiy ravishda yangilab borish, xodimlarning malakasini oshirish va kasbiy rivojlanish imkoniyatlarini kengaytirish zarurati haqida ko‘proq



tashvishlanmoqdalar. Bu universitetlar va korporatsiyalar o'rtasidagi yaqin hamkorlik masalasidir. Axborot manbalarini tahlil qilish natijasida bugungi kunda zamonaviy ta'lim yo'nalishlarini ikkita asosiy trend (yo'nalish)ga ajratish mumkin:

1-trend. O'rganish insonning asosiy kundalik faoliyatiga aylanadi Har bir inson har kuni yangi narsalarni o'rganishga ishtiyoqmand bo'lishi, o'quv-biluv faoliyati haftasi 14 soatgacha davom etishi muqarrar. 2025 yilga kelib 60 yoshdan oshgan odamlar bugungi 20 yoshdagilar kabi uzoq vaqt o'qiydilar, yoshlar esa bugungi kunga qaraganda ikki baravar ko'p tahsil olishga ehtiyoj sezishadi.

2-trend. Hayot davomida tahsil olish. Insonning hayoti davomida yangiliklarni o'rganish, ularni o'zlashtirish uchun ehtiyoj oshadi. Bu insonda texnologiyalar va g'oyalarning tez o'zgarishi bilan asosiy ko'nikmalarga aylanadi. Texnologiyalar va g'oyalarning tez o'zgarishi bilan asosiy ko'nikmalardan biri - eskilarni «mustahkamlash» va yangi narsalarni o'rganish qobiliyatlari bo'ladi. Hozirgi ta'lim tizimi o'zgarishi kerak, chunki endi hych kim bitiruvchiga 4 yil ichida qanday bilim va ko'nikmalar kerakligini rejalashtira olmaydi. Shuning uchun qayta tayyorlash va malaka oshirish institutlari fundamental ta'limga qo'shiladi. Raqamli texnologiyalardan foydalangan holda o'quv jarayoni bilan bevosita bog'liq bo'lgan quyidagi trendlarni e'tirof etmoqchimiz:

3-trend. Raqamli texnologiyalar rivojlanib borishi bilan insonlar tobora ko'proq farovonlik va qulaylik izlashga majbur qiladigan ehtiyojlari ortib bormoqda. Bu esa, onlayn kurslardan foydalangan holda ta'limni individuallashtirishni talab qiladi. Talaba kutilgan ehtiyojlariga to'liq moslashtirilgan onlayn kurslar yordamida o'quv jarayonidan ko'proq foyda olishi, o'quv materialini o'zlashtirishda optimal natijalarga erishishi mumkin. Shu bilan birga, individual yondashuv samarali bo'lishi ta'minlanadi.

4-trend. Teskari o'qitish. Bu aralash ta'limning alohida holati – jonli tarzda, an'anaviy ma'ruzalar o'rniga on layn va of layn tarzidagi mashg'ulotlarning tashkil qilinishi. Bunda professor- o'qituvchilar faqat amaliy mashg'ulotlar uchun to'liq tayyorgarlik ko'rishadi: savol-javob, suhbat, muloqot kabi ta'lim shakllari rivojlanadi.

5-trend. Ta'lim jarayonini avtomatlashtirish. Professor-o'qituvchilar uchun tejamkor yechimga aylanadigan va eng muhimi, talabalarining ta'lim natijalarini yig'ish va saqlash jarayonlarini avtomatlashtirishga imkon beradigan o'quv kurslari va materiallarini yaratish uchun Internetda maxsus vositalardan foydalanish.



6-trend. Mobil texnologiyalardan foydalangan holda ta'lim kapsulalarini yaratish. Uzoqdagi ta'lim sub'ektlari bilan jonli muloqot o'rni barcha ma'lumotlar kichik bloklarga, bilim qismlariga bo'linadi, ularni tezkorlik bilan (yo'lda, transportda, yugurish yo'lakhasida) o'zlashtirish mumkin. Buning uchun murakkab materiallarni qisqa, mantiqiy jihatdan to'liq bloklar qatoriga ajratish kerak.

7-trend. Kengaytirilgan real voqeyaviylikdan foydalangan ta'lim. Ta'lim foydalanuvchi muhitiga moslashadi va ancha samaraliroq bo'ladi. Kengaytirilgan reallik texnologiyalarining tarqalishi o'quv jarayoniga sezilarli darajada ta'sir qiladi, ammo virtual haqiqat va unga kirish imkoniyati asosiy «tezlashtiruvchi» ga aylanadi. Odamlar vizual va eshitish hissi orqali onlayn ta'limni takomillashtirishi mumkin.

8-trend. Ta'limni geymifikatsiyalash (o'yin sifatida o'rganish). Vizualizatsiya va interaktiv ishtirok etish. Yig'ilgan ballar. Jamoa musobaqasi. Yangi bosqichga o'tish. Hamma narsa kompyuter o'yinlaridagi kabi, ammo o'quv materiallari bilan yo'g'rilgan holatda amalga oshiriladi.

«Kiberjamiyat - bu zamonaviy axborot-kommunikatsiya, kompyuter, elektron, raqamli va Internet texnologiyalari orqali real va virtual makonlarda ishlab chiqarish va ijtimoiy hayotning dolzarb haqiqati sifatida birlashgan va birgalikdagi jamoaviy faoliyatni tashkil etgan odamlar jamiyatidan iboratdir» [3, 121]. Binobarin, bunday holda, kiber-jamiyatdagi aloqa o'lchovi - bu kiberfazo orqali yoki to'g'ridan-to'g'ri kiber-makon bilan shaxslarning dialogi, uning turli ko'rinishlarida namoyon bo'ladi. Axborot ushbu dialogning vositasi va natijasiga aylanadi. Demak, talabalarda turli kompetensiyalar striming texnologiyalari asosida rivojlantirish uchun raqamli texnologiyalarga zarurat oshadi.

Zamonaviy dunyoda raqamlashtirish inson hayotining barcha sohasini qamrab olar ekan, axborot jamiyatini shakllantirish jarayonida o'zbek ta'limi sohasida ham tub o'zgarishlar yuz bermoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 6 noyabrda "Ta'lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" PQ-4884-son qarorida ham raqamli, smart iqtisodiyotga o'tish uchun ishlab chiqarishni bosqichma-bosqich modernizatsiya qilish, avtomatlashtirish, robotlashtirish talab etilishi ta'kidlangan [1]. Binobarin ushbu jarayon mamlakatimizda bir necha bosqichlarda amalga oshirilishi, uning insoniy, ilmiy va ilmiy-texnologik, moddiy-moliyaviy ta'minoti bo'yicha ishlab chiqilgan majmuaviy dasturlar yangi Renessans g'oyasi bilan mafkuraviy jihatdan bog'lanishi shart. "Ilmiy, ilmiy-texnologik ta'minot taqozosidan kelib chiqib, ta'lim-tarbiya sohasining barcha bo'g'inlari uzluksiz isloh etib borilishi kerak" [5].



“Baytul hikma”, Xorazm Ma’mun Akademiyasi, umuman, islom olami olimlari faoliyati o’sha davrdagi xalqaro ilmiy integratsiyaning eng yorqin namunasidir. Birinchi va ikkinchi renessanslarning ma’naviy asoslarini va sabablarini hamda keyingi inqirozini chuqur o’rganmasdan, biz Uchinchi Renessansni muvaffaqiyatli amalga oshira olmaymiz. Bugun ham bizga g’oyaviy va ilmiy tolerantlik (bag’rikenglik), ilmga, haqiqatga tashnalik, milliy mahdudlikni, g’oyaviy mutaassiblikni tamomila inkor etish xos bo’lmog’i lozim”[3]. Binobarin, har bir mamlakatda jamiyat talabidan kelib chiqib, yuksak axloqiy, kasbiy-professional darajada taraqqiy etgan kadrlarni tayyorlash davlat rivojlanishining pirovard maqsadiga mos keladi. Demak, raqamli texnologiyalar davrida urf-odatlarimiz ham takomillashtirilishi va zamonaviylashtirilishi zarur. Ijtimoiy ongda, odamlarning xatti-harakatlarida yangicha burilish yuz berishi, zamonaviy ideallar va qadriyatlar oldingi urf-odatlarimiz va qadriyatlarimiz zamirida shakllantirilishi lozim.

Raqamli texnologiyalar sharoitida uchinchi Renessans g’oyasi ta’lim, madaniyat, ilm-fan sohalarida yuqori ko’rsatkichlarni, ya’ni AKT sohasida sun’iy intellekt yaratish, nanotexnologiya, biotexnologiyalar va shu kabi yo’nalishlardagi vazifalarni rivojlantirishni nazarda tutadi. Bularning barchasi inson omiliga qaratilgan bo’lib, Prezidentimiz ta’kidlaganidek, insonning yaxshi turmush qurishi, farovon hayot kechirishiga mo’ljallangan. “Har qanday buyuk rejalar, buyuk g’oyalar inson ehtiyojlari, turmushi yaxshilanishi, erkinligi ortishi va ma’naviy kamoloti bilan bevosita bog’lansagina, hayotiylik va reallik kasb etadi. Aks holda u havoyi orzu havasligicha qolib ketadi”[5]. Yuqoridagilardan ko’rinib turibdiki, uchinchi Renessans bizdan xalqaro hamjamiyatga ilm-fan, texnologiyalar, axborot, madaniyat va iqtisodiyot sohalarida yanada chuqurroq integratsiya bo’lishini talab etadi. Ammo o’zligimizni, tilimizni, milliy xususiyatlarimizni, ma’naviyatimizni saqlab qolishimiz shart.

Zamonaviy ta’lim trendlarining ikkinchi omili o’qituvchi va talabalarning munosabatlari, psixologik muhit, o’qish jarayoni ishtirokchilarning on layn va of layndagi o’zaro munosabatlari, talabalarning idrok etish faoliyatlariga o’qituvchining rahbarligi hisoblanadi.

Zamonaviy ta’lim trendlarining rivojlantiruvchi vazifasi talaba nutqining, fikrlashi, shaxsning sensorli va harakatlanish sohalarini, emotsional-irodaviy, intellektual sohalarini rivojlantirishda o’z aksini topadi Zamonaviy ta’lim trendlarini oqilona yo’naltirish orqali bo’lajak mutaxassislarni aqliy rivojlantirish, aqliy faoliyat usullari, analiz qilish, taqqoslash, tasniflash, kuzatish, xulosa chiqarish, obektlarning muhim belgilarini ajrata bilish, faoliyat maqsadi va usullarini aniqlashni



bilishga o'rgatish, uning natijalarini tekshirish malakasini rivojlantirishga erishiladi.

Zamonaviy dunyoda raqamlashtirish inson hayotining barcha sohaslarini qamrab olar ekan, axborot jamiyatini shakllantirish jarayonida o'zbek ta'limi sohasida ham tub o'zgarishlar yuz bermoqda. 2020 yilning 24-sentyabrida Prezidentimiz tomonidan Oliy Majlis Senatida mamlakatimiz o'qituvchilariga qaratib aytilgan tabrik nutqida mamlakatimiz uchinchi renessansni boshidan kechirayotganligi to'g'risida fikr bildirildi. Rennesans- "madaniyatda, ilm-fanda, san"atda, ta'lim-tarbiyada, umuman, jamiyat hayotida uzoq muddatli turg'unlikdan keyin qayta jonlanib, tez rivojlanishni, ijtimoiy ong va qadriyatlar tizimi yangi sifat bosqichiga chiqishini bildiradi"[5]. Binobarin ushbu jarayon mamlakatimizda bir necha bosqichlarda amalga oshirilishi, uning insoniy, ilmiy va ilmiy-texnologik, moddiy-moliyaviy ta'minoti bo'yicha ishlab chiqilgan majmuaviy dasturlar yangi Rennsans g'oyasi bilan mafkuraviy jihatdan bog'lanishi shart. "Ilmiy, ilmiy-texnologik ta'minot taqozosidan kelib chiqib, ta'lim-tarbiya sohasining barcha bo'g'inlari uzluksiz isloh etib borilishi kerak"[3].

Bugungi kunda innovatsion texnologiyalar ta'lim trendlari sifatida baholanar ekan, bu uning o'zgarishlari bilan bog'liq bo'lgan dinamika ko'rsatkichini belgilaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 6 noyabrdagi "Ta'lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" PQ-4884-son qarori/ Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi; 06.12.2020 y., 06/20/653/1592-son
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 25 yanvardagi "Xalq ta'limi sohasidagi ilmiy-tadqiqot faoliyatini qo'llab quvvatlash hamda uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini joriy qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4963-son qarori/ Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi; 25.01.2021 y., 25/01/345
3. Arbuзов S. S. Realizatsiya informatsionno-texnologicheskoy modeli podgotovki budushch ITspetsialistov v oblasti infokommunikatsionnykh sistem i setey // Pedagogicheskoe obrazovanie v Rossii. – 2014. – № 8. – S. 85–89.
4. Кулько В.А., Цехмистрова Т.Д. Формирование у студентов умений учиться: Пособие для учителей. -М.: Логос, 2018. -324с.
5. Erkaev A. Uchinchi Rennsans nima?/ <https://xs.uz/uzkr/post/uchinchi-renessans-millij-goya>



TA'LIM SIFATINI BOSHQARISHDA AXBOROT XIZMATINI TASHKIL QILISH BO'YICHA XORIJ TAJRIBALAR

F.A.ABDULLAYEV,

A.Avloniy nomidagi xalq ta'limi muammolarini
o'rganish va istiqbollarini belgilash
ilmiy-tadqiqot institutining "Uzluksiz kasbiy ta'lim"
kafedrasini mudiri, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Maqolada axborot xizmatini tashkil qilish bo'yicha xorij tajribalari o'rganilib, respublika pedagogik oliy ta'lim muassasalari ta'lim menejmentida ta'lim sifatini oshirish masalalari o'z ifodasini topgan. Unda didaktik jarayonning sifatini oshirish, axborot xizmati tizimini modellashtirish, axborot-kommunikatsiya xizmatlaridan foydalanish usullarini takomillashtirish mexanizmlarini joriy etishga e'tibor qaratilgan.

Tayanch tushunchalar: axborot xizmati, ta'lim sifati, ta'lim menejmenti, didaktik jarayon, modellashtirish, axborot-kommunikatsiya xizmatlari, takomillashtirish.

В статье исследуется зарубежный опыт организации информационных услуг и отражены вопросы повышения качества образования в системе управления образованием педагогических вузов республики. Основное внимание уделяется повышению качества дидактического процесса, моделированию системы информационных услуг, внедрению механизмов улучшения использования информационных и коммуникационных услуг.

Ключевые понятия: информационное обслуживание, качество образования, управление образованием, дидактический процесс, моделирование, информационные и коммуникационные услуги, улучшение.

The article examines foreign experience in the organization of information services and reflects the issues of improving the quality of education in the education management of pedagogical higher education institutions of the republic. It focuses on improving the quality of the didactic process, modeling the information service system, the introduction of mechanisms to improve the use of information and communication services.

Key words: information service, quality of education, education management, didactic process, modeling, information and communication services, improvement.

Bugungi kunda rivojangan davlatlarda ta'lim tizimini axborotlashtirish keng tarqalgan. Ular asosan: ta'lim mazmunining tahsil oluvchilarning va ta'lim muassasasi ma'muriyati orasidagi axborot almashinuvi ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda amaliyotga yo'naltirilgan. Masalan, Amerikada, ta'lim muassasasidagi axborot xizmati ta'lim jarayoni sub'ektlarining birgalikdagi samarali faoliyatini muvofiqlashtirishga mo'ljallangan bo'lib, kim va qanday faoliyatni bajarishi (funktional vazifalari, majburiyatlari, huquqlari, javobgarligi), bunda kim bilan va qay yo'sinda o'zaro munosabatda bo'lish lozimligini belgilash (taqsimlash), bunday vazifalarni amalga



oshirish boshqaruvni tashkil qilishga yo'naltirilgan. Pedagogik jarayon ishtirokchilarining o'z (o'quv, mehnat) faoliyati samarasi va unumdorligidan manfaatdorligi, undan qoniqishni ta'minlanishi, jamoada qulay ijtimoiy-psixologik muhitni shakllantirish va barqarorlashtirish uchun sub'ekt amalga oshiradigan xatti-harakatlar uyg'unligini muvofiqlashtirishga mo'ljallangan axborot xizmati tashkil qiladi.

Ta'lim jarayonida axborot xizmatidan foydalanish strategiyalarini takomillashtirish bilan bog'liq ilmiy izlanishlar jahonning yetakchi ilmiy markazlari va oliy ta'lim muassasalarida, jumladan, Italiyaning Bolonya universiteti huzuridagi Layf Kouching instituti, Germaniyaning Gumbold universiteti huzuridagi Ta'lim instituti, Bavariya akkreditatsiyalash, sertifikatlash va sifatni kafolatlash instituti, Fransiyaning Sorbonna uiversiteti huzuridagi Ta'lim sifatini kvalimetrik tahlil qilish instituti, AQShning Yel, Prinston universitetlari, Yaponiyaning Tokio pedagogika universiteti, Rossiyaning Moskva davlat universitetining boshqaruv kadrlarini tayyorlash o'quv-ilmiy markazi, A.S.Pushkin nomidagi Sankt-Peterburgdagi pedagogika instituti, Rostov-Dondagi Janubiy Federal universitetlarida (Rossiya) olib borilmoqda[3].

Axborot texnologiyalarini o'qitish jarayoniga tatbiq etish asosida insonning hayoti davomida sifatli bilim olishiga imkoniyat yaratish, o'qituvchi va talabalarning bilim olishini faollashtirish, ularni intellektual rivojlantirish, tayanch va fanga oid maxsus kompetensiyalarini shakllantirishda yangi g'oyalarni topish va amaliyotga tatbiq etish zarurati ta'lim jarayonining sifatini oshirishda axborot xizmatini modellashtirish tizimini takomillashtirishni taqoza etmoqda. Shu bois, respublika pedagogik oliy ta'lim muassasalari ta'lim menejmentida axborot xizmati tizimini takomillashtirish va amaliyotga tatbiq etish dolzarb masalalardan biridir. Bu o'z navbatida, didaktik jarayonning sifatini oshirish, axborot xizmati tizimini modellashtirish, axborot-kommunikatsiya xizmatlaridan foydalanish usullarini takomillashtirish mexanizmlarini joriy etish orqali zamonaviy ta'lim olish imkoniyatini yaratish zaruratini ko'rsatadi. Butun dunyo ta'lim muassasalarida "shaxs", "davlat" va "jamiyat" talablariga javob beruvchi ta'lim sifati tizimini yaratish asosiy omil qilib belgilanmoqda.

Rivojlangan mamlakatlar - AQSh, Rossiya, Xitoy, Yaponiya, Buyuk Britaniya, Fransiya, Germaniya kabi davlatlardagi oliy ta'lim tizimida o'qitish sifatini oshirishda axborot xizmatidan foydalanish bo'yicha o'tkazilgan tahlillar mazkur jarayonning o'ziga xos tarzda tashkil qilinayotganligini ko'rsatdi. Ma'lumki, 1999 yil iyun oyida 29 ta yevropa mamlakatlari vakillari Italiyaning Bolonya shahridagi eng qadimgi universitetlarning birida Bolonya deklaratsiyasini imzolashdi [4]. Ushbu deklaratsiyaga binoan, turli mamlakatlar ta'lim tizimida yagona sifatli o'qitish makonini yaratish, o'xshashlik tizimini tashkil qilish va shu asosda kompetensiyaviy yondashuvlar asosida o'quv dasturlarini takomillashtirish, ochiqlik xarakteriga ega



bo'lgan ta'lim tizimini yaratish maqsadi ilgari surildi. Bugungi kunda Bolonyadagi deklaratsiya tiizimida 50 ortiq mamlakat ishtirok etmoqda. Bu jarayon ishtirokchilari yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlash, yevropa tashkilotlari homiyligi ostida tahsil oluvchilar va professor-o'qituvchilarning kompetensiyalarini shakllantirish va rivojlantirishga imkoniyat tug'diruvchi yagona ta'lim muhitini yaratishda axborot xizmatidan foydalanish kabi sa'y-harakatlarni amalga oshirishmoqda.

Pedagogika OTMLari uchun axborot texnologiyalari asosida ta'lim boshqaruvini tashkil etish, bo'lajak mutaxassislarni kasbiy kompetentligini oshirish, dasturiy ta'minotini yaratish va amaliyotga tatbiq etish quyidagi ustuvor yo'nalishlarda amalga oshirilishi lozim:

 xalqaro miqyosda o'quv fanlarini sifatli o'qitish;

 ta'lim jarayoniga innovatsion va axborot texnologiyalarni tatbiq etish;

 integratsiyalash imkoniyatlaridan foydalanish orqali talabalarning intellektual salohiyati, kreativ qobiliyatlarini rivojlantirish, kompetensiyaviy yondashuv asosida kelajakda egallashlari lozim bo'lgan kasbiy sohalariga yo'naltiradigan zamonaviy metodik ta'minotni yaratish;

 ta'lim sifatini ta'minlashga qaratilgan samarali amaliy tadqiqotlar olib borish. Ushbu o'rinishlar talabalarni zamonaviy va istiqbolli mehnat bozori talablariga, innovatsion ta'lim muhitiga, o'qitishning yangi strategiyalariga moslashtirish, doimiy yangilanib, o'zgarib, takomillashib borayotgan ta'limiy axborot infrastrukturasi bazasining kasbiy faoliyatga aloqador parametrlarini egallash, texnologik taraqqiyot talablari bilan uyg'unlashtirish, innovatsion texnologiyalar asosida rivojlantirishga qaratilganligi bilan ahamiyatlidir.

AQShda oliy ta'lim turining ko'rinishi -Undergraduate school da o'qish imkoniyati yaratilgan. Bakalavr darajasini egallash huquqini beruvchi ushbu ko'rinishdagi ta'lim muassasalariga kirish uchun umumiy o'rta ta'lim maktabining 9-sinfi (Secondary school)ni tamomlaganlar qabul qilinadilar. Ular pedagogik diagnostika natijalari asosida suhbat orqali o'qish huquqiga ega bo'ladilar. Talabalarning bilim o'zlashtirish darajasi kunlik, haftalik, choraklik va yillik tashxislash natijalariga ko'ra ball asosida jamlanib boriladi. Yuqori ballarga ega bo'lgan talabalar Undergraduate school ga suhbat orqali qabul qilinadilar. Demak, talabalarning bilim o'zlashtirishlarini axborot xizmati orqali muntazam ravishda diagnostika qilib borilishi, ularning kelajakda ta'lim olish ehtiyojlarini qondirishga yo'naltirilganligi bilan tavsiflanadi. Rivojlangan mamlakatlardagi ushbu ilg'or tajribalarni o'rganish, tahlil qilish va shu asnoda milliy ta'lim tizimida axborot xizmatiga oid metodikalarini yaratish, pedagogik amaliyotga ularni tatbiq etish alohida dolzarblik kasb etuvchi ijtimoiy-pedagogik masalalar sirasiga kiradi[4,-34-b.

Raqamli ta'lim resurslari orqali talabalarning bilim egallash sifatini oshirishda Janubiy



Koreya ta'lim tizimini misol tariqasida keltirish mumkin. Bu mamlakatda oliy ta'lim tizimidagi axborot xizmati har o'quv yili uchun sifatli ta'lim olish modelini nazariy asoslash, ishlab chiqish va sinovdan o'tkazish maqsadida tashkil qilinadi. O'zbekistondagi kabi, maktabdagi malaka oshirish doirasida metod birlashmalarning doimiy faoliyati – fan o'qituvchilarining seminarlari tashkil etiladi. Ularda o'qituvchilarni yangi elektron dasturlar, darsliklar, qo'llanmalar va uslublar bilan tanishtirish amalga oshiriladi, o'qituvchilar o'z hamkasblari va taklif etilgan mutaxassislardan maslahat olishlari mumkin bo'ladi. Shuningdek, ochiq darslar o'tkazish, ularni tahlil qilish, pedagogik treninglarni tashkil qilish va boshqa ish usullari amalga oshiriladi [3, -129-b.]. Yaponiyada esa, oliy ta'limga bo'lgan ehtiyojni pedagoglar jamoasining o'zi aniqlaydi va o'z kuchi yoki mutaxassislarini taklif etish orqali axborot xizmatini tashkil qiladi.

AQSh, Germaniya, Singapur, Janubiy Koreya, Yaponiya, Xitoy kabi rivojlangan mamlakatlarda XXI asr shitob bilan almashayotgan axborotlar oqimidan talabalar uchun zaruriy ma'lumotlarni taqdim etish va ularni reproduksiyalashga imkon beruvchi ta'lim tizimini yaratish uchun bozor va ishlab chiqarish korxonalarining barcha ehtiyojlarini inobatga olish uchun ularda shakllantirilishi va rivojlantirilishi lozim bo'lgan kompetensiyalar tizimi ishlab chiqilgan. Masalan, Germaniyaning oliy ta'lim tizimi ikki toifaga: institut-Hohshule va universitet-Fachhohshulelarda tahsil oluvchilarning o'qishlarini davom ettirishga hozirlaydi. Har bir ta'lim muassasasida axborot xizmati tashkil qilingan bo'lib, ularda bilim o'zlashtirish va fanlarga oid kompetensiyalarni rivojlantirish; kompyuter savodxonligining rivojlanishini tashxislash; grafik redaktorlar bilan ishlash ko'nikmalarining shakllanganlik darajalarini o'rganish hamda umumiy mental darajadagi ko'nikmalarining shakllanganlik darajalarini aniqlashga qaratiladi.

Bugungi kunda yevropa mamlakatlarida o'qituvchilarning oliy ta'limdan keyingi maktabdagi ta'limi malaka oshirishning yetakchi shakli sifatida qaralmoqda. Ushbu holatni e'tirof etgan holda, maktab negizida amalga oshiriladigan ta'lim malaka oshirishning yagona shakli emasligini qayd etish lozim. Bunga misol sifatida yevropaning Evridika axborot tarmog'ining ko'pgina mamlakatlarda malaka oshirish markazlari, pedagogik muassasalar va boshqa oliy ta'lim muassasalarida, katta yoshdagilar ta'limi muassasalarida va pedagoglarning kasbiy birlashmalari negizida olib borilayotgani haqidagi ma'lumotlarini keltirish mumkin.

To'plangan tajribalar mamlakatimizdagi pedagogika oliy ta'lim muassasalarini boshqarishda axborot xizmati tizimini yanada takomillashtirishga xizmat qiladi. Adabiyotlar tahlili axborot xizmatini tashkil qilish va uning imkoniyatlaridan foydalanish masalasida turli mamlakatlarda bir-biridan qator farqlanishlar mavjudligini ko'rsatdi:

Bo'lajak pedagoglarning kurs tayyorgarligi uchun muddatni tanlash: ish



vaqtida professor-o'qituvchilarni rotatsiya qilish axborot xizmati vositasida amalga oshirilishi (Germaniya, Gollandiya, Daniya), axborot xizmatidan bo'lajak o'qituvchi va ta'lim muassasasi professor-o'qituvchisini attestatsiyadan o'tkazish (Belgiyaning bir qismida, Buyuk Britaniya, Malta, Finlyandiya va Shvetsiyada), ishdan bo'sh vaqtda – ta'tilda, maqsadli ta'tilda axborotli xizmatdan foydalanish (Islandiya, Ispaniya, Lyuksemburg).

Talabalarning mustaqil izlanishlar olib borishlari uchun Avstriyada uzluksiz davom etadigan axborot xizmatidan foydalanilgan holat uchun har oyda kamida 15 soat, Gollandiyada esa – 166 soat vaqt bag'ishlashlari lozim.

Finlyandiya, Shvetsiya, Germaniya, Xitoy va boshqa mamlakatlarda bo'lajak kasbiy rivojlanish uchun talabalar har kuni axborot xizmatlari vositasida mustaqil ishlash uchun 4 soat vaqt ajratishadi, lekin AQSh va Yaponiyada katta o'quv yuklamasi yoki qo'shimcha vazifalar mavjudligi sababli ularning axborot vositalari asosida o'z ustida ishlashlari uchun 1,5 soat vaqt ajratiladi.

Singapur hukumati o'z o'qituvchilariga har yili 100 soat hajmda axborot vositalari asosida malaka oshirish majburiyatini yuklagan. Finlyandiyalik ish beruvchilar ham o'qituvchilarning axborot-kommunikatsiya vositalari asosida malaka oshirishlarini har yili tashkil etishlari lozim.

Pedagoglarning o'z ustida mustaqil izlanishlari, qayta tayyorlovdan o'tishlari, malaka oshirishlarida axborot xizmatidan foydalanish darajasi ham farqlanadi. Masalan, Yaponiyada pedagogika oliy ta'limi muassasalari va fakultetlarining bitiruvchilari, maktabga qabul qilinishlaridan oldin bir yil davomida prefekturalarning o'quv markazlarida onlayn-ma'ruzalarini tinglaydilar, seminar va boshqa mashg'ulotlarda ishtirok etadilar. Davlat ta'lim muassasalarida kamida 10 yil ishlagan (shundan 5 yili uzluksiz), nafaqa yoshiga yetmagan Lixtenshteyn o'qituvchilariga esa kasbiy rivojlanish maqsadida (avvalo, o'zlari dars beradigan fanning didaktikasi va metodikasi sohasida) jadal qayta Onlayn tayyorlovdan o'tish tavsiya etiladi. O'quv jarayoni oxirgi 5 yillikdagi o'quv yuklamasidan kelib chiqib, 5-20 haftani tashkil etadi.

Gollandiya, Yaponiya, AQSh, Belgiya, Germaniya, Xitoy va boshqa ayrim mamlakatlarda axborot xizmatidan foydalanilgan holda ta'lim sifatini boshqarishga katta ahamiyat beriladi. Ayrim rivojlanayotgan mamlakatlar va bir qancha rivojlangan (Daniya, Fransiya, Italiya, Norvegiya, Lyuksemburg) davlatlarda axborot xizmati asosida o'qituvchilar ixtiyoriy ravishda ta'lim dasturlarida ishtirok etishadi. Bunday pedagoglarning yevropada eng yuqori foizi Sloveniyada (76% ko'proq), eng kam – Polshada. Osiyoda bu borada yuqori ko'rsatkichlarga ega bo'lgan davlat – bu Koreyadir (yiliga 92% o'qituvchi).

Ta'lim sifatini boshqarish: markazlashtirilgan va markazlashtirilmagan.



Masalan, Shvetsiyada pedagoglarning kasbiy rivojlantirish markazining ishtirokisiz amalga oshiriladi: bu sohada davlat hiech qanday vazifaga, davlat tomonidan nazorat tizimiga ega emas (u bozor munosabatlari asosida, mazkur xizmatga bo'lgan talab va ehtiyojdan kelib chiqqan holda amalga oshiriladi). Finlyandiya pedagoglarning kasbiy o'sishiga ish beruvchilar – maktab direktorlari yoki munitsipal qo'mitalar javob beradi. Yaponiyada aksincha, axborot xizmatini tashkil qilish davlat tomonidan nazorat qilinadi.

O'rganilgan barcha mamlakatlarda o'qituvchilarning malaka oshirishi turli imtiyoz va rag'batlantirishlar orqali qo'llab-quvvatlab turiladi. Hukumat o'qituvchilar tomonidan o'zgalarning ilg'or tajribasini o'rganishni tashkil etish maqsadida mamlakat ichida va chet ellarga xizmat safarlarini uyushtiradi, o'qituvchilarni uslubiy materiallar bilan ta'minlaydi, malaka oshirish uchun ijodiy ta'tillar beradi. Ijodiy faoliyat ko'rsatayotgan o'qituvchilarni rag'batlantirish maqsadida AQShda O'zbekistondagi kabi har yili "Yil o'qituvchisi" ko'rik-tanlovi o'tkaziladi, g'oliblarga tantanali vaziyatda pul mukofoti va billur olma shaklidagi mukofot taqdim etiladi. Yaponiya davlati ham bu borada o'z an'anasiga ega. O'qituvchining mustaqil ta'limi alohida rag'batlantiriladi. Kechki va sirtqi shaklda o'z xohishi bilan o'qiyotgan o'qituvchilarga oylik maoshlarining o'ndan bir qismi miqdorida ustama haq to'lanadi. Lixtenshteynda malaka oshirish pedagogga yuqoriroq ta'lim bosqichi muassasasida lavozimni egallash imkoniyatini beradi. Finlyandiya o'qituvchilarning uzluksiz ta'lim jarayonlaridagi ishtiroki ularning oylik maoshlariga va xizmat mavqelarining o'sishiga ta'sir etmaydi [6,85-b.].

Bozor iqtisodiyoti sharoitida ham shaxsiy tashabbuskorligini, ham kasbiy rivojlanishi haqini o'zi to'lashga tayyorligini namoyish etish orqali pedagog o'zining kasbiy saviyasiga bo'lgan mas'uliyatni davlat bilan bo'lishishi rivojlangan davlatlardagi malaka oshirishning xozirgi kundagi muhim alomatidir [2]. Ko'p mamlakatlarda o'qituvchilarning malaka oshirishi davlat tomonidan to'lanishini qayd etish lozim.

Rivojlangan davlatlarda o'qituvchilarni kasbiy rivojlantirish dasturlarining mazmuni ko'p qirrali, kengaytirilgan tavsifga ega. Pedagoglarda eng ko'p qiziqishni AKT uyg'otadi (bu ko'p jihatdan ta'limni axbortlashtirish bilan bog'liq). An'anaviy ta'limga ham qiziqish hali o'z kuchini yo'qotmagan: Koreya Respublikasida o'qituvchilarning qiziqishini o'ziga jalb qilayotgan soha AKT emas, balki maktabda o'qitilayotgan fanlarning mazmuni va o'qitish metodlaridir.

O'rganilgan davlatlar va O'zbekistonda oliy ta'lim muassasalarida axborot xizmatini tashkil qilish sifat o'zgarishiga olib kelishi, tayyorlanayotgan pedagogik kadrlar malakasini oshirishning moslashtiruvchi, to'ldiruvchi hamda innovatsion kabi umumiy funksiyalari mavjudligi aniqlandi: moslashish funksiyasining mohiyati o'qituvchilarni zamonaviy ta'limiy vaziyatlarga, bilim, ko'nikma va malakalarini



shu kunning ijtimoiy-pedagogik talablariga moslashtirishga yo‘naltirishdan iborat; to‘ldirish funksiyasining mohiyati amaliy pedagogik faoliyat davomida kelib chiqqan yoki pedagogik ta‘limni olayotganda vujudga kelgan bo‘shliqlarni to‘ldirishdan iborat; innovatsion funksiya o‘qituvchilarning psixologik-pedagogik tayyorgarligini ilmiy-texnikaviy rivojlanish natijalariga moslashtirish zaruriyatini aks ettiradi, pedagogni o‘z kasbi bo‘yicha ijodiy izlanishga ruhlantiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 2 fevraldagi «O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida»gi PQ-4151-son Qarori./ <https://lex.uz/docs/4188851>

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 27 iyundagi «Ommaviy axborot vositalari mustaqilligini ta‘minlash hamda davlat organlari va tashkilotlari axborot xizmatlari faoliyatini rivojlantirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi PQ-4366-son Qarori.

3. Абдуллаев Ф.А. Электронные образовательные программы в вузах Узбекистана.-Ташкент//Узлуксиз таълим, 2015.-21-23 с.

4. Абдуллаев Ф.А., Ас?аров А.Д. Умумий педагогика. Ў?ув ?ўлланма.-Тошкент: Университет, 2019. – 258 б.

5. Abduqodirov A., Pardaev A. Pedagogik texnologiyalarga oid atamalarning izohli lug‘ati. – Toshkent: Fan va texnologiyalar, 2012. – 44 b.

6. Арбузов С. С. Реализация информационно-технологической модели подготовки будущих IT-специалистов в области инфокоммуникационных систем и сетей // Педагогическое образование в России. – 2014. – № 8. – С. 85–89.



TALABALAR BILIMI TRANSFORMATSIYASIDA RAQAMLI TEHNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH MASALASINING DOLZARBLIGI

S. T. RUZMETOVA,

*Toshkent davlat texnika universitetining
tayanch doktranti*

Maqolada oliy ta'lim muassasalarida raqamli texnologiyalardan foydalanish, talabalar bilimi transformatsiyasida o'qitishga bo'lgan yondashuvlarni yangilashga bo'lgan ehtiyojning paydo bo'lishi; tahsil oluvchining bilish darajasini oshirishga bo'lgan kompetensiyaviy yondashuvlarga ehtiyojlar haqida fikr bayon etilgan.

Tayanch tushunchalar: *texnika oliy ta'lim muassasalari, raqamli texnologiya, pedagogik shart-sharoitlar, bilim transformatsiyasi, intellektual rivojlanish, raqobatbardosh kadrlar.*

В статье рассматриваются вопросы использования цифровых технологий в высшем образовании, необходимость обновления подходов к обучению в условиях трансформации знаний студентов и компетентностных подходов к обучению студентов.

Ключевые понятия: *технические вузы, цифровые технологии, педагогические условия, трансформация знаний, интеллектуальное развитие, конкурентоспособные кадры.*

The article discusses the use of digital technologies in higher education, the need to update approaches to teaching in the transformation of student knowledge; the need for competency-based approaches to student learning.

Key words: *technical higher education institutions, digital technology, pedagogical conditions, knowledge transformation, intellectual development, competitive personnel.*

Bugungi kunda texnika oliy ta'lim muassasalarida raqamli texnologiyalardan foydalanish masalalariga katta e'tibor qaratib kelinmoqda, o'quv dasturlari, rejalari zamon tabalari asosida shakllantirilmoqda. Biroq, hanzuzgacha texnika oliy ta'lim muassasalari talabalar bilimi transformatsiyasida raqamli texnologiyalardan foydalanishning pedagogik shart-sharoitlarini takomillashtirishda ayrim ziddiyatli jihatlar mavjudligicha qolmoqda:

birinchidan, hozirgi faoliyat yuritayotgan texnika OTMlarida talabalar bilimi transformatsiyasida o'qitishga bo'lgan yondashuvlarni yangilashga bo'lgan ehtiyojning paydo bo'lishi;

ikkinchidan, tahsil oluvchining bilish darajasini oshirishga bo'lgan kompetensiyaviy yondashuvlarga ehtiyojining ortishi;



uchinchidan, o'zini oqlamagan pedagogik sharoitlarda moddiy-texnika bazaning eskirgani, kompetentli mutaxassislarning yetishmayotganligi;

to'rtinchidan, o'qitish amaliyotini takomillashtirish zarurati, bo'lajak mutaxassisning kasbiy faoliyatida amaliy foydalanish holati uchun jamiyatning ijtimoiy buyurtmasiga bo'lgan talabning oshishi va boshqalar.

Rivojlangan mamlakatlar - AQSh, Buyuk Britaniya, Germaniya, Xitoy kabilarda ta'lim tizimida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va vositalarining rivoji zamirida ta'lim iste'molchilari tomonidan elektron xizmatdan foydalanish orqali bilimlarni o'zlashtirish shakllariga bo'lgan ehtiyoj oshib bormoqda hamda bu yo'nalishda keng qamrovli tadqiqot ishlari olib borilmoqda [3, 45-b.].

Mamlakatimizda ham ta'lim taraqqiyotini ta'minlash uchun bugungi kunda har sohada bo'lgani kabi ta'lim tizimida, shu jumladan oliy ta'limdagi faoliyatda ham axborot-kommunikatsiya va texnologik innovatsiyalarni keng joriy etish zarur talabga aylanmoqda. Bizgacha amalga oshirilgan ilmiy-tadqiqot ishlarida ta'limdagi innovatsion jarayonlarning mazmuni, mohiyati, shakllari, vositalari va uslublari, yangi pedagogik texnologiyalar borasida ko'plab tadqiqotlar va maxsus modellar ishlab chiqilgan bo'lib, ularning barchasi bizning tadqiqotimizning metodologik asosini tashkil etadi.

Biroq, texnika oliy ta'lim muassasalari talabalar bilimi transformatsiyasida raqamli texnologiyalardan foydalanishning pedagogik shart-sharoitlarini takomillashtirish alohida holda tadqiq etilmadi. Shu asosda, ko'rib chiqilgan tadqiqot yo'nalishlari ichida biz maxsus e'tiborni talabalar bilimi transformatsiyasida raqamli texnologiyalardan foydalanishning pedagogik shart-sharoitlarini takomillashtirish mazmuni va mohiyati masalasi doirasida o'rgandik. Chunki oliy ta'lim tizimida faoliyat yuritayotgan o'qituvchining pedagogik faoliyati shaxsni tarbiyalash jarayonida ta'lim-tarbiya olish sharoitlarini yaratish, uning ehtiyojlarini qondirish va qobiliyatlarini ochish hamda rivojlantirishga yo'naltirilgan bo'lishi muqarrar.

Raqamli texnologiya –bu alohida faoliyat turi emas. Bu, aslida, ishbilarmonlik, sanoat ob'ektlari, xizmatlar tizimi, deganidir. “Raqamli” atamasi mazkur sohalarning barchasida axborot texnologiyalaridan faol foydalanishni anglatadi. Agar oddiy iqtisodiyotda moddiy buyumlar asosiy resurs hisoblansa, raqamli iqtisodiyotda bu qayta ishlanadigan hamda uzatiladigan axborot, ma'lumotlar bo'ladi. Ularning tahlilidan so'ng to'g'ri boshqarish bo'yicha yechim ishlab chiqiladi. Xuddi



shuningdek, ta'lim jarayonida ta'lim jarayoni sub'ektlarining o'quv topshiriqlarini axborot texnologiyalarini qo'llash tushuniladi[3].

Barcha tavsiflarni tahlil qilib, mualliflik nuqtai nazaridan "bilim transformatsiyasi" atamasiga quyidagicha ta'rif berildi:

Bilim transformatsiyasi –bu ma'lumotni o'zgartirish, ya'ni rasmiylashtirilgan va norasmiy bilimlarning ijtimoiy jihatlari orqali bilimlarni tarqatish jarayonidir. Bilim transformatsiyasida bilimlar shaxslar o'rtasida sodir bo'lgan ijtimoiy jarayonni anglatadi.

G'arb an'analariga ko'ra, rasmiy bilimlarni egallash odatiy holdir. Shunga qaramay, ikkala turdagi bilimlarning ikkalasi alohida deb hisoblanishi kerak. Shuni ta'kidlash kerakki, shaxsda emas, balki shaxslar o'rtasidagi ijtimoiy jarayonning o'zgarishiga bilim transformatsiyasi deyiladi.

Ratsionalizm nuqtai nazaridan, insondagi bilimlar - individual shaxslarning ilm o'zlashtirish jarayoni bo'lib, boshqa shaxslarning bilimlarni idrok etishlaridan, o'zgalarning bilim o'zlashtirishidan farq qilmaydi va «ijtimoiy o'zgarish» holatida rasmiylashtirilgan va norasmiy bilimlarni sifat va miqdor jihatidan o'zgartiradi.

Norasmiy va rasmiy bilimlarning o'zaro ta'siri orqali bilimlarni yaratishning taxmini bilim transformatsiyasining to'rtta usuli borligini ta'kidlashga imkon beradi:

1) Rasmiylashtirilmagan bilimdan rasmiylashtirilgan bilimgacha bo'lgan chegara – sotsializatsiya (ijtimoiylashuv);


2. Rasmiylashtirilmagan bilimdan rasmiylashtirilgan bilimgacha - tashkillashtirish;

3. Rasmiylashtirilmagan bilimdan rasmiylashtirilgan bilimgacha - kombinatsiya;

4. Rasmiylashtirilgan bilimdan norasmiy bilimgacha bo'lgan chegara-intereolizatsiya.

Ijtimoiylashuv masalalari guruh jarayonlari va tashkiliy madaniyat nazariyalari bilan bog'liq; kombinatsiya axborotni qayta ishlash natijasida yuzaga keladi, intereolizatsiya. tashkiliy ta'lim bilan chambarchas bog'liq. Ekstereolizatsiya - bu rasmiylashtirilmagan bilimlarni metafora, o'xshashlik, tushunchalar, farazlar va modellar ko'rinishida rasmiylashtirishdir.

Yapon olimlari I.Nonaka va H.Takuchi bilimlarni o'zlashtirishni spiralga o'xshatishadi (1-rasm).



1-rasm. I.Nonaka fikri bo'yicha bilimlar spirali

Rasmda ifodalanganidek, ijtimoiylashuv (sotsializatsiya) o'zaro aloqalar paytida norasmiy ravishda bir kishidan ikkinchisiga yashirin bilimlarni o'z atishni o'z ichiga oladi. Eksternallashtirish - bu yashirin individual bilimlarni aniq tashkiliy bilimlarga aylantirish. Kombinatsiya (tizimli bilimlarni shakllantirish) mavjud bilimlarni foydalanuvchilarga to'g'ridan-to'g'ri yetkazishni ta'minlaydigan muayyan shaklga birlashtirilgan va o'zgartirish orqali aniq bilimlarni aniq bilimlarga o'tkazish jarayonini anglatadi. I. Nonaka va X. Takeuchilarning bilim spirali quyidagilarni o'z ichiga oladi: 1) aniq bilimlardan yashirin bilimgacha bo'lgan axborot; 2) aniq bilimdan aniq bilimgacha bo'lgan axborot; 3) yashirin bilimdan aniq bilimgacha bo'lgan ma'lumot; 4) aniq bilimdan yashirin ma'lumotgacha bo'lgan axborot[4,91-b.].

Raqamli texnologiyalar talabalarda bilimlarni o'zlashtirish transformatsiyasini tashkil etar ekan, ular orqali:

1. Professor-o'qituvchilarda axborot texnologiyalari, bu sohada ilg'or xorij tajribalari haqida tasavvur hosil qilish va ulardan amaliyotda foydalana olish kompetensiyalarini rivojlantirish;

2. Tahsil oluvchilarda esa ijodiy qobiliyatni rivojlantirish, bilim olishni faollashtirishga imkoniyat yaratish hamda kelgusidagi kasbiy kompetentligini oshirishga xizmat qiladi.

3. raqamli texnologiyalar yordamida o'quv jarayonini samarali tashkil etish, o'qitish jarayonida ular asosida on layn va of layn seminar-treninglar, maxsus o'quv kurslarini tashkil etish va amaliyotga tatbiq etishga imkoniyat yaratiladi;

4. Talabalarda bo'lajak mutaxassislikka yo'naltirilgan kompetensiya- larni axborot kommunikatsion texnologiyalar asosida o'rganish hamda uni joriy etish



orqali takliflar ishlab chiqishga xizmat qiladi.

Raqamli texnologiyalar asosida ta'lim jarayonlarini tashkil etish masalalari rivojlangan horijiy davlatlarning ilmiy ishlanmalarida o'rganilmoqda. Shu yo'nalishda biz adabiyotlar, monografiyalar, ilmiy tadqiqotlarni tahlil qildik.

Rus olimlari N.N. Zvereva, A.A. Kasyanlar tomonidan tayyorlangan "Metodologicheskoe znanie v sodernanii obrazovaniya" nomli maqolasida: "Ta'lim oluvchilar rivojlanishining yuqori darajasiga faqat rivojlantiruvchi ta'lim orqali erishish mumkin, bunda ta'lim oluvchilar bilimlarnigina o'zlashtirib qolmay, balki bilim olish usullarini ham o'zlashtiradi. Bilim olish usuli bu - sub'ektiv bilish vositalari bo'lib, ularsiz ta'lim oluvchilarning ijodiy faoliyati amalga oshmaydi"¹ – degan fikrni ilgari surishadi. Darhaqiqat, rivojlantiruvchi tizimda bilimlar ta'lim oluvchilarning faol mustaqil bilish faoliyati jarayonida olinadi, o'qituvchining asosiy vazifasi, ta'lim oluvchilarga ularning bu bilimlarga bo'lgan ehtiyoji va faolliklariga bog'liq bo'lmagan holda tayyor bilimlarni uzatishdan iborat bo'lgan an'anaviy tizimdan farqli, ta'lim oluvchi faoliyatini boshqarishdan iborat bo'ladi .

Adabiyotlar va tadqiqotlar tahlilidan mamlakatimizda raqamli texnologiyalar yordamida talabalarning bilim o'zlashtirish transformatsiyasi masalasi to'laqonli o'z yechimini topmaganligini ko'rsatadi. Ta'lim jarayoni ham uning har bir bosqichida mana shu yangilangan mohiyatni, innovatsion mazmunni yoshlar tafakkuriga singdirishi va ularni raqobatbardosh qilib jamiyatga yetishtirib berishi taqozo qilindi. Yangi bosqichda barkamol shaxs shakllanishiga doir barcha vazifalarni bir to'xtamga keltirish, mazkur maqsadning nazariy va amaliy jihatlarni ishlab chiqish, oliy ta'lim tizimi uchun joriy etish mexanizmlarini belgilash kabi vazifalar ham dolzarblik kasb eta boshladi.

Mamlakatimizda 2020 yilning 23 sentyabrda yangi tahrirdagi "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun qabul qilindi. Unda belgilangan vazifalarni muvaffaqiyatli amalga oshirish asosida ta'lim jarayonining barcha bosqichlarini qamrab oluvchi, zamonaviy innovatsiya talablariga to'la javob beruvchi ta'lim infrastrukturasi, ya'ni uzluksiz ta'limning yaxlit tizimi yaratildi. Ushbu tizim ta'lim sohasini tubdan isloh qilish, ta'limni yagona o'quv-ilmiy ishlab chiqarish majmuasi sifatida kompleks rivojlantirishga xizmat qilmoqda.

Shu nuqtai nazardan, talabalar bilimi transformatsiyasida raqamli texnologiyalardan foydalanish ijtimoiy-pedagogik muammo sifatida o'rganildi va uning mazmunini yangilash va boyitish mavzui doirasida muhim ahamiyat kasb etishi aniqlandi.



Ta'lim muassasalarida o'quv fanlarini sifatli o'qitish, ta'lim jarayoniga axborot texnologiyalarini tatbiq etish, integratsiyalash imkoniyatlaridan foydalanish orqali tahsil oluvchilarning intellektual salohiyati, kreativ qobiliyatlarini o'rganish, tahlil qilish, kompetensiyaviy yondashuv asosida kasbiy sohalarga yo'naltiradigan zamonaviy metodik ta'minotning sifatini o'rganish ehtiyoji sezilmoqda [3,21-b.]. Shu bois, mutaxassislarni zamonaviy va istiqbolli mehnat bozori talablari, innovatsion ta'lim muhitiga, o'qitishning yangi strategiyalariga moslashtirish, doimiy yangilanib, o'zgarib, takomillashib borayotgan ta'limiy axborot infrastrukturasi bazasining kasbiy faoliyatga aloqador parametrlarini egallash uchun axborotlashgan xizmatni quyidagicha tizim doirasida yaratish va amaliyotga tatbiq etish zarurati mavjud:

– yaratilgan o'quv-uslubiy ta'minotni mashg'ulotlarga o'z vaqtida yetib borishini ta'minlash;

- ma'ruzachi o'qituvchilarning mahoratini uzluksiz takomillashtirib borish;
- fanni o'qitishga doir yangi metod va texnologiyalarni operativ tatbiq etish;
- kurslarda ta'lim sifati va samaradorligini ta'minlash;
- talabalarning bilim, ko'nikma va malakalarini doimiy monitoringini olib borish;
- talabalar va magistrantlarning bilimini joriy, oraliq va yakuniy nazoratini

axborot xizmati asosida monitoringini tashkil etish.

Shunday qilib, ta'lim tizimi oldidagi muammolarni hal etish uchun yangi axborotni o'zlashtirish va o'zlashtirgan bilimlarini o'zlari tomonidan baholashga qodir, zarur qarorlar qabul qiluvchi, mustaqil va erkin fikrlaydigan shaxslar zarurligi muqarrar. Shuning uchun ham, bugungi kundagi oliy ta'lim tizimidagi pedagogik jarayonning bosh xususiyatlardan biri uning raqamlashtirilishi bilan belgilanadi. Dunyo ta'lim tizimida raqamli texnologiyalarning keng qo'llanilishi tahsil oluvchilarning kreativ fikrlashini rivojlantirishga, kasbiy kompetensiyalarini shakllantirishga qaratilmoqda. Ushbu IT ta'lim texnologiyalari asosida ta'limni tashkil qilish masalalarini o'rganishga alohida e'tibor qaratilib, ilmiy izlanishlar zaminida turli axborot-kommunikatsion ta'lim texnologiyalari asosida ta'limni samarali tashkil qilish masalalarini o'rganishga qiziqish kuchaymoqda. Mamlakatimizda ham bo'lajak kadrlarni tayyorlash tizimini takomillashtirish, zamonaviy pedagogik va raqamli texnologiyalardan foydalangan holda o'qitishning ilg'or metodlarini joriy qilish orqali yetuk mutaxassislarni tayyorlashga zamin yaratilmoqda. Shu bilan birga, talabalar bilimi transformatsiyasida raqamli texnologiyalardan foydalanish masalasini o'rganishning ijtimoiy-pedagogik xususiyatlarini tadqiq qilishga ehtiyoj oshmoqda.



Bunda, oliy ta'lim muassasalarida raqamli texnologiyalar vositasida bo'lajak kadrlar, bugungi kun talabalari bilimini transformatsiyalash orqali ta'lim sifatini yangi pog'onaga ko'tarish, pedagogik shart-sharoitlarni takomillashtirish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 6 noyabrdagi "O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risidagi" PF-6108-son Farmoni/Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi; 06.12.2020 y., 06/20/653/1592-son
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 6 noyabrdagi "Ta'lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" PQ-4884-son qarori/ Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi; 06.12.2020 y., 06/20/653/1592-son
3. Abdullaev F.A. Elektronные образовательные программы v vuzax Uzbekistana.-Tashkent//Uzluksiz ta'lim, 2015.-21-23 s.
4. Нонака И., Х. Такеучи. Спираль знаний студентов.-М.:Радуга, 2019.-С.78.
5. Зверева Н.Н., А.А. Касьян "Методологическое знание в содержании образования". Ж.:Педагогика. - 2019. №1. –С. 9-11



STEAM TEXNOLOGIYALARI MOHIYATI VA ULARNI OLIY TA'LIMDA QO'LLASH TAMOYILLARI

L.I. SUVONOVA,

Navoiy davlat pedagogika instituti o'qituvchisi

Maqolada oliy ta'lim muassasalarida innovatsion texnologiyalarning shakllaridan biri -STEAM texnologiyalari orqali ta'lim sifatini yangi pog'onaga ko'tarish, bitiruvchilarda pedagogik texnikani rivojlantirish masalalari o'z aksini topgan.

Tayanch tushunchalar: ta'lim, STEAM texnologiyalari, bilim, o'zlashtirish, sifat ko'rsatkichi, pedagogik texnika.

В статье рассматривается одна из форм внедрения инновационных технологий в высшем образовании - технология STEAM, поднимающая качество обучения на новый уровень, развивающая педагогическую технику у выпускников вузов.

Ключевые понятия: образование, STEAM-технологии, знания, мастерство, качественные показатели, педагогические приемы.

The article addresses the issues of raising the quality of education to a new level through STEAM technologies, one of the forms of innovative technologies in higher education, the development of pedagogical techniques in graduates.

Key words: education, STEAM technologies, knowledge, mastery, quality indicators, pedagogical techniques.

Mamlakatimizda bo'lajak kadrlarni tayyorlash tizimi takomillashmoqda, zamonaviy pedagogik va raqamli texnologiyalardan foydalangan holda o'qitishning ilg'or metodlarini joriy qilish orqali mutaxassislarni tayyorlashga zamin yaratilmoqda. Ta'lim jarayonini zamonaviy texnologiyalar asosida takomillashtirilishi ushbu sohaning qonunchilik asoslarini ham mustahkamlanishiga olib keldi.

Oliy ta'lim muassasalarida innovatsion texnologiyalarning shakllaridan biri STEAM texnologiyalari orqali ta'lim sifatini yangi pog'onaga ko'tarish, bitiruvchilarda pedagogik texnikani rivojlantirishni takomillashtirish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Bugungi kunpedagogika oliy ta'lim muassasalari bitiruvchilari ertangi kun yetuk mutaxassislari bo'lib yetishishlari muqarrar. Ular mamlakatimizning umumiy o'rta ta'lim maktablari, akademik litsey va kollejarida faoliyat yuritadilar. O'qituvchi sifatida shakllanar ekan, har bir bitiruvchi zamonaviy texnologiyalardan xabardor bo'lishi talab etilmoqda.

Oliy ta'lim muassasalarida tayyorlanayotgan pedagogik kadrlar maktablarda tashkil qilinadigan va tatbiq etiladigan yangi texnologiyalarni rivojlantirish tendensiyalaridan chetlasha olmaydilar.



Bugungi kunda respublikamizning umumiy o'rta ta'lim maktablarida ham STEAM ta'limi tashkil qilinmoqda. Ayniqsa, Prezident maktablari, turli ijodiy maktablarda ushbu texnologiyadan samarali foydalanilmoqda. Ushbu texnologiyani qo'llash orqali tahsil oluvchilarda turli sohalardagi: matematika va boshqa aniq fanlar, muhandislik, dizayn, raqamli qurilmalar va texnologiyalarga oid bilimlardan foydalanishga zamin yaratiladi. Bugungi kunda ta'limni innovatsion tashkil qilishda turli pedagogik va axborot texnologiyalariga murojaat etilmoqda. Ta'lim amaliyotida bu muayyan murakkabliklarni vujudga keltiradi:

pedagoglarning metodistlar kasbiy salohiyati yoki shu yo'nalishdagi boshqa mutaxassislariga bog'liqligi;

uzluksiz ta'limning tabaqalanishi darajasining pastligi;

axborot xizmatidan barcha ta'lim jarayoni ishtirokchilarining foydalanish imkoniyatlaridagi tengsizlik (kishloq va shahar joylari bo'yicha).

STEAM dunyo ta'limidagi zamonaviy tendensiyalardan biri yoki ta'lim shakli sifatida keng tatbiq qilinarkan, uning bugungi kunda ta'lim olish ehtiyoji sifatida paydo bo'lganligini e'tirof etish kerak.

STEAM qisqartmasi (siene - fan, texnologiya - texnologiya, injiniring - muhandislik, arts and math.

- san'at va matematika) ushbu fanlarga oid bilimlarni o'zlashtirishni va ularni amalda qo'llash qobiliyatini nazarda tutadi. STeM yondashuvi tufayli tahsil oluvchilarni bir vaqtning o'zida bir nechta sohalarda rivojlanishini nazarda tutadi, ya'ni: informatika, fizika, texnika, muhandislik va matematika va b.. Masalan, LeGO Education ta'lim echimlari - dunyoga mashhur LeGO kompaniyalar guruhining bir qismi - bu aniq STeM- tadqiqot, muhandislik, matematik va dizayn kompetensiyalari va ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan.

Biz STEAM texnologiyalarini oliy ta'limda qo'llash metodikasini ishlab chiqishga qaror qildik va bu masala aksariyat mamlakatlar uchun dolzarb hisoblanishini aniqladik. Ushbu muammoda o'qituvchining kasbiy talab va ehtiyojlari bir tomondan, jamiyat rivojlanishining talablari ikkinchi tomondan qaydalanadi. Rivojlangan mamlakatlarda davlat pedagog kadrga bilimi va ko'nikmasini yangilash imkonini ta'minlaydi, bu esa o'qituvchi, talabalar, o'quv muassasasi va davlat manfaatlariga mos keladi. Mazkur mamlakatlarda kasbiy rivojlanishi uchun mas'uliyat pedagog va davlat o'rtasida taqsimlanadi.

Xorijiy mamlakatlardagi ta'lim amaliyotini tahlil qilar ekanmiz, mazkur tajribani bizning ta'lim tizimimiz uchun e'tiborga ega xususiyatlarini ajratamiz: bo'lajak



mutaxassislarning mehnat bozoriga tayyorligini oshirish, ularning qiziqishlari, kreativ qobiliyatlarini rivojlantirish va ta'lim muassasasining rivojlantirish dasturiga mos keluvchi ishlarni kuchaytirish; ta'lim berish va olish shakllarining xilma-xilligi; muqobil va istiqbolli o'qitish shakli sifatida masofaviy ta'limni uzluksiz ta'limga tatbiq etish.

Yuqoridagi kabi muammolarni hal etish imkoniyatlaridan biri masofadan axborot xizmatini tashkil qilishdir. Mamlakatimizda ham kadrlar konsaltingini rivojlantirish maqsadida so'nggi yillarda bir qator me'yoriy-huquqiy hujjatlar qabul qilindi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Oliy ta'lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining uzluksiz malakasini oshirish tizimini joriy etish to'g'risida» 2019 yil 27 avgustdagi PF-5789-son Farmoni oliy ta'lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining kasbiy bilimi, ko'nikmalari va mahoratini uzluksiz yangilab borish mexanizmlarini joriy etish, zamonaviy talablarga muvofiq oliy ta'lim sifatini ta'minlash uchun zarur darajada kasbiy tayyorgarlikni oshirish, qayta tayyorlash va malaka oshirishning bevosita hamda kasbiy faoliyatga aloqador bilvosita shakllarini variativ va bir birini to'ldirish tamoyillari asosida amaliyotga joriy etishni ta'minlash, shuningdek, masofadan malaka oshirish ham ta'lim jarayonining sifatini oshirishda axborotli xizmat tizimini tashkil qilishga qaratilganligidan dalolatdir[1].

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi «O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida»gi PF-4947-sonli Farmoni, 2019 yil 11 iyuldagi «Oliy va o'rta maxsus ta'lim tizimiga boshqaruvning yangi tamoyillarini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PF-5763-son, 2019 yil 8 oktyabrdagi «O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida»gi PF-5847-son farmonlari, 2020 yil 6 oktyabrdagi «Axborot texnologiyalari sohasida ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish va ularni IT-industriya bilan integratsiya qilish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ-4851 sonli Qarori hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda oliy ta'lim muassasalari bitiruvchilarida pedagogik texnikani STEAM texnologiyalari asosida rivojlantirish dolzarb masalalar sirasiga kirishi e'tirof etilgan[1,2,3].

So'nggi yillarda o'qituvchilar tobora ko'proq fanlararo va beshta ilmiy sohani hayotdan olingan aniq muammolarni hal qilish uchun yagona o'quv tizimiga birlashtirishga asoslangan STEAM ta'limi amaliyotiga murojaat qilishmoqda.



Bugungi kunda o'qitish amaliyotida STEAM yondashuvi ishonchli tarzda xalqaro ta'lim dasturlariga kiritildi va so'nggi yillarda u xorij ta'lim muassasalarida tobora ko'proq qo'llanilmoqda.

STEAM ta'limi-o'qitishning negizida tizim faolligi yondashuvi, talabalarning mustaqil tadqiqot ishlarini olib borish, DTSda ko'rsatilgan talabalarni bajarish bo'yicha bilim, ko'nikma, malaka va kompetensiyalarini rivojlantirishga yo'naltirilgan.

STEAM bu tahsil oluvchilarga har qanday murakkablikdagi vazifalarni uddalashga imkon beradigan universal amaliyotga yo'naltirilgan yondashuv. Shu bilan birga, tahsil oluvchilar o'zlarining bilimlarini amaliy ravishda amalga oshiradilar[].

STEAM ta'limi jarayonida qaysi tamoyillarga yondashiladi?. Bular:

Motivatsiya. Bu har qanday texnologiya prinsipiga asoslangan poydevor bo'lib hisoblanadi. STEAM texnologiyasi ishtirokchilari bir-biri bilan o'zaro aloqada bo'lishlari lozim bo'lganliklari bois, ular rag'batlantirishning eng oddiy variantlari - dalda berish, maqomga ega bo'lish kabilardan foydalanadilar.

Kashfiyot va dalda. STEAM texnologiyasi tamoyillarini amalga oshirishda talabalarning yangi, kutilmagan tarkibni yaratish istagini saqlab qolish muhimdir. Yangi darajalarni ochish orqali ishtirokchilarning faolligi oshadi. Bu ta'lim ishtirokchilarini "jonli" jamoaga aylantirish uchun kerak bo'ladi.

Nufuzni oshirish. Har bir talaba o'z qadr-qimmatiga ko'ra shaxs sifatida jamoada tan olinishini hohlaydi. "STEAM texnologiyasi buni status prinsipi orqali amalga oshirishni taklif qiladi. Ajablanarlisi shundaki, hatto sovrin ham talabalarni jamoa va pedagoglarning minnatdorчилигини olish kabi g'ayrat bilan o'quv faoliyatini davom ettirishga unday olmaydi"[7,56-b.].

Shunday qilib, talabalarga STEAM texnologiyasi yordamida - fan, texnologiya, muhandislik, san'at va matematikaga oid bilimlarni o'zlashtirishni va ularni amalda qo'llash qobiliyatini tashkil etish muammoli ma'ruza, ma'ruza-munozara, muayyan vaziyatlarni tahlil qilish, tashkiliy va aqliy o'yinlar, o'quv va kasbiy matnlarni tanqidiy tahlil qilish, loyihalar usuli, ijodkorlikni rivojlantirish bo'yicha treninglar, diagnostik o'quv seminari, rivojlanish diagnostikasi asosida amalga oshirilishi mumkin. STEAM texnologiyasi asosida yoshlarning kreativ fikrlashini rivojlantirish, ularni ijodiy fikrlashga o'rgatish va bunda ulardagi yashirin qobiliyatlarni rivojlantirish muhim bo'lib hisoblanadi.



Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi «O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi to‘g‘risida» gi PF-4947-sonli Farmoni/ O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2017 y., 24-son, 487-modda, Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 20 apreldagi “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” №PQ-2909 son qarori / O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2017 y., 24-son, 487-modda, Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi,
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 11 iyuldagi “Oliy va o‘rta maxsus ta’lim sohasida boshqaruvni isloh qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi PF-5763-son Farmoni/ Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 11.06.2019y
4. Грушевская В. Ю., Грибан О. Н. Системы управления контентом и обучением как инструменты создания информационной среды образовательного учреждения // Педагогическое образование в России. – 2012. – № 5 – С. 49–55.
5. Беспалько В.П. Слагаемые педагогической технологии-М.:Сила, 2005
6. Чернявская А.П., Байбородова Л.В., Харисова И.Г. Технологии педагогической деятельности. Часть I. Образовательные технологии: учебное пособие/ под общ. ред. А.П.Чернявской, Л.В.Байбородовой. — Ярославль;- Изд-во ЯГПУ, 2012. — 311 с.
7. Селевко Г.К. Современные образовательные технологии: Учебное пособие. – М.: Народное образование, 2018. – 256 с.



BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINING BILIM O'ZLASHTIRISHINI DIAGNOSTIKA QILISH: AMALIYOT VA MONITORING

F. YULDASHEV,

Jizzax davlat pedagogika instituti o'qituvchisi

Maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarining bilim o'zlashtirishini diagnostika qilish: amaliyot va monitoring xususidagi masalalar o'z aksini topgan.

***Tayanch tushunchalar:** boshlang'ich ta'lim, monitoring, bilim, o'zlashtirish, sifat ko'rsatkichi.*

В статье рассматриваются вопросы, связанные с диагностикой усвоения знаний учащимися младших классов: практика и мониторинг.

***Ключевые понятия:** начальное образование, мониторинг, знания, успеваемость, показатели качества.*

The article addresses issues related to the diagnosis of primary school students' knowledge acquisition: practice and monitoring.

***Key words:** primary education, monitoring, knowledge, mastery, quality indicators.*

Boshlang'ich sinflarda darslarni tashkil qilish mazmuni, mohiyati o'rganilganda o'qitishning didaktik tamoyillari muhim o'rin egallashi aniqlandi.

O'qitish sifatining namoyon bo'lishida o'qituvchilarning shaxsiy yutuqlari muhim o'rin egallaydi. Ularning shaxsiy yutuqlari quyidagilarda aks etadi: ta'lim jarayonini takomillashtirish sohasidagi yutuqlari; o'qituvchilarning metodik, ilmiy, ixtirochilik ishlari; o'qituvchilarning turli tanlovlarda ishtirok etish darajalari; shaxsiy-ta'limiy quvvatlarini oshirishga yo'naltirilgan faoliyatlari; mustaqil bilim olish va o'zlarini takomillashtirish yo'nalishidagi ishlari kabilar.

O'qitish sifatini ta'minlashda asosiy o'rin egallaydigan holatlardan yana biri o'quv rejasining bajarilishidir. O'quv rejasining bajarilganligini bir qator holatlar tasdiqlaydi: me'yorlar va ularning bajarilishi; o'quv rejasining alohida o'ziga xos yo'nalishlari ijrosi; ta'lim sohalari; sinflarni ixtisoslashtirish va maxsus yo'nalishlarni tashkil etish; o'quv rejasidagi maktab komponentiga rioya qilish; o'quvchilar bilan individual ishlash ko'lamini; o'quvchilarning tanlovlariga asoslangan holda chuqurlashtirilgan ta'lim bilan qamrab olish; o'quvchilarning o'quv yuklamalari ko'lamini kabilar.

O'qitish sifatini ta'minlashda umumiy o'rta ta'lim muassasasi faoliyatining ijtimoiy samaradorligi ham sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Bu quyidagilarda namoyon bo'ladi: o'quv jarayoni sub'ektlarida mazkur jarayondan qoniqishning hosil bo'lishi; o'quv jarayonining tashkil etilishi, borishi, natijalari va sifatining



namoyon bo'lishi; o'quv jarayoni sub'ektlarining o'zaro hamkorligi; umumiy o'rta ta'lim muassasasining mavjud mavqeyi; umumiy o'rta ta'lim muassasasida amal qiladigan strategiyalar kabilar.

O'quv jarayoni bir qator o'ziga xos ko'rsatkichlarga ega:

a) o'quv jarayonining yetakchi maqsadi – bilim, ko'nikma, malakalarning o'zlashtirilishi;

b) o'quvchilarning bilish layoqatlarini rivojlantirish, bilim, ko'nikma va malakalar vositasida ularning bilish mustaqilliklarini shakllantirish.

v) didaktik jarayonning mazmuni – barcha dasturlar uchun mazmun yagona hisoblanadi;

g) o'quv jarayoni doirasida - o'rgatish faoliyati davomida o'qituvchining yo'naltiruvchilik, rahbarlik, maslaxat beruvchilik mavqeyi namoyon bo'ladi;

ye) o'quv jarayoni doirasida pedagogik faoliyat o'quvchilarning yetakchilik mavqeyi bilan uyg'unlashadi.

O'quv jarayonida o'qitish sifatiga sezilarli ta'sir ko'rsatadigan quyidagi tarkibiy qismlar ajratiladi:

1. Moyillik hosil qiluvchi – o'quvchilarni faol o'rganish jarayoniga jalb qiluvchi va bilish faoliyatining barcha bosqichlarida faollikni saqlab qoluvchi qiziqishlari, ehtiyojlari, mayllari.

2. Yo'naltiruvchi – o'quvchilarning o'quv-biluv maqsadini amalga oshirish uchun uni rejalashtirishlari va bashorat qilishlari.

3. Mazmunli-operatsion nuqtai nazardan - axborotlarni qabul qilish, saqlash va qayta ishlash maqsadida yetakchi bilimlar va usullarni o'zlashtirish.

4. Quvvatiga ko'ra – diqqat, iroda va kechinmalar.

5. Nazariy-tahliliy jihatdan – o'quvchilarning o'z-o'zlarini mustaqil nazorat qilishlari, bajarilgan harakatlarning borishi va natijalarini mustaqil baholashlari, o'zgalarning bahosiga tayangan holda o'zlari va faoliyatlariga bergan baholari, o'rganish jarayonlarini mustaqil boshqarishlari va tuzatishlar kiritishlari, o'z-o'zlarini boshqarishlari kabilar.

Tadqiqot doirasida o'quvchilar o'quv yutuqlarini baholash uchun matematika, ona tili, o'qish predmetlari bo'yicha 2 variantdagi test topshiriqlari va ona tili va o'qish fanidan matnini tushinish darajasini aniqlash bo'yicha 3 variantdagi test topshiriqlari tayyorlandi.

Matematika fani bo'yicha tuzilgan test topshiriqlarining bir qismi xalqaro baholash TIMSSdan olindi.



O‘qish bo‘yicha esa test topshiriqlari va matnlar PIRLS xalqaro tadqiqoti materiallarining foydalanishga ruxsat berilganlaridan tanlab olindi. Testlarning shu asosda tuzilishi bir qator afzalliklarga ega. Bir tomondan bunday yondashuv, o‘zbekistonlik o‘quvchilarning o‘quv yutuqlarini xalqaro shkalada baholash imkoniyatini bersa, ikkinchi tomondan O‘zbekistonda amalda bo‘lgan umumiy o‘rta ta‘lim davlat standartlari va o‘quv dasturlarining kuchli va zaif tomonlarini aniqlashga yordam beradi.

O‘quvchilar o‘quv yutuqlarini baholash milliy tadqiqotini o‘tkazishda maktab va o‘quvchilarni tanlash quyidagi reja asosida amalga oshirildi:

Tajriba-sinov bilan qamrab olingan maktablar oddiy rondomashtirilgan tanlovdan foydalanildi. Nazorat guruhi esa ekspertlar tomonidan hududlar va maktablardan olingan ma‘lumotlar asosida belgilandi.

O‘qish bo‘yicha o‘quvchilar diqqatiga turli hayotiy vaziyatlarda uchraydigan matnlar havola etildi. Mazkur testlar o‘quvchilarda hozirgi kunda mavjud “o‘qish savodxonligi” tushunchasining shakllanganlik darajasini aniqlashga yo‘naltirilgan. Mazkur tushunchaga asosan boshlang‘ich sinf o‘quvchisi turli uslublarda yozilgan matnlarni tushinishi, ularning mazmuni bo‘yicha fikr-mulohaza yuritishi, ularning mazmuni va ahamiyatiga baho berishi va o‘qiganlari yuzasidan o‘z fikrlarini bayon eta olishi zarur.

Test topshiriqlari o‘quvchilar tomonidan o‘qigan matn mazmunini tushunishini, matndan talab qilingan ma‘lumotlarni topa bilishini, matn mazmunini chaqib uning ustki qatlamida turmagan axborotlarni topa bilishini, o‘qigan narsalarini va turli uslubdagi matnlarni qiyoslashni, ulardagi voqeya va hodisalarni umulashtirishni, o‘qigan matn mazmuni va qahramonlarni tavsiflashni, ularga baho berishni tekshirishga yo‘naltirilgan.

O‘qish fani bo‘yicha testlarni jami 1024 nafar o‘quvchi bajardi. Ulardan 1 variantini 878 (34,8%) nafar, 2 variantini 68 (33,8%) nafar, 3 variantini – 323 nafar o‘quvchi yoki 31,4% yechdi

Test natijalarini xolisona baholash va o‘quvchilar bilim va ko‘nikmalarini to‘g‘ri aniqlash maqsadida shkalaga o‘tkazishdan foydalanildi. Shkalaga o‘tkazish quyidagicha amalga oshirildi: har bir test varianti bo‘yicha o‘quvchilar natijasi chiziqli transformatsiya orqali standartlashtirildi va klassik z-shkalisiga (z-scale) quyidagi formula asosida o‘tkazildi. Bunda z – ochkolar, x – test ochkolari, SD – ochkolarning standart deviatstiyasi



$$z = \frac{\sum x - x \text{ o'rtacha}}{SD}$$

Milliy tadqiqotda o'rtacha bali 500 va kvadrat uzoqlashishi 100 bo'lgan shkala tanlandi (yuqorida qayd etilgan xalqaro tadqiqotlardagi kabi). Shunday qilib, o'quvchining bali $500+100 \times z$ -ochkolar

$$T_{\text{o'quvchining}} = 500 + 100 \times z \text{ ochkolar}$$

Milliy tadqiqotni o'tkazish jarayonida o'quvchilar bilimiga ta'sir etuvchi bir qator omillar ham o'rganildi. O'quvchilarning qaysi hududda yashashi bo'yicha tahlillar quyidagilarni ko'rsatdi: o'rganilgan hududlar orasida bir qator viloyatlarda o'qish fani bo'yicha o'quvchilar bilimi va ko'nikmasi o'rtacha respublika ko'rsatkichidan yuqori ekanligi aniqlandi. Jumladan, eng yuqori ko'rsatkich Buxoro viloyati o'quvchilari bilimida 556,5 ball sifatida kuzatilgan bo'lsa, mazkur ko'rsatkich Xorazm viloyatida 523,5 ball, Toshkent shahrida 519,5 ball va Samarqand viloyatida 515,2 ball darajasida qayd etildi.

Monitoring jarayonida o'quvchilar bilimiga ularning uyida yaratilgan ijtimoiy-ta'limiy sharoit ta'siri ham o'rganildi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi «O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida» gi PF-4947-sonli Farmoni/ O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017 y., 24-son, 487-modda, Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 20 apreldagi «Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida» №PQ-2909 son qarori / O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017 y., 24-son, 487-modda, Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi.

3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 11 iyuldagi «Oliy va o'rta maxsus ta'lim sohasida boshqaruvni isloh qilish chora-tadbirlari to'g'risida» gi PF-5763-son Farmoni/ Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 11.06.2019 y.



OLIJ TA'LIM MUASSASALARIDA VEBINARLARNI TASHKIL ETISHNING SAMARALI KO'RSATKICHLARI

G.ABILOVA,

Navoiy davlat pedagogika instituti katta o'qituvchisi

Maqola oliy ta'limda vebinarlarni tashkil etish masalalariga bag'ishlangan bo'lib, unda bu jarayonda ko'p foydalaniladigan metodik usullar, vaziyatli muammolarni quyishda o'qituvchi va talaba faoliyati haqida fikr yuritilgan.

Tayanch tushunchalar: oliy ta'lim, vebinar, on-layn, masofaviy ta'lim, talaba shaxsi, bilim o'zlashtirish, faoliyat.

Статья посвящена организации вебинаров в высшей школе, где рассматриваются наиболее часто используемые методические приемы в этом процессе, роль преподавателей и студентов в решении ситуационных задач.

Ключевые понятия: высшее образование, вебинар, онлайн, дистанционное обучение, личность студента, обучение, деятельность.

The article deals with the organization of webinars in higher education, which discusses the most commonly used methodological methods in this process, the role of teachers and students in solving situational problems.

Key words: higher education, webinar, online, distance learning, student personality, learning, activity.

Oliy ta'lim muassasalarida vebinarlarni tashkil etish o'ziga xos xususiyatlarga ega. Vebinar- onlayn seminar (ingliz tilidan onlayn – “chiziqda”, “aloqada”) yoki veb -konferentsiya, veb -seminar - bu Internet orqali onlayn uchrashuvlar yoki taqdimotlar o'tkazadigan veb -konferentsiya turi. ... Hozirgi kunda veb -seminar masofadan o'qitish tizimining bir qismi sifatida ishlatilmoqda.

Veb -seminarni turli yo'llar bilan boshlash mumkin. Buning uchun Zoom veb -portaliga kirib va «Veb seminarlar» ni bosgandan so'ng, xohlagan veb -seminarni topish va «Ishga tushirish» tugmasini bosish orqali uni tashkil etish mumkin.

Agar Zoom mijozidan foydalanilayotganda «Konferentsiyalar» yorlig'i bosiladi. ...

Oliy ta'limda vebinarlarni tashkil etishda ko'p foydalaniladigan metodik usullardan:

a) vaziyatli muammolarni quyishda o'qituvchi noto'liq javoblarni to'ldirish, vaqtni tejash kabi komponentlarga e'tibor qaratiladi

b) nazariy va amaliy masalalar yechimini topishga qaratilgan ijodiy topshiriqlar didaktik tamoyillar asosida ishlab chiqiladi:

v) turli g'oyalar to'qnashuvi asosida boshqaruv xususiyatlaridan kelib chiqib tashkil etiladi (ekologik, iqtisodiy mazmundagi masalalarni loyihalash kabilar);



g) talabalarni ziddiyatli muammolar yechimini topishga undab, mustaqil qaror chiqarish malakalarini oshirishga mo'ljallandi. Bunda turli faktlar taqqoslanadi, qiyosiy tahlildan so'ng mantiqiy izchillikdagi qisqa rezyumelar qabul qilinadi.

1-Blok. «Dasturiy ta'minotlarni tayyorlashning shart-sharoitlari». Oliy ta'limda vebinarlarni tashkil etishda pedagogik, psixologik, ijtimoiy omillarning ta'lim olish motivatsiyasiga bo'lgan ta'siri haqida ma'lumot to'plash. Ta'lim sifati modelini rivojlantirishda dasturiy ta'minot uchun zarur bo'ladigan dasturlar, axborot-kommunikatsion ustqurmalar, vositalarni tayyorlash, shart-sharoitlarni o'rganish.

2-Blok. «Axborotli ta'lim muhitida o'qitish sifatini oshirishga mo'ljallangan komponentlar». Oliy ta'limda vebinarlarni tashkil etishda sifatli ta'lim xizmatlari imkoniyatlarini oshirish, mehnat bozorining zamonaviy ehtiyojlariga muvofiq o'qitish va ta'lim olishning zamonaviy usullarini tadbiiq etgan holda yuqori malakali kadrlar tayyorlash masalalariga o'rin ajratiladi.

3-Blok. «Axborot xizmatida mutaxassis faoliyatini tashkil qilish va boshqarish». Oliy ta'limda vebinarlarni tashkil etishda zamonaviy pedagogik nazariyalar, ilg'or tajribalar, axborot-kommunikatsion vositalar asosida o'z faoliyatini tashkil qila oladigan, yangi dunyoqarashdagi shaxsni shakllantirish, ta'lim jarayonini optimal boshqarish bo'yicha vazifalarni belgilash. Ushbu blokda o'quv-tarbiya jarayoniga ta'lim sifati ko'rsatkichlari talablar asosida kiritilgan yangiliklar hamda maxsus videometodik xizmat o'quvlari, videoseminarlar, konferensiyalarda ma'ruzalar, ommaviy axborot vositalarida chiqishlar qilish, ilmiy-metodik jurnal, to'plamlarda maqolalar nashr etish orqali ta'lim-tarbiya amaliyotiga tatbiiq etiladi.

Pedagogika oliy ta'lim muassasalarida vebinarlarni tashkil etishda o'quv dasturlari, darsliklar va mamlakatimiz ta'lim muassasalari ta'limida axborot xizmati tizimini takomillashtirishga qo'yilayotgan talablar doirasidagi tahliliy materiallar tegishli mutaxassislarga ta'lim sifatini isloh qilish va ta'lim standartlarini takomillashtirish uchun asoslangan qarorlar qabul qilishga xizmat qiladi.

Oliy ta'limda vebinarlarni tashkil etish kontekstida pedagogika oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish Moodle, Wordpress, PHP, Turbo Site, Bandicam, Audisity, Movavi Video, Editor Plusdan foydalanish orqali amalga oshiriladi.

Oliy ta'limda vebinarlarni tashkil etishda ta'lim sub'ektining muayyan maqsadlarga erishish uchun boshqarilayotgan ob'ektga ta'sir ko'rsatish metodlari o'rganilishi maqsadga muvofiq.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, o'z tadqiqotlarimizda oliy ta'limda vebinarlarni tashkil etish uzluksiz, izchil faoliyat sifatida qarldi, ochiq va yopiq shakllardagi nazorat materiallari, test topshiriqlari amaliyotga keng joriy etilib, talabalarning bilim darajasini aniqroq va mukammalroq baholash tomoniga o'sish imkoniyatini



yaratdi. Axborotlashgan nazorat materiallari faqat talabalarning bilim darajasinigina emas, balki bilimlarni tushunish, ularni qo'llashga yo'naltirilgan test topshiriqlaridan kengroq foydalanish ishlarini tashkil etdi. Undan tashqari ijodiy, mantiqiy, muammoli topshiriqlar orqali ularning bilim, ko'nikma, malaka egallash jarayonlarini tashxislashga zamin yaratildi.

Tajriba - tadqiqot natijasida pedagogika oliy ta'lim muassasalarida vebinarlarni tashkil etish tizimi boshqaruv funksiyalariga tayangan holda amalga oshirildi. "Pedagogika va psixologiya" ta'lim yo'nalishi respondent talabarlari, 5A110901-magistratura mutaxassisligi ta'lim yo'nalishlarida "Ta'lim menejmenti" o'quv fanidan magistrantlarning va o'qituvchilarning matematik modellar bilan birga matn, tablitsa, rasm, algoritm, dasturlarni yaratishni o'z ichiga qamrab olgan axborotli modellarni yaratish va ular asosida turli modellar integratsiyasini yuzaga keltirish malakalari rivojlantirildi. Respondentlar o'quv kursida yangi assotsiativ bilimlarni integratsiyali tizimlashgan holatda qabul qilishdilar.

Masalan, birgina "Informatika" mashg'ulotlarida 1-bosqich talabarlari "Matematik modellar. Modellashtirish" mavzusidagi auditoriyadan tashqari mashg'ulotda matematik modelning texnik annotatsiyasi, ko'rinishini animatsion vositalar asosida loyihalashga o'rgandilar. Bunda talabalar «Ta'lim jarayonining sifatini oshirishda vebinarlarni modellashtirish» nomli mualliflik texnologiyasi asosida modellashtirishni quyidagi tarkibda amalga oshirishdi: *geometrik modellashtirish; biologik modellashtirish; matematik modellashtirish*. Ayniqsa, ular PHP, Turbo Site, Bandicam, Audisity, Movavi Video kabi dasturlardan foydalangan holda samarali natijalarga erishdilar.

Yoki, 5A110901-magistratura mutaxassisligi ta'lim yo'nalishida "Ta'lim menejmenti" o'quv fanidan magistrantlar "Ta'lim muassasasi pedagogik tizim va ilmiy boshqaruv ob'ekti sifatida" mavzusini o'rganish jarayonida ta'lim muassasasi pedagogik tizimini, pedagogik tizimning harakatlantiruvchi omillari, pedagogik tizim tuzilishining tarkibiy qismlarini modellashtirishga o'rgandilar. Bunda ular: *lingvistik modellashtirish; iqtisodiy modellashtirish; ekologik modellashtirish* ko'rinishlari bilan tanishdilar va o'zlari ham turli modellarni loyihalashga o'rgandilar.

Tajriba-sinovda qatnashgan tajriba guruhining 56 nafar respondentlari modellashtirish asosida quyidagi natijalarni qo'lga kiritishdi:

1. Tadqiqotni o'tkazish jarayonida testlarga 14 ta topshiriq (har bir variantda 7 tadan savol) TIMSS-2010 xalqaro tadqiqotining ochiq blokidagi materiallardan kiritildi.



2. Test natijalari tahlillari talabalarning 12 ta topshiriqni muvaffaqiyatli bajarganligini ko'rsatdi. Ularning o'rtacha bali TIMSS ning o'rtacha balidan yuqoriroq ekanligi aniqlandi.

Masalan, 1-variantning 14-savoli bo'yicha talabalar o'rtacha ko'rsatkichi TIMSS ning o'rtacha ko'rsatkichidan 12,7% ga yuqoriroq bo'lsa, 15-savol bo'yicha 18,5% ga, 2-variantning 4-savoli bo'yicha 20,8% ga, 11-savoli bo'yicha 22,4% ga, 16-savoli bo'yicha 16,6% ga yuqoriroqdir. Barcha 16 ta savol natijalari bo'yicha ham bu ko'rsatkich yuqori (0,7%).

Respondentlarning kasbiy va o'quv-biluv faoliyatidagi yutuqlari pedagogik diagnostika metodlaridan foydalanilgan xolda tahlil qilindi. Bunda talabalarning kelgusi faoliyatlarida qo'llaniladigan bilim va malakalari darajasi aniqlanib qolmasdan, balki natijalarning aniq sabablari ham ko'rsatildi. Professor-o'qituvchilar, rahbar va xodimlarning axborot-kommunikatsiya vositalari asosida ta'lim menejmentida axborot xizmati, raqamli elektron dasturiy ta'minotdan foydalanish bilan bog'liq bir qator omillar ham o'rganilib, ularning o'zaro ta'sir etish darajasi tahlil qilindi.

O'tkazilgan tajriba-sinov natijalari OTMlarda joriy etilgan metodikalarning ijobiy dinamikasi ta'minlaganligini ko'rsatadi. Tavsiya etilgan mezonlar asosida tajriba yakunida rahbar xodimlarda-boshqaruv kompetentligi, qaror qabul qilish, o'z faoliyatini baholash malakalari rivojlanib, 7% ga, professor-o'qituvchilarda o'z faoliyatini optimal tashkil etish, boshqarish - 9% ga, talabalarda esa o'z faoliyatlarini rejalashtirish, tashkil qilish ko'nikmalari -10 foizga oshganligini ko'rsatdi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 11 iyuldagi "Oliy va o'rta maxsus ta'lim tizimiga boshqaruvning yangi tamoyillarini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-4391-son qarori.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 6 noyabrdagi "O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohasini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risidagi" PF-6108-son Farmoni/ Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi; 06.12.2020 y., 06/20/653/1592-son.

3. Birlashgan Millatlar Tashkilotining "XXI asrning Oliy ta'limi" Butunjahon deklaratsiyasi <http://docs/cntd/ru/document/901839539>.



PEDAGOGIK JAMOADA IXTILOF VA NIZOLARNING PAYDO BO'LISH SABABLARINI ANIQLASH

SH.A. TADJIBAYEVA,

Toshkent viloyati Xalq ta'limi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish hududiy markazi katta o'qituvchisi

Maqolada pedagogik jarayonda nizolarning paydo bo'lish sabablari va ularning profilaktikasi haqida fikr bayon etilgan. Muallif nizolarning oldini olishda tarbiyaviy ishlarning ahamiyati kabi masalalar ustida batafsil to'xtalib o'tgan.

Tayanch tushunchalar: pedagogik nizo, shaxs, taqlid, uqtirish, ishontirish, irodaviy hislatlar, to'g'ri xulq me'yorlari, o'qituvchi nutqi.

В статье рассматриваются причины конфликтов в педагогическом процессе и их предупреждение. Автор подробно рассматривает важность воспитательной работы в предотвращении конфликтов.

Ключевые понятия: педагогический конфликт, личность, имитация, убеждение, убеждение, сила воли, нормы хорошего поведения, педагогическая речь.

The article discusses the causes of conflicts in the pedagogical process and their prevention. The author discusses in detail the importance of educational work in conflict prevention.

Key words: pedagogical conflict, personality, imitation, persuasion, persuasion, willpower, norms of good behavior, teacher speech.

Pedagogik jarayonda sodir bo'layotgan qarama - qarshiliklar, nizolarning sabablari xilma - xil bo'ladi. Bulardan biri, maktab ma'muriyati o'qituvchilarning fikri, tanqidiy mulohazalariga e'tibor bermasligi, noto'g'ri muomala qilishi natijasida yuz beradi. Bu ko'pincha, maktab rahbarlarining ish uslubiga bog'liq. Maktab rahbari o'z sha'niga aytilgan tanqidiy fikrlarni to'g'ri tushunib, qabul qilsa, o'z kamchiliklarini bartaraf etishga intilsa o'qituvchilarning kamchiliklarini ko'rsatish va tuzatishni talab qilish borasida ahloqiy huquqqa ega bo'ladi.

Pedagogik odob nuqtai nazaridan tanqid shu kamchilikni sodir etgan kishining shaxsiga emas, balki kamchilikni bartaraf etishga, ta'lim - tarbiya ishini, pedagoglarning o'zaro muomalasini yaxshilashga yo'naltirilgandagina to'g'ri hisoblanadi. Muomala odobini shakllantirishda tanqid va o'z - o'zini tanqidning roli kattadir. O'ziga, o'z faoliyatiga tanqidiy yondoshmaydigan rahbar oqibatda mag'rurlikka, o'zboshimchalikka muhtalo bo'ladi. Mas'uliyat xissi pasayib ketadi. Odatda, bunday maktab rahbarlari o'z martabasi, shuhrati va mansabini saqlab qolish uchun ko'zbo'yamachilikka yo'l qo'yadi. Afsuski, o'qituvchilar va maktab rahbarlari orasida o'z faoliyatiga tanqidiy qaray olmaydiganlar, ko'zbo'yamachilikka yo'l qo'yayotganlar anchagina uchraydi, o'z - o'zini tanqid esa yo'q darajada, ayrim o'qituvchilar tanqidga noto'g'ri munosabatda bo'ladilar.



Pedagogik jamoada xushmuomalalik, o'zaro do'stlik va hamkorlik pedagogik mahoratni oshirishga, ta'lim - tarbiya yo'llarini yaxshilashga xizmat qiladi.

Bunday muxit ishni yaxshilashga qaratilgan prinsiplar tanqid va o'z - o'zini tanqidni rad etmaydi. O'qituvchining xato kamchiliklarini to'g'ri ko'rsata bilish, kasbdoshining mulohazalarini hamdardlik sifatida qabul qilish lozim. Kishi o'z sha'niga aytilgan tanqidni to'g'ri tushinishi — o'qituvchining ahloqiy madaniyatidan, pedagoglik burchini yuksak darajada anglashidai dalolat beradi.

O'zbek psixolog olimi G'.Shoumarov ta'kidlashicha, "nizo-bu rahbar, ishchi va boshqa xodimlar orasida muayyan masalalarni hal qilishda tomonlarning bir-biri bilan bir yechimga kela olmaganligini bildiradi.

Jamoa a'zolari orasidagi nizolarning ko'pchiligi ishlab chiqarishning qoniqsiz tashkil qilinganligi, rahbarlarning ish jarayonida o'ziga buysunuvchi jamoa a'zolarining ruhiy holatlarini hisobga olmaganligi, zarur ish sharoitining yaratilmaganligi va boshqa sabablar natijasida vujudga keladi" [4,61-b.]. Demak, nizolar qanchalik ko'p bo'lsa, mehnat jamoalarida ijtimoiy-ruhiy iqlim shunchalik yomonlashadi. Pedagogik jamoalarida ayrim nizo chiqarishga moyil shaxslar bo'lishi tabiiy. "Bunday shaxslar ish paytida foydali mehnat bilan shug'ullanish o'rniga o'zlarining nizolarida ko'rsatilgan masalalar rahbar xodimlar tomonidan qanday qabul qilinayotgani to'g'risida fikr yuritib, o'zlari va boshqalarni ishdan chalg'itib, ishga halaqit beradilar. Bunday nosog'lom vaziyat jamoat a'zolari asabiga tegadi, ayrim ishchi xodimlar bundan vaqtincha manfaatdor bo'lib, ular g'iybatlar uyushtirib, vaziyatni keskinlashtirishga harakat qiladilar. Jamoadagi ijtimoiy-ruhiy holat yomonlashadi, bu esa o'z-o'zidan ishga salbiy ta'sir ko'rsatadi"[].

G'.Shoumarov, E.G'oziev, N.Safaev, Sh.Barotov, A.Jabborov, B.Umarov, Z.Nishonova, M.Bekmurodov, V.Karimova, Q.Nazarov, D.Muhamedova, Z.Kamaletdinova, N.Sog'inov, G.To'laganova, M.Otajonov, E.Quljonov, N.Komilova singari O'zbekiston olimlarining fikriga ko'ra, kishi ongi, xulqi, xarakteri mikro va makro muhitdagi faoliyat orqali boshqariladi. Ijtimoiy muhitdagi nizolar va ixtiloflar kishi ongi va xulqida turli og'ishlarni keltirib chiqaradi.

"Yoshlar submadaniyati – bu, yigit va qizlarning o'z imkoniyatlarini namoyon qilish, ro'yobga chiqarishga bo'lgan kuchli xohishlari ifodasi bo'lsa, ikkinchidan, jamiyatdagi hayot tarzi, qabul qilingan xulq-atvor me'yorlari va qadriyatlariga nisbatan o'ziga xos ko'rinishdagi stixiyali qarshiligidir. Uchinchidan, submadaniyat ko'rinishlari yoshlar uchun ularning o'zi ko'pam tushunavermaydigan turli muammolardan himoya vositasi sifatida maydonga chiqadi. Umuman olganda, yoshlar submadaniyati – ezoterik, eskapik, urbanistik madaniyat bo'lib, yoshlar tomonidan ularning o'zlari uchun yaratiladi. Uni rasmiy, umumqabul qilingan jamiyat madaniy hayoti tizimi tarkibidagi o'ziga xos madaniy tizim deyish mumkin. Ushbu tizim esa uning egalari hayot tarzi, qadriyatlar ierarxiyasi, dunyoqarashi va yo'nalganligini bildiradi"-deb yozadi[]. Muallif fikrini davom ettirib, "hozirgi davrda



zamona yoshlarini tashvishlantirayotgan bir qancha ijtimoiy muammolardan boxabar bo'lish ularning hayotiy qadriyatları yo'nalishini aniqlashda va shunga mos holda ta'lim-tarbiya ishlarini rejalashtirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Yoshlarni o'ylantiradigan muammolar sirasiga bandlik, ularning moliyaviy-iqtisodiy holati masalalarini, kelajak, istiqbol bilan bog'liq rejalarini kiritish mumkin". Haqiqatdan ham, nizo va ixtiloflarning oldini olishda yoshlarning destruktiv g'oyalar, guruhlar ta'siriga tushib qolishining sabab va motivlarini aniqlash hamda mazkur holatning oldini olishga qaratilgan profilaktik chora-tadbirlar tizimini yaratish, taklif va tavsiyalar ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqotlar natijalaridan ma'lum bo'lishicha, o'quvchilar o'rtasida nizo va ixtiloflarning paydo bo'lishi ijtimoiy-pedagogik, ijtimoiy-psixologik va iqtisodiy muammolarga borib taqaladi. Turli yoshlar submadaniyatlarining a'zolari va ularga mansub bo'lmaganlar ham umumiy qadriyatlarga ega bo'lish ehtimoli mavjuddir. Bunday qadriyatlarga erkinlikka intilish, katta avloddan mustaqil tarzda xatti-harakatlarini amalga oshirish istagini kiritish mumkin. Yoshlarning o'zlarining fikricha, bunday mustaqillik nafaqat iqtisodiy, balki dunyoqarash jihatidan, hayotiy pozitsiyalarni va axloqiy tamoyillarni tanlash nuqtai nazaridan ham bo'lishi zarur.

Ilmiy manbalarni o'rganish, tahlil qilish natijasida, nizolar va ziddiyatlarni boshqarish uchun ularni yuzaga kelish sabablarini bilish zarurligi anglanadi.

Fikrimizcha, nizolarning kelib chiqish sabablari bir necha guruhlarga bo'linadi (1-jadval)

Nizolarning kelib chiqish sabablari

1- jadval.

№	Nizolarning kelib chiqish sabablari	Mohiyati
11	Ta'sirlarga qarshilik qilish kontrargumentlash	Shaxs tomonidan bildirilayotgan fikrlar yoki g'oyalarga qarshi fikr bildirish
22	Konstruktiv tanqid	Qarama-qarshi fikr bildiruvchiga nisbatan axloq doirasida javob bera olish
33	Energetik mobillik	Quvvai hofizani asrash
44	Ijod	Nizo asosida yangi g'oyalarni kashf etishga kirishish
55	Mas'uliyatdan qochish hissi	Aybni boshqalarga to'nkash maqsadida, o'zini chekkaga olish
66	Ruhiy o'z-o'zini himoya qilish	Ichki nizolar mavjudligi tufayli tashqi vaziyatlarga qarshilik qilish
7	Mensimaslik; Konfrontatsiya	Suhbatdoshining fikrlarini ichki qarshilik ko'rsatish



Jadvaldan ko‘rib turganimizdek, konstruktiv nizolar uch omilga bo‘yinishi seziladi: 1) muloqotda qatnashayotgan shaxs ruhiyatini deformatsiyalamasligi; unga salbiy ta‘sir ko‘rsatmasligi; 2) psixologik jihatdan etika normalariga mos bo‘lishi (hamsuhbatining ruhiy holatini inobatga olishi); 3) ikkala tomon manfaatlariga javob berishi.

Pedagogik jamoada ixtilof va nizolarning pedagogik-psixologik xususiyatlari turli-tumandir. Pedagogik jamoalarida ijtimoiy-ruhiy iqlimning holati nizolar soni bilan belgilanadi.

Nizo(konflikt)larni to‘rtta asosiy turi mavjud, bular: shaxsning o‘ziga xos ichki nizolar; inson shaxsiyati va guruh orasidagi nizolar; insonlar orasidagi nizolar; guruhlar orasidagi nizolardir.

Shunday qilib, pedagogik jamoalarda sog‘lom ruhiy iqlimni yaratish uchun rahbariyat, o‘qituvchi, psixologlar har bir o‘quvchining shaxsiy fazilatlarini, yoshi va qobiliyatlarini inobatga olishi zarur. Shuningdek, o‘quvchilar o‘rtasidagi hamkorlik va o‘zaro yordamni, bir-biri bilan chambarchas bog‘laydigan ijtimoiy aloqa maromini, sog‘lom turmush tarzini va o‘qishdagi sog‘lom raqobatni tashkil etishga, faoliyati natijalarini ruyobga chiqarishda ma‘suliyat sezish tuyg‘usini mustahkamlashga, ijodiy g‘ayrat va ko‘tarinkilik ruhida o‘qishga sharoit yaratishga e‘tibor berish zarur.

Shunday qilib, nizolar nafaqat pedagogik jamoaning manfaatlari va ehtiyojlarini qondirilishiga to‘sqinlik qilishi, balki, ayrim hollarda nizolar turli nuqtai nazarlarni yuzaga chiqarish, qo‘shimcha ma‘lumot olish, turli alternativ variantlarni ishlab chiqish, va demak, to‘g‘ri qarorlar qabul qilishga xizmat qiladi. Alohida o‘quvchilar orasida ro‘y beradigan nizolar eng keng tarqalgan nizolar turi hisoblanadi. Ko‘pincha u raqobatli tengdoshlar, yoki turli qarama-qarshi xarakterli, fikrlash doirasi va qadriyatlari tizimiga ega o‘smirlar orasida ro‘y beradi. Bu nizolar turini muvofiqlashtirish - eng murakkab ishlardan sanaladi. Keyingi guruh nizolari alohida shaxslar va guruh orasida yuz beradigan nizolardir. Albatta bu hol ko‘pincha biror kishi butun guruhga qarama-qarshi, zid pozitsiyani egallashi hollarida ro‘y beradi. Va nihoyat, guruhlar orasidagi nizolar turli guruhlar orasidagi qarama-qarshi fikrlar to‘qnashuvidan kelib chiqib, disfunktsional vazifani bajaradi.

Nizo va ixtiloflarning kelib chiqishiga ayrim ruhiy holatlar ham sabab bo‘ladi. Pedagogik jamoaning a‘zolari mayda - mayda to‘dalarga bo‘linib, guruxbozlik yo‘liga kirib ketsa, jamoada muomala odobi qoidalari, ma‘naviy - ahloqiy vaziyat buziladi, bular bo‘lmasga o‘qituvchilar orasida nizolar chiqaveradi. Pedagoglar jamoasining pedagogga qo‘yayotgan talablari, muomalasi adolatli bo‘lmog‘i kerak.

Sog‘lom va ahil pedagoglar jamoasi yosh o‘qituvchilarni ahloqiy tarbiyalash, ularning pedagogik mahoratini oshirish maskanidir. Maktabda ahil pedagogik jamoa bo‘lsa, ayrim o‘qituvchilarning xudbinligiga barham beriladi. Pedagoglar jamoasi o‘zining har bir a‘zosiga hurmat bilan qarashi, uning yutuqlari va



kamchiliklaridan ogoh bo'lishi, ularni tuzatishga ko'maklashishi zarur. O'quv yurtlarini bitirib, maktabga endigina kelgan yosh o'qituvchi haqida alohida g'amho'rlik ko'rsatishi zarur. Va o'z o'rnida ishga yangi kelgan yosh o'qituvchining pedagoglar jamoasi bilan muomalasi, o'zini tuta bilishi ham ahloqiy munosabatlar shakllanishida muximdir.

Ma'lumki, tarbiyaviy jarayon konfliktlarsiz sodir bo'lmaydi. Demak, pedagoglar jamoasining ijodiy faoliyatida fikrlar to'qnashuvi bo'lishi ham mumkin. Ijodiy munozaralarda, pedagogik jarayonda vujudga keladigan tortishuvlarning ba'zilar o'qituvchilar o'rtasidagi yaxshi muomala munosabatlarni buzmasdan turib hal etiladi. Bunday holda jamoatchilikning fikri odob normalariga binoan umumiy manfaatni himoya qilayotgan, jamoaning ishiga ijodiy ruh, yangilik kiritayotgan o'qituvchi tomonida bo'ladi.

Ayrim hollarda esa bunday konfliktlar ijobiy hal etilsa ham og'ir asoratlarni qoldiradi. Shunday nizolar ham bo'ladiki, pedagoglar jamoasi sha'niga dog' tushiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 16 yanvardagi "Ta'lim sifatini nazorat qilish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risidagi" PQ-4119-son qarori/ O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2019 y., 36-son, 488-modda;

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 11 iyuldagi "Oliy va o'rta maxsus ta'lim tizimiga boshqaruvning yangi tamoyillarini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-4391-son qarori

3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 6 noyabrdagi "O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risidagi" PF-6108-son Farmoni/ Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi; 06.12.2020 y., 06/20/653/1592-son

4. Shoumarov G. B. Ijtimoiy psixologiya. -T.: Universitet, 2021. -342b.

5. Qodirov Umarali Do'stqobilovich "Yoshlarni destruktiv g'oyalar ta'siridan himoyalashning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari" mavzusidagi 19.00.05 – Ijtimoiy psixologiya. Etnopsixologiya ixtisosligi bo'yicha psixologiya fanlari doktori (DSc) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati. -T.;2020.-B.11.



TEXNIKA OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA TALABALARNING JISMONIY SIFATLARINI DIFFERENSIAL METODIKALAR ASOSIDA RIVOJLANTIRISH

O. Q. DAVULOV,

*Navoiy davlat konchilik institutining
"Ijtimoiy fanlar" kafedrasida o'qituvchisi*

Muallif tomonidan maqolada jismoniy jihatdan turlicha rivojlangan talabalarning jismoniy sifatlarini o'zlashtirish, yetuk kasbiy salohiyatga ega bo'lgan mutaxassislarda sog'lom tafakkur va yuksak ma'naviy sifatlarini rivojlantirishga mo'ljallangan differensial metodikalar xususida fikr bayon etilgan.

Tayanch tushunchalar: differensial metodikalar, jismoniy madaniyat, kuch, ephchillik, chaqqonlik, egiluvchanlik, yuksak ma'naviyat, rivojlanish, yetuk mutaxassis.

Автор рассматривает дифференциальные методы развития физических качеств студентов с разным физическим развитием, развития здорового мышления и высоких духовных качеств у профессионалов с высоким профессиональным потенциалом.

Ключевые понятия: дифференциальные методы, физическая культура, сила, ловкость, гибкость, высокая духовность, развитие, зрелый специалист.

The author discusses differential methods for developing the physical qualities of students with different physical development, healthy thinking and high spiritual qualities in professionals with advanced professional potential.

Key words: differential methods, physical culture, strength, agility, flexibility, high spirituality, development, mature specialist

Mamlakatimizda fan va texnologiyalar taraqqiyotining ustuvor yo'nalishlari bilan integratsiyalashuvini ta'minlash jarayonlarida texnika oliy ta'lim muassasalari bo'lajak mutaxassislarida sog'lom turmush tarziga amal qilishlari, jismoniy chiniqishlari uchun, ta'lim orqali yoshlarda valeologik ko'nikmalarni tarkib toptirishga keng imkoniyat yaratilmoqda. Ta'lim oluvchilarning kelgusi kasbiy layoqatini oshirishga erishish, sog'lom tafakkur va e'tiqod uyg'unligi asosida ijtimoiy hayotga moslashtirish masalalari yetakchilik qilmoqda. Shuningdek, jismoniy jihatdan turlicha rivojlangan talabalarning jismoniy sifatlarini o'zlashtirish, yetuk kasbiy salohiyatga ega bo'lgan mutaxassislarda sog'lom tafakkur va yuksak ma'naviy sifatlarini rivojlantirish masalalari alohida dolzarflik kasb etmoqda. Texnika oliy ta'lim muassasalarida talabalarning jismoniy sifatlarini rivojlantirish ularning kelgusidagi faoliyatlarida zarur bo'ladigan mustahkam iroda, sog'lom aql, sanogen tafakkur va insoniylik fazilatlarini tarkib toptirishga zamin yaratadi. O'zbekiston



Respublikasi Prezidentining 2020 yilning 24 yanvaridagi “O‘zbekiston Respublikasida jismoniy tarbiya va sportni yanada takomillashtirish va ommalashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5924-son, 2020 yilning 30 oktyabrdagi “Sog‘lom turmush tarzini keng tatbiq etish va ommaviy sportni rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6099-son farmonlari, 2020 yilning 03 noyabridagi “Jismoniy tarbiya va sport sohasida kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish va ilmiy salohiyatni oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4877-son qarori hamda O‘zbekiston Respublikasining 2015 yil 04 sentyabrdagi “Jismoniy tarbiya va sport to‘g‘risida»gi O‘zbekiston respublikasi qonuniga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish haqida “O‘RQ-394-son qarorlari hamda sohaga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda¹ belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

jismoniy mashq va topshiriqlarning shakliga ko‘ra turlari talabalarning epchillik, egiluvchanlik, chaqqonlik kabi malakalarini rivojlantirish bilan birga, ularda kelgusi kasbiy faoliyatda turli vaziyatlarda o‘zini qo‘lga olish, vazmin, bosiq bo‘lish; mas‘uliyat hissini rivojlantirishga mo‘ljallanganligini ko‘rsatadigan algoritmik tizimni tashkil etish maqsadga muvofiq.

Oliy ta‘lim muassasalarida talabalarga taqdim qilinayotgan jismoniy mashqlar ko‘p hollarda ularning chidamliligini oshirishga mo‘ljallangan. Chidamlilik mashqlari turlarini quyidagicha turkumlash mumkin: **umumiy** (yurak-qon tomir) va **kuch** (mushak)larni rivojlantirishga yo‘naltirilgan mashqlar. Ikkala holatda ham davomiylik va mo‘tadil intensivlik nazarda tutiladi. Bu mashqlar mashg‘ulotlar mobaynida muntazam va davriy holatda o‘tkaziladi. Biroq, differensial ta‘limda talaba mushaklaridagi chidamlilik (bu mushaklarning ma‘lum bir vaqt oralig‘ida doimiy va takroriy ravishda kuch ishlatishi) e‘tiborga olinishi lozimligini inobatga olsak, u deyarli barcha faoliyat turlarida muhim ahamiyat kasb etishini va shaxsning kelgusidagi umumiy salomatligiga ta‘sir qilishini ta‘kidlash mumkin. Chidamlilik nafaqat kuchga, balki o‘pkaning hajmi va qon aylanish tizimining sog‘likka ta‘sir qiladigan organizmning gaz almashinish qobiliyatiga ham bog‘liq. Agar talaba muntazam jismoniy mashqlarni bajarar ekan, uning organizmi va tanasi stress vaziyatlariga moslashuvchan bo‘ladi. Differensial metodikalarda avvaliga qiyin bo‘lgan mashqlar va komplekslarni bir muncha vaqt o‘tgach bajarish inobatga olinadi. Shuningdek, talaba shaxsining chidamliligini oshirish uchun ularga har xil turdagi jismoniy yuklamalardan foydalanish tavsiya etiladi.

Tadqiqot uchun tanlab olingan OTMlarda jismoniy sifatlarni rivojlantiruvchi topshiriqlar differensial metodikalarni o‘tkazish shakliga ko‘ra tavsiya qilindi.



Masalan, 2020-2021 o‘quv yilida Toshkent davlat texnika universiteti, Navoiy davlat Konchilik institutining 1-bosqich talabalariga 1-semestrda “Jismoniy madaniyat” o‘quv kursining amaliy mashg‘ulotlarida “Chidamlilikni rivojlantirish” mavzusida quyidagi jismoniy mashqlar differensial (toifalangan) turkumi taqdim qilindi:

(O‘rtacha jismoniy sifatlarga ega talabalar uchun)

1-MASHQ

Arg‘amchi

Oddiy arg‘amchi (sakratgich) bilan talabalar o‘zida chidamlilikni rivojlantirishlari mumkin. Bu mashqni 1-2 minutdan 10 minutgacha bajarish kifoyi. Sakrash paytida qo‘l, oyoq, yelka, qorin mushaklari egiluvchanligi oshadi

2-MASHQ

Yoysimon ko‘prik

Yonboshlab yoting. Qorin va oyoq mushaklarining kuchlanishi bilan tanangizni yerdan ko‘taring. Tanangiz korpusini oyoq turgan chiziqqa moslang. Shu alfozda 15-60 soniya turing. Tanangiz korpusi “yoysimon ko‘prik”ni hosil qilganidan so‘ng, yana qorin, bel va oyoq mushaklarini qattiq kuchlanish asosida siqing.

3-MASHQ

Prujina

Gavdangizni tik tutib, tizzalaringizni yig‘ib oling. Imkon qadar o‘ng oyog‘ingizga kuch yukini tashlang va vazningizni chap oyoq bilan oldinga siljiting. Mashqni chap oyoqda takrorlang. Sakrash paytida siz tomonlarni o‘zgartirishingiz mumkin. Harakat sekin emas, balki intensiv bajarilishi kerak. Jismoniy mashqni murakkablashtirish uchun o‘tirib-turib bajarish mumkin.

4-MASHQ

Tanani burish

Tanani burish orqali qomatni chiroyli va raso qilish mumkin. Buning uchun yelkaga yotib, oyoqlarni qoringa yig‘ish kerak. Tananing old qismini yuqoriga ko‘tarib, uning pastki qismini yerga mahkam joylashtirish lozim. Qo‘llar bosh tomonda joylashtiriladi. Press mushaklariga tayanib tananing old qismini pastga, so‘ng, yana yuqori qarab harakatlantiramiz. Tananing yuqori qismi ko‘tarilganda cho‘qur nafas chiqaramiz; tananing old qismi tushirilganda—chuqur nafas olamiz. Mashg‘ulot mobaynida 25-30 marotaba takrorlanadi va talabalar hafta davomida 3 marotaba 30 marotalab takrorlashlari samarali natija berishi xaqida tavsiya beriladi.

5-MASHQ

Oldinga qarab harakat qilish



O'ng oyog'ingizni oldinga qarab tashlang va yarim o'tirgan holatda qo'llaringizni tana bo'yab joylashtiring. So'ng, oyoqlaringizni almashtirib, bu safar chap oyog'ingizni oldingizga qarab tashlang va yarim o'tirgan holatda qoling. O'tirgan paytingizda tizzangiz ostida to'g'ri burchak hosil bo'lishini unutmang. Ushbu mashq oyoqlarning chidamliligi va chiroyli tuzilishga ega bo'lishiga mo'ljallangan, shuningdek, oyoqdagi ortiqcha vazndan xalos bo'lishga yordam beradi.

6-MASHQ

Belni mustahkamlash

Belningizga yoting. Qo'llaringizni tanangiz bo'yab joylashtiring. Panjalarangizni matga quying. Oyoqlaringizni ortga qarab yig'ib oling. Tizzalarangizni 70-89^o (gradus) kenglikda joylashtiring. Tosni ko'tarib, tovoningizga kuch yukini tashlang. Bu holatda 2-5 sekund qoling. Mashqni bajarish paytida bel qismining tagida joylashgan mushaklaringizni tortilishini his eting. Tanangizni 1-2 marotaba nafas olganingizdan so'ng pastga tushuring. Mashq 15 marta bajariladi.

Shunday qilib, sport jihozlarini talab qilmaydigan ushbu differensial mashqlar talabalarning mushaklari chidamliligini oshirish, kuch yetganicha bir xil kuch mashqlarini takrorlash imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Azizxodjaeva N.N. Pedagogicheskie texnologii i pedagogicheskoe masterstvo. - T.: Moliya, 2002.

2. Алимова Н.К. Развлекательное образование: монография/Н.К. Алимова, Е.Е. Семченко, С.В. Абдулина, Е.М. Ефимова. – Киров: ПРИП ФГБОУ ВПО «ВятГУ», 2013 – 247 с.

3. Андреев В.И. Педагогика. Учебный курс для творческого саморазвития. Казань. Центр инновационных технологий. 2012. – 608 с.



BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARI KOMPETENSIYALARINING RIVOJLANISHINI XALQARO BAHOLASH DASTURLARIDAN FOYDALANISH ASOSIDA KUZATISH

D.Z.USMONOVA,

Andijon viloyati xalq ta'limi xodimlarini qayta tayyorlash va ularni malakasini oshirish hududiy Markaz o'qituvchisi

Maqola boshlang'ich sinflarda o'qitish sifati monitoringini amalga oshirish, o'quvchilar tomonidan davlat ta'lim standartlari talablarining bajarilish dinamikasini tizimli kuzatish, o'qitish sifatiga ta'sir etgan omillarni aniqlash, ta'lim muassasalari, hududiy xalq ta'limi boshqaruvi idoralari, metodik xizmat va malaka oshirish tizimining faoliyatini baholashga qaratilgan masalalar yechimini topishga bag'ishlangan.

Tayanch tushunchalar: o'quvchi, xalqaro baholash das turi, davlat ta'lim standartlari talablari, o'qitish sifatiga ta'sir etuvchi omillar, ta'lim muassasalari, faoliyatni baholash.

В статье затронуты вопросы мониторинга качества обучения в начальной школе, освещены подходы систематического мониторинга динамики соблюдения требований государственных образовательных стандартов учащимися, выявление факторов, влияющих на качество обучения, образовательные учреждения, население региона. к задачам, направленным на оценку деятельности органов управления, методических служб и системы обучения.

Ключевые понятия: ученик, программа международного оценивания, требования государственных образовательных стандартов, факторы, влияющие на качество обучения, учебные заведения, аттестация.

The article monitors the quality of teaching in primary school, systematically monitors the dynamics of compliance with the requirements of state educational standards by students, identifies factors affecting the quality of teaching, educational institutions, regional population. is devoted to finding solutions to the problems aimed at evaluating the performance of the management system, methodological services and training system.

Key words: student, type of international assessment, requirements of state educational standards, factors influencing the quality of teaching, educational institutions, performance appraisal.

Xalqaro baholash dasturlarida muvaffaqiyatli ishtirok etish, bevosita ta'lim sifatini oshirish bilan bog'liqdir. Unda ishtirok etish, nafaqat O'zbekiston, balki, jahon hamjamiyatida o'quvchilarning o'quv dasturlarini yodda saqlab qolganligini baholashdan ularning kompetensiyalarini baholash, ya'ni maktabda egallagan bilimlarini real hayotiy vaziyatlarda qo'llay olishi, ijodiy va mantiqiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish va uni baholashga o'tishda muhim vosita bo'lib hisoblanadi

Ta'lim muassasalarida yaxlit tizimning holati va dinamikasini kompleks



kuzatish, tahlil qilish, korreksiyalash hamda prognozlash jarayoni buguni kunda muhim bo‘lib hisoblanadi. Shu jihatdan olganda, o‘quvchilar kompetensiyalarining rivojlanganligi darajasini milliy standartlarga nisbatan mosligini baholash o‘quv dasturlariga tayangan holda amalga oshirilib, imtihonlardan farq qiladi. Birinchidan, alohida olingan o‘quvchilarning bilim, ko‘nikma va malakalari darajasi emas, balki tizimning faoliyat ko‘rsatish natijalari o‘lchanadi. Ikkinchidan, milliy baholash natijalari muayyan yoshdagi yoki sinfdagi o‘quvchilar umumiy o‘zlashtirish darajasining uzoq muddatli monitoringini amalga oshirishga xizmat qiladi. Tanlash yo‘li bilan o‘tkazilgan umummilliy baholash ushbu tadbiri qisqa muddatlarda iqtisodiy jihatdan arzonroq o‘tkazish imkoniyatini beradi. Uning natijalari esa, muayyan o‘quv fanlari bo‘yicha o‘quvchilar o‘quv yutuqlari to‘g‘risida qimmatli ma‘lumotlarni berishi mumkin.

Prezidentimiz Farmoni bilan “O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi” tasdiqlangan bo‘lib, unda O‘zbekiston Respublikasining 2030 yilga kelib PISA xalqaro baholash dasturining reytingi bo‘yicha jahonning birinchi 30 ta ilg‘or mamlakati qatoriga kirishiga erishish ustuvor vazifa etib belgilangan “O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi” da mamlakatimizda 2030 yilga kelib PISA xalqaro baholash dasturining reytingi bo‘yicha jahonning birinchi 30 ta ilg‘or mamlakati qatoriga kirishiga erishish ustuvor vazifa etib belgilangan”. 1

Mamlakatimizda Vazirlar Mahkamasining tegishli qarorlari asosida dunyoda ta’lim sifatini baholash bo‘yicha yetakchilik qilib kelayotgan xalqaro baholash dasturlari, jumladan PISA va PIRLS dasturlarida ishtirok etishga kirishildi.

Respublikamizning 14 ta hududida, jumladan, xorijiy ekspertlar ishtirokida Toshkent shahri, Samarqand, Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlarida seminarlar tashkil etilib, umumta’lim muassasalarining 2800 nafarga yaqin jamoalari qamrab olindi, 260 nafar trener tayyorlandi.

Xalqaro tadqiqotlar bo‘yicha 191 ta maktablarda PISA savollari negizida dastlabki tajriba-sinovlar o‘tkazilib, 4873 nafar o‘quvchilar qamrab olindi. TIMSS dasturi savollari negizida Jahon banki bilan hamkorlikda 150 ta maktablarda tadqiqot o‘tkazilib, 4051 nafar o‘quvchilarning matematik savodxonligi baholandi.

PISA va PIRLS doirasida tajriba-sinov o‘tkazish uchun 200 dan ortiq topshiriqlar tarjima qilinib, xalqaro lingvistika markazlari tasdig‘idan o‘tkazildi.

Bugungi kunda o‘quvchilarning ijodiy va mantiqiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirishga bag‘ishlangan 20 ta videodars va videoroliklar, 7 ta o‘quv-uslubiy



qo'llanma va topshiriqlar to'plami, shu jumladan 4 nomdagi metodik qo'llanmalar 10,0 ming nusxadan chop etilib, barcha maktablarga yetkazildi, shu bilan birga ijtimoiy tarmoqlarda e'lon qilindi.

Foydalanilgan adabiyotlar, ilmiy ishlanmalarni tahlil qilish asosida xalqaro tadqiqotlarda boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'qish, yozish savodxonligini baholashga katta e'tibor qaratilgan.

Ma'lumki, xalqaro baholash dasturlarida topshiriqlar namunalari respublikadagi bir nechta maktablarda tajriba-sinovdan o'tkazilib, takomillashtirilgan holda nashr etilgan. Ulardan sinfdan tashqari va to'garak mashg'ulotlari davomida yoki mustaqil ravishda o'quvchilarning savodxonligini oshirish, berilgan topshiriqlarni yechish orqali ularning ijodiy, mantiqiy fikrlash va hayotiy muammolarni hal qilish ko'nikmalarini rivojlantirishga erishish mumkin. Bunda o'quvchilar tomonidan davlat ta'lim standartlarida belgilangan bilim, ko'nikma va malakalarning o'zlashtirilish dinamikasi tizimli kuzatiladi, o'quvchilar bilimidagi bo'shliqlar va ularning kelib chiqish sabablari aniqlanadi, boshqa maktablar bilan qiyoslagan holda kamchiliklarni bartaraf etish chora-tadbirlari rejalashtiriladi.

Boshlang'ich sinflarda o'qitish sifati monitoringini amalga oshirishdan ko'zlangan maqsad o'quvchilar tomonidan davlat ta'lim standartlari talablarining bajarilish dinamikasini tizimli kuzatish, o'qitish sifatiga ta'sir etgan omillarni aniqlash, ta'lim muassasalari, hududiy xalq ta'limi boshqaruvi idoralari, metodik xizmat va malaka oshirish tizimining faoliyatini baholab, rivojlantirishga oid chora-tadbirlarni belgilash, keyingi holatni bashoratlash natijasida o'qitish sifatini oshirishdan iborat. Shuning uchun zamonaviy shaxsga, raqobatbardosh mutaxassisga qo'yilgan talablarning ortib borishi eng avvalo ta'lim muassasalari va hududiy xalq ta'limi boshqaruvi idoralaridagi alohida tuzilmalar tomonidan o'qitish sifati monitoringini tizimli va maqsadli amalga oshirishni talab etadi [51].

Xalqaro baholashni yaqin 15 - 20 yilda tashkil etish yo'lga qo'yilib, ularda bir necha mamlakatlar o'quvchilarining o'quv yutuqlari tanlov yo'li bilan baholanadi. Bunday keng qamrovli tadqiqotlarning asosiy maqsadi qamrab olingan muayyan yoshdagi yoki sinfdagi o'quvchilarning bir yoki bir necha o'quv fanlari bo'yicha o'quv yutuqlarini baholash va bir qator mamlakatlar kesimida qiyoslashdan iborat. Misol tariqasida matematika va tabiiy fanlardan o'tkazib kelinayotgan - TIMSS (Trends in International Mathematics and Science Study –Xalqaro matematika va tabiiy fanlarning o'rganishdagi tendensiyalari)ni keltirish



mumkin. TIMSS ning birinchi xalqaro tadqiqotida 38 mamlakatning 4-, 8- va umumiy o'rta ta'lim muassasalarining bitiruvchilari (11- va 12-sinf o'quvchilari) qamrab olingan. Oxirgi uchinchi tadqiqotida esa 46 mamlakat o'quvchilari qatnashganlar.

Yana bir xalqaro o'quvchilar ta'limiy yutuqlarini xalqaro baholash dasturi - PISA (Programm for International Student Assessment) tadqiqoti hisoblanadi. Bu tadqiqot birinchi marta 2000 yilda o'tkazilib, unda 32 mamlakatning 15 yoshli o'quvchilari qatnashgan. PISA da asosiy e'tibor o'quvchilarning o'qish, matematika va tabiiy fanlar (fizika, ximiya, biologiya)dan olgan bilimlarini turli hayotiy vaziyatlarda qo'llay olishlarini baholashga qaratilgan. Uchinchi xalqaro tadqiqot – PIRLS da turli mamlakatlar boshlang'ich maktablari bitiruvchilarining matni o'qish va uni tushunish darajasi baholanadi.

Mazkur tadqiqotlarning maqsadi – o'quvchilar yutuqlari to'g'risidagi ma'lumotlarni jamlash va ularni xalqaro miqyosda qiyoslashdan iborat bo'lib, uning natijalariga ko'ra ta'lim siyosati masalalari hamda o'quvchilarning o'zlashtirishlaridagi tafovutlarni yaxshiroq anglab yetishga qaratilgan xalqaro muloqot amalga oshiriladi. Xalqaro tadqiqotlar nufuzining oshib borishi bugungi dunyoda globallashuv jarayonlari natijasida mustaqil hayotga kirib kelayotgan o'quvchilarga mehnat bozorida qanday bilim va ko'nikmalar kerakligi to'g'risidagi ijtimoiy buyurtmalarni hamda raqobatbardosh mutaxassislariga qo'yilgan talablarning ortib borayotganligidan darak beradi.

Monitoring o'tkazishning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

a) o'quvchilarning umumiy o'rta ta'lim davlat ta'lim standartlari talablarini bajarish darajasi hamda unga ta'sir etgan omillarni aniqlash;

b) monitoring natijalariga ko'ra o'quvchilar bilimida aniqlangan bo'shliqlarni to'ldirish hamda ta'lim-tarbiya jarayoni sifatini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlarni belgilash;

v) monitoring natijalari, jamiyat, fan va texnika, texnologiyaning rivojlanishi bilan bog'liq zarur talablar asosida davlat ta'lim standartlari sharhlari va o'quv dasturlariga o'zgartirishlar kiritish bo'yicha takliflar tayyorlash;

g) turli pedagogik texnologiyalarning qo'llanilishi natijalarini o'zaro taqqoslash;

Monitoring maqsadi va vazifalariga ko'ra nazorat ishlari qaysi fanlar kesimida va sinflarda o'tkazilishi aniqlanadi. Bunda, monitoring jarayoni bilan davriy ravishda barcha o'quv fanlarini qamrab olishni ta'minlash maqsadida bir yoki bir necha yillarga mo'ljallangan reja - grafik tuziladi.



Fanlar bo'yicha DTS talablari, o'quv dasturlari hamda amaldagi darsliklar mazmuni chuqur tahlil qilinadi. O'quvchi bilishi lozim bo'lgan bilim elementlari, o'zlashtirishi lozim bo'lgan malaka va ko'nikmalarning ro'yxatlari tuziladi.

Tashqi monitoring o'tkazish uchun nazorat materiallarini tayyorlash va ularni ekspertizadan o'tkazish maqsadida tegishli boshqaruv organlari qoshida jamoatchi ekspertlardan fanlar yo'nalishida ijodiy guruhlar tashkil etiladi.

Har bir fandan ijodiy guruh tomonidan bilim, ko'nikma, malaka va kompetensiyalarni qamrab olgan nazorat topshiriqlari (testlar, masalalar, savollar, diktantlar, insholar va h.k.) tayyorlanadi.

Topshiriqning murakkablik darajasi hamda ularni baholash mezonlari ishlab chiqiladi.

Monitoring jarayonida bir nechta nazorat turlaridan foydalanish mumkin. Jumladan, Yopiq test (javobi tanlanadigan) topshiriq – savol va unga oid 4 ta muqobil javobni qamrab olgan topshiriq, Ochiq test (ijodiy yoki javobi yoziladigan) topshiriq – o'quvchiga javob berish imkonini beradigan savol (to'g'ri javobdagi so'zlar eng ko'pi bilan 4 tadan oshmasligi lozim), Yozma ish – o'quvchidan ma'lum bir mavzu, qonuniyat, tushuncha, masala va voqyealar yuzasidan o'z fikrini bayon etishni, ma'lum bir qonuniyatga asoslangan formulalarni misol va masalalar yechishda yozma ravishda qo'llashni talab etadigan nazorat turi va boshqalar.

Kuzatish jarayonida foydalaniladigan nazorat materiallarini, shu jumladan test topshiriqlarining tarkibi qanday bo'lishi katta ahamiyatga ega hisoblanadi.

Tayyorlangan nazorat topshiriqlari va so'rovnomalarning sifati, sarf etiladigan vaqtni aniqlash maqsadida aprobatsiya o'tkaziladi. Aprobatsiya natijalariga ko'ra nazorat materiallari tahlil qilinadi va nazorat topshiriqlari, uni yechishga ajratilgan vaqtga tegishli o'zgartirishlar, qo'shimchalar kiritilib, tasdiqlanadi hamda monitoring jarayoniga tayyorlanadi.

Monitoring bilan qamrab olinadigan hududlar, tuman(shahar)lar va ta'lim muassasalarini tanlash istiqbol reja yoki saylanma ravishda representativ randomlashtirilgan tanlash metodi asosida amalga oshiriladi [62].

Kuzatish jarayonini tashkil etish uchun buyruq asosida ishchi guruhlari tuziladi, har bir ishchi guruhga rahbar belgilanadi hamda guruh faoliyati ishchi guruh rahbari tomonidan tashkil etiladi va boshqariladi.

Tashqi nazorat uchun tanlangan sinflarda nazorat ishini maxsus tayyorlangan ekspertlar amalga oshiradilar. Ular nazorat ishini o'tkazishdan oldin maxsus tayyorgarlik guruhlari yoki seminarlarda tegishli ko'rsatmalar olgan bo'lishlari lozim.



Nazorat ishini bajarish bo'yicha o'quvchilarga tushuncha beradi. Bunda ekspert nazorat ishining umumiy savollari va ularga ajratilgan umumiy vaqt, test savollari shakli va ularni javob varaqasiga kiritish tartibi bo'yicha tushuntirish ishlarini amalga oshiradi.

Baholovchi ekspert o'quvchilar barcha ma'lumotlarni tushunganliklariga ishonch hosil qilgandan so'ng ular nazorat ishi savollariga javob berishlarini boshlashlariga ruxsat beradi va sinf doskasiga nazorat ishi vaqtining boshlanishi va tugallanishini yozib qo'yadi.

Ekspertlar nazorat ishini o'tkazish uchun tanlangan umumta'lim muassasiga bir soat oldin borib, sinf xonalari holati, ularning joylashuvi bilan tanishadilar. Nazorat ishi bir necha sinflardan olingan taqdirda maktabning bir joyda joylashgan bir necha sinflari tanlanadi.

Har bir fandan o'tkazilayotgan yozma ishlarni bajarish uchun ularning murakkabligi va o'quvchilar yoshini hisobga olgan holda vaqt beriladi.

Shundan keyin o'quvchilar nazorat ishini bajaradilar. Ushbu davrda o'quvchilarning bir-birlari bilan muloqot qilishlari, savollar kitobi yoki javoblar varag'ini almashtirishlari, yordamchi vositalardan foydalanishlari taqiqlanadi.

Nazorat ishi o'tkazilgandan keyin o'quvchilarga 10 daqiqalik tanaffus beriladi. Keyin o'quvchilar, o'qituvchilar va maktab rahbarlari oldindan tayyorlangan so'rovnoma (anketa)larni to'ldiradilar. So'rovnomalarni to'ldirish uchun 10-15 daqiqa vaqt beriladi.

Ichki nazorat tasdiqlangan rejaga ko'ra nazorat o'tkaziladigan sinfdagi o'quvchilar tayyorgarlik ko'rib kelishlari uchun bir kun oldin ogohlantiriladi.

Umumta'lim muassasasida tashkil etilgan monitoring guruhi rahbari tomonidan eng kamida 2 ta variantdan iborat nazorat materiallari nazorat ishlari boshlanishidan 10 daqiqa oldin olib kelinadi va monitoring guruhi rahbari yoki a'zolari tomonidan nazorat ishlari olinadi.

Nazorat ishi bajarilgandan so'ng, o'quvchilarning ishlari ekspert tomonidan yig'ib olinadi va barcha o'quvchilar guvohligida alohida konvertga solinadi va muhrlanadi. So'ng konvertlar monitoring guruhi rahbariga topshiradi. Ichki nazorat ishlari natijalari umumta'lim muassasasida tashkil etilgan monitoring guruhi a'zolari tomonidan tekshiriladi. Ichki nazorat ishlarini o'tkazishda maktabning ichki imkoniyatlaridan kelib chiqib ximiya, fizika, biologiya informatika va boshqa amaliy fanlardan nazoratning amaliy turlaridan foydalanish tavsiya etiladi.

Nazorat ishlari o'tkazilgandan so'ng ular maxsus tayyorlovdan o'tgan



o'qituvchilardan tashkil topgan guruh a'zolari tomonidan tekshiriladi. Monitoring natijalari xolisligini ta'minlash maqsadida maxsus guruhga betaraf o'qituvchilar kiritiladi. Nazorat ishi yopiq test topshiriqlaridan iborat bo'lsa, tekshirish jarayoni kompyuter dasturi yordamida amalga oshiriladi. Boshqa turdagi topshiriqlar amaliyotchi o'qituvchilar tomonidan oldindan tayyorlangan baholash mezonlari asosida tekshiriladi. Nazorat ishlarining natijalariga kompyuter dasturi yordamida ishlov beriladi va tegishli ma'lumotlar tayyorlanadi. Tayyorlangan ma'lumotlar asosida tahliliy ma'lumotnoma tayyorlanadi, joriy natijalar avvalgilardan bilan taqqoslanadi, muayyan o'quv fanidan, muayyan sinfdagi, tuman va viloyat bo'yicha o'qish sifatining dinamikasi va rivojlanishi aniqlanadi.

O'quvchilar bilimiga, o'qitish sifatiga ta'sir etuvchi omillarni aniqlash, samarali va to'g'ri boshqaruv yechimlarini topish maqsadida o'quvchilar, fan o'qituvchilari, maktab rahbarlari va ota-onalardan so'rovlarni olinadi.

O'qitish sifatiga ta'sir etuvchi omillar shartli ravishda 3 ta blokka bo'lingan holda o'rganilishi kuzatilmog'unda:

1-blok: Ta'lim muassasasida yaratilgan shart-sharoitlar bilan bog'liq omillar;

2-blok: Ta'lim muassasasi pedagog kadrlarining (rahbarlari, o'qituvchilar, metodbirlashma rahbarlari va boshq.) kasbiy mahorati hamda ularga ko'rsatilayotgan metodik yordam sifatiga bog'liq omillar;

3-blok: O'quvchilarning qobiliyati, iqtidori, qiziqishiga va oilada yaratilgan sharoit, muhitga bog'liq omillar.

Natijalar va aniqlangan barcha omillar tahlil etiladi, ulardan muayyan hudud, tuman (shahar) yoki maktabga tegishli bo'lgan asosiy turlari aniqlanadi, ular asosida xulosalar chiqariladi. Pedagog xodimlar va fan o'qituvchilari uchun metodik tavsiya, qo'llanma va yo'riqnomalar, qaror va buyruqlar ishlab chiqiladi. O'quv jarayonining moddiy negizini mustahkamlash, o'qituvchilar malakasini oshirish (mavzuli pedagogik kengashlar, seminarlar, ochiq darslarni o'tkazish, uslubiy ishlarni takomillashtirish va boshqalar) chora-tadbirlari ko'riladi.

Monitoring bir kunlik nazorat bo'lmasdan, tizimli, uzviy, uzluksiz amalga oshiriladigan kuzatuvdan iborat bo'lishi shart.

Shunday qilib, o'qitish sifati uchun DTS va o'quv dasturlari talablari asosiy ko'rsatkich hisoblanadi. Monitoring – faqat DTS va me'yorlarning bajarilishini aniqlovchi, nazorat qiluvchi mexanizm bo'lib qolmasdan, ilm-fan taraqqiyoti, jamiyatdagi ehtiyoj va talablari asosida DTS, o'quv dasturlari va rejalariga tegishli o'zgartirishlar kiritish uchun asos bo'ladigan takliflarni tayyorlashga xizmat qilishi



lozim. O'quvchilar tomonidan topshiriqlarni bajarishlariga sarflanadigan vaqt nazorat materiallarining soni va murakkablik darajasidan kelib chiqqan holda belgilanadi. Nazorat materiallari amaldagi o'quv dasturlari asosida monitoring o'tkazish davrigacha o'zlashtirilgan mavzular asosida tayyorlangan bo'lib, o'quvchilarning shu fandan olgan bilim, ko'nikma va malakalarini aniqlashga xizmat qilishi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 11 iyuldagi "Oliy va o'rta maxsus ta'lim tizimiga boshqaruvning yangi tamoyillarini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-4391-son qarori.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 6 noyabrdagi "O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risidagi" PF-6108-son Farmoni/Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi; 06.12.2020 y., 06/20/653/1592-son.

3. Birlashgan Millatlar Tashkilotining "XXI asrning Oliy ta'limi" Butunjahon deklaratsiyasi <http://docs/cntd/ru/document/90183>.



UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTAB O'QITUVCHILARNING UMUMMADANIY KOMPETENSIYALARINI DIAGNOSTIKA QILISH

I.R. JO'RAEVA,
Navoiy davlat pedagogika
institutining 2-bosqich magistranti

Maqolada o'qituvchining umummadaniy kompetentligini rivojlantirish, uning strukturaviy: kognitiv, pragmatik, aksiologik, menejerlik komponentlarini rivojlantirishga qaratilgan ahamiyati haqida fikr bayon etilgan.

Tayanch tushunchalar: umummadaniy kompetensiya, diagnostika metodlari, baholash, o'qituvchi, milliy qadriyat, umumbashariy qadriyat, shaxsiy va kasbiy kompetensiya.

В статье рассматриваются вопросы развития общекультурной компетентности учителя, ее роль в развитии структурных компонентов: когнитивного, прагматического, аксиологического, управленческого.

Ключевые понятия: общая компетентность, методы диагностики, оценивание, учитель, национальная ценность, общечеловеческая ценность, личностная и профессиональная компетентность.

The article deals with the development of general cultural competence of a teacher, its role in the development of structural components: cognitive, pragmatic, axiological, managerial.

Key words: general competence, diagnostic methods, assessment, teacher, national value, universal value, personal and professional competence.

Mamlakatimizda Uchinchi Renessans talablari asosida ta'lim tizimini progressiv isloh qilish va rivojlantirish, pedagog va psixolog olimlar tomonidan olib borilayotgan ilmiy tadqiqotlarning negizida tahsil oluvchilarning iqtidorini, kognitiv bilim sohasini, ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish, qiziqishlari va ehtiyoji asosida sifatli bilim berish, tahsil oluvchilarning kreativligini shakllantirishga katta e'tibor qaratilmoqda. Buning uchun maktab o'qituvchisining umummadaniy kompetentligini rivojlantirish, uning strukturaviy: kognitiv, pragmatik, aksiologik, menejerlik komponentlarini rivojlantirishga qaratilgan ahamiyatini ta'minlash ehtiyoji mavjud.

Maktab o'qituvchisi umummadaniy kompetentligini diagnoz qilishning mezonlari va metodlariga tayanadi. Shunda quyidagi mezonlardan foydalaniladi: tashkiliy, faoliyatli, motivatsion, kognitiv, kreativ, kommunikatsion, refleksiv.

Umuman aytganda, diagnostika natijalarini baholash va o'zini o'zi baholash quyidagi ko'rsatkichlarga asoslanadi: o'qituvchi umummadaniy kompetentligini rivojlantirishning "quyi, o'rta, optimal, yuksak darajalari".

Diagnostika metodlari: diagnostik suhbat, bevosita kuzatish, anketa so'rovnomasi, test sinovi, o'zini o'zi baholash.



Olib boruvchi o'qituvchilar guruhga diagnostik metodikalarning varaqalarini, testlarni, anketalarni tarqatadi, diagnostika maqsadi/anketalar bo'yicha testni va so'rovnomanini ko'rsatmasi bo'yicha; shuningdek savollarga qanday javob berishi kerakligini va so'rovnoma varaqalarni qanday to'ldirish kerakligini tushuntiradi.

Ishtirokchilar so'rovnoma varaqalarini ko'rsatma bo'yicha belgilangan vaqtda to'ldiradilar. Shundan so'ng ularni olib boruvchiga miqdor va sifat hisob-kitobi va tahlilini o'tkazish; shuningdek, diagnostika natijalarini farqlash va umumlashtirish uchun topshiradilar. Diagnostikaning qo'lga kiritilgan umumlashgan natijalarini olib boruvchi guruh bilan (mazkur guruhning umumlashgan ko'rsatkichlari) muhokama qiladi, individual natijalarni esa (farqlangan individual ko'rsatkichlar) har bir o'qituvchiga alohida (konfidensial holda) yozma yoki og'zaki ma'lum qiladi.

Diagnostikada quyidagi metodikalardan foydalanildi:

1) "O'qituvchining umummadaniy kompetentligini o'zini o'zi baholashi" anketasi (muallif ishlab chiqqan) - refleksiv, faoliyatli, kommunikativ mezonlar;

2) "Kreativlik" psixologik testi – shaxsning ijodiy mayllarini diagnostika qilish va kreativ profilini tuzish (N.Vishnyakova so'rovnomasining adaptiv varianti) – kreativ mezon;

3) Shaxs ijodiy faolligining diagnostik metodikasi (M.M.Kashapova, O.N.Rikitskayalar so'rovnomasining adaptiv varianti) – faoliyatli, kommunikativ, tashkiliy mezonlar;

4) "O'qituvchi kasbiy-ijodiy o'zini o'zi rivojlantirishning o'zini o'zi baholashi" anketasi (muallif ishlanmasi) – motivatsion, faoliyatli, kognitiv mezonlar.

Izoh: ko'rsatilgan mezonlarga diagnostik metodikalar va anketalarning mosligi savollarning mazmuni va ularga beriladigan javoblarga bog'liq. Bizning nazarimizda, maqsad bo'yicha, yo'nalganlik va mazmunning mantig'iga ko'ra metodika, test, anketalarning har bir savoli ijodiy faoliyat, shaxsning motivatsion va kognitiv (bilish) sohasi bilan, shuningdek, o'qituvchining tashkilotchilik, kreativ, kommunikativ va refleksiv qobiliyatlari bilan mos kelishi va bog'liq bo'lishi mumkin.

Shu bilan birga, trening va boshqa mashg'ulotlarda mazkur o'qituvchilar bilan Olib boruvchi quyidagi tashkiliy-pedagogik shart-sharoitlar saqlanadi va ta'minlanadi:

- suhbatlar, mini-ma'ruzalar, diskussiyalar jarayonida tinglovchi-o'qituvchilarni o'qituvchining o'zining va o'quvchilarning umummadaniy kompetentligi, ijodiy qobiliyatlari, ijodiy salohiyatlari; pedagogik ijod, o'qituvchining predmetli, metodik, kommunikativ ijodi haqidagi zaruriy ma'lumotlar bilan ta'minlaydi;

- ochiq ishchan va shaxslararo muomala yordamida mashg'ulotlar ishtirokchilari o'rtasida erkin, majbur etilmagan ijodiy muhitni va ochiq, bir-biriga ishonchli bo'lgan muomala atmosferasini yaratadi; , takliflariga diqqat bilan



munosabatda bo'ladi

- o'qituvchilarning noodatiy savollariga, noan'anaviy g'oyalari va o'quvchilar bilan ijodiy ishlash, ularning bolalar, o'smirlar, yoshlar ijodiy faoliyati nazariyasi va amaliyoti nuqtai nazaridan ta'lim berishi, tarbiyalashi va rivojlantirishi ahamiyatini baholaydi;

- ta'lim olayotgan tinglovchi-o'qituvchilarning ijodiy faolligini faollashtiradigan topshiriqlardan (masalan, "aqliy hujum", mavzuviy munozaralar, pedagogik vaziyatlarni tahlil qilish, yechish va boshq.) foydalanadi; trening va boshqa mashg'ulotlarning ijodiy atmosferasini qo'llab-qo'ltiqlaydi.

Rivojlantiruvchi eksperimentda quyidagi texnologiyalar qo'llanildi:

1. Pedagogik muloqot sohasida o'qituvchi kommunikativ-ijodiy faolligini rivojlantirishning trening texnologiyalari;

2. O'qituvchi kreativligi va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishning trening texnologiyalari;

3. O'qituvchi umummadaniy kompetentligini rivojlantirish va o'zini o'zi rivojlantirishning trening texnologiyalari.

Trening darslarida tinglovchi-o'qituvchilar olib boruvchining topshirig'ini bajaradilar, ko'rsatilgan Dasturlarga singdirilgan ko'rsatma va talablarni bajara turib, murojaat qilinadi va harakat qilinadi. Bu mazkur sohalarda (ya'ni trening texnologiyalari realizatsiyasining maqsadlari) ularning umummadaniy kompetentligini rivojlantirishda ijobiy natijalarga erishishga olib keladi.

Shunday qilib, model realizatsiyasining algoritmi o'z mohiyatiga, maqsadlariga, vazifalariga va mazmuniga ko'ra sohada maktab o'qituvchisi umummadaniy kompetentligini rivojlantirishning samarali va mahsuldor vositasi hisoblanadi: o'qituvchining kreativ qobiliyatlarini; kommunikativ malakalarini; shaxsiy va kasbiy-ijodiy o'zini o'zi tarbiyalashni o'z ichiga qamrab oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Зарицкий Д. Как я повысил продуктивность с помощью стриминга [Электронный ресурс]. – Режим доступа: <https://habrahabr.ru/post/307536/> (дата обращения: 11.05.2017).

2. Ишемгулов М. Н. Правовой аспект в использовании «стрим-технологий» для документирования информации // Молодой ученый. – 2016. – № 17. – С. 195–198.



BO'LAJAK JISMONIY TARBIYA O'QITUVCHILARINI KASBIY FAOLIYATGA TAYYORLASHDA SIFAT BOSQICHLARIDAN FOYDALANISH

E.E.XURRAMOV,

Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika instituti o'qituvchisi

Maqolada bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchisining kelgusidagi kasbiy pedagogik faoliyatini tashkil qilish, uning o'z faoliyatini tanqidiy tahlil qilish ko'nikma va malakalari tarkib toptirish, pedagogik texnologiyalarni qo'llay olish mahorati haqida fikr yuritilgan.

Tayanch tushunchalar: ko'nikma, malaka, pedagogik texnologiya, mahorat, bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchisi, kasbiy pedagogik faoliyat, tanqidiy tahlil.

В статье рассматриваются вопросы организации будущей профессиональной педагогической деятельности будущего учителя физической культуры, формирования умений и компетенций к критическому анализу собственной деятельности, умения использовать педагогические технологии.

Основные понятия: умения, квалификация, педагогическая технология, умения, будущий учитель физкультуры, профессионально-педагогическая деятельность, критический анализ.

The article discusses the issues of organizing the future professional pedagogical activity of the future physical culture teacher; the formation of skills and competencies for a critical analysis of their own activities, the ability to use pedagogical technologies.

Key words: skills, qualifications, pedagogical technology, skills, future physical education teacher, professional pedagogical activity, critical analysis.

Bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchisining kelgusidagi kasbiy pedagogik faoliyatga qay darajada tayyorligini baholash uchun uning o'z faoliyatini tanqidiy tahlil qilish ko'nikma va malakalari tarkib topganligi, faoliyatida innovatsiyalarni, pedagogik texnologiyalarni qo'llay olish mahoratiga egaligi, tajriba-sinov ishlari rejasini va dasturini tuzishi va uni amalga oshirish malakasiga egaligi, o'zidan boshqa tadqiqotchi pedagoglar tajribalarini tahlil qilib, uni amaliyotda qo'llay olishi, fikr va tajriba almashib, metodik yordam ko'rsata olishi, mualliflik konsepsiyalarini yarata olish mahoratiga egaligi, ziddiyatlar oldini olish, pedagogik vaziyatlarda to'g'ri qaror qabul qila olishiga e'tibor qaratish lozim.

Jismoniy tarbiya o'qituvchisi kasbiy pedagogik faoliyatining ilmiy-metodik ta'minlanishi muhim ahamiyatga ega. Pedagogik jamoaning innovatsion salohiyati ta'lim tizimi ko'lamida innovatsion g'oyalari, loyihalari, texnologiyalarni joriy qilishda va ularni rivojlantirishda namoyon bo'ladi.



O'qituvchilarni kasbiy pedagogik faoliyatga tayyorlash bir necha bosqichda amalga oshirilib, uzoq davom etadigan jarayon hisoblanadi.

1-bosqich: Kasbiy pedagogik faoliyatga psixologik jihatdan tayyorgarlik bosqichi. Buning uchun o'qituvchi didaktik prinsiplardan quyidagilarni bilishi kerak:

Mutanosiblik prinsipi - pedagogik ko'nikmalarni egallashga ehtiyoj bilan o'z faoliyatini o'zgartirishga ehtiyoj o'rtasidagi mutanosiblik.

Ijodiyot prinsipi - pedagogik jarayonda ob'ekt bilan sub'ektning birgalikdagi ijodiyoti.

Vaziyatdan chiqa olish - yangi, shu davrgacha ma'lum bo'lmagan vaziyatlardan chiqib ketish.

2-bosqich: Psixologik-pedagogik bilimlarni va pedagogik mahoratni shakllantirish bosqichi. Bunda: ijodiy faoliyat texnologiyasini egallash; avval egallangan bilim, ko'nikma va malakalarni yangi vaziyatlarga ko'chira olish; asosiy yoki bosh muammolarni ajrata olish; ob'ektning yangi funksiyalarini ko'ra bilish; maqbul yechimlarni topa olish; o'z-o'zini va o'z faoliyatini tasniflay olish ko'nikma va malakalari shakllantiriladi.

Bakalavr va magistrantlarning pedagogik faoliyatga ilmiy-uslubiy jihatdan tayyorgarligini takomillashtirish uchun muammoli, maqsadli, mualliflik, axborot texnologiyalari, pedagogik texnologiyalarni o'rganish, masofadan o'qitish kabi kurslarini tashkil etish maqsadga muvofiq.

Bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarini kasbiy pedagogik faoliyatga tayyorlash texnologiyalarini takomillashtirish maqsadida talabalar va magistrantlar o'taydigan pedagogik amaliyot monitoringini olib borish lozim. Pedagogik amaliyotning sifat-samaradorligini aniqlash uchun ichki va tashqi nazoratni bir vaqtda olib borish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Ichki nazorat maktab rahbariyati va metod birlashma tomonidan amaliyotni o'tagan 4-bosqich talabalari va 2-bosqich magistrantlari uchun mutaxassislik kafedrasi bilan hamkorlikda metodbirlashma seminarining ilmiy xulosasini berilishi kuzda tutiladi. Bunda pedagogik amaliyot o'tagan talaba va magistrant innovatsiyalarning qo'llanilishini amalda namoyish etishi, jismoniy tarbiyadan amaliyot dasturini amalga oshirish jarayoni nazorat qilinadi. O'tkazilgan pedagogik so'rovlar, tajriba-sinovlar, ilmiy tadqiqotlarning yakuni sifatida bugun pedagogika oliy ta'lim muassasalarida ta'lim olayotgan talaba va magistrantlar, umumta'lim maktablaridagi jismoniy tarbiya o'qituvchilarining innovatsion faoliyatga bo'lgan



munosabati, ushbu faoliyatni tashkil qilish qobiliyati o'rganildi. Bunda barcha ijtimoiy-pedagogik talablarni to'g'ri tushunadigan, pedagogik faoliyatning barcha muammoli masalalarini yangi uslubda yechishga tayyor, o'zi o'qitadigan o'quv predmeti bo'yicha chuqur bilimga ega, o'z ustida muntazam ishlaydigan va innovatsion faoliyatni rejalashtiradigan o'qituvchilar pedagogik jamoaning salmoqli qismini tashkil etishi aniqlandi. Biroq, ayrim o'qituvchilarda yetarli ijtimoiy-siyosiy va jamoat ishlari uchun faollik mavjud emasligi, ijodiy yangilikka kam intiladigan, ta'lim-tarbiya jarayonini takomillashtirish uchun harakat qilishda sustlik qiluvchi o'qituvchilar ham borligi aniqlandi. Tajriba va motivatsiyaning yetarli darajada shakllanmaganligi ko'pchilik holatlarda yangi g'oyalarni joriy etishga jiddiy to'siq bo'lib qolayotganligi aniqlandi. Yangilikka befarq, tayyor materialdan foydalanuvchi, qiyinchilikka bardosh berishni istamaydigan, o'z fanlari va ta'lim-tarbiya ishlari bo'yicha yuzaki ma'lumotga ega, shaxsiy malakalarini oshirishni va o'z-o'zini tarbiyalashni har doim ham istamaydigan, nazariy bilim va kasb mahorati ustida ishlashi lozim bo'lgan o'qituvchilar ham pedagogik jamoalarda faoliyat yuritishmoqda.

Anketa so'rovlarida qatnashgan 67 foiz o'qituvchi faoliyatini yangilash jarayonida ichki va tashqi omillar ta'siri juda katta ekanligini ko'rsatishdi. Ichki omillarga pedagogning motivatsiyasi, mas'uliyatni his qila olishi, mehnatsevarligi, o'z ishi natijasini nazorat qilish malakasining mavjudligi, o'zining qadriyatlariga tayanishi, bajarayotgan ishga bo'lgan ishonchi kabi omillarni 56 foiz o'qituvchi kiritgan bo'lsa, tashqi omillar, pedagogik jamoa salohiyati, ilmiy-metodik va uslubiy manbalar, qo'llanmalar mavjudligi va sifati, tashqi motivatsiya (insonni o'z ishida erishgan muvaffaqiyatlarini boshqa odamlar tomonidan e'tirof etilishini istashi, shaxsiy fazilatlari, layoqati va qadriyatlarining o'zga kishilar yoki uning uchun ahamiyati bo'lgan guruh tomonidan tan olinishiga erishish istagi), vositali motivatsiya (maosh, mukofot, tashakkurnoma va boshqalar bilan taqdirlanish istagi), ilg'or tajribalarni o'rganish uchun shart-sharoit mavjudligi, zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish malakasiga egaligi va boshqa ko'plab omillarni 73 foiz o'qituvchi belgiladi.

Kelajakdagi hayotini samarali kechishi uchun pedagog ongli tarzda qayta o'z faoliyatini tashkil etadi va buning uchun ta'lim jarayoni imkoniyatlaridan foydalanadi. Ayniqsa, bu jarayon talabalik davri, yoshlik davri, ayni ushbu jarayonni yo'lga qo'yish uchun muhim bosqich davri hisoblanadi. Ushbu konsepsiyaning keyingi g'oyasi pedagogik sub'ektivlikni rivojlanishi bilan bog'liq:



talaba "o'rganuvchi", "o'quvchi", "o'qitadigan" pozitsiya orqali o'tadi.

Shuni alohida ta'kidlash joizki, radio va televidenie eshittirishlari va ko'rsatuvlari o'qituvchilar faoliyatini yangilashda va takomillashtirishda o'ziga xos vosita hisoblanadi. Ammo butungi kunda ommaviy axborot vositalaridagi o'quv ko'rsatuvlari sonining kamligi va saviyasi zamon talablariga javob bera olmaydi. Pedagogik jarayonda innovatsion faoliyatga tayyorlashning muhim xususiyati unga izchillik bilan yondashuvda namoyon bo'ladi.

Bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarini kasbiy pedagogik faoliyatga tayyorlashda talaba va magistrantlar faoliyatini yangilashga yo'naltirilgan muayyan shart-sharoitlarni yaratish, jismoniy tarbiya o'qituvchilari orasida pedagogik jarayonga yangilik kiritishning mohiyatini ochib berishga qaratilgan maxsus o'quv seminarlarini tashkil etish, ta'lim jarayoniga yangiliklarni tatbiq etishning ilmiy asoslarini puxta o'zlashtirilishiga erishish, ta'lim-tarbiyaviy faoliyatni tashkil etishga nisbatan ijodiy yondashuv malakalarini shakllantirish, ijodiy ishlash borasidagi mahoratini oshirish va o'quv faoliyati samaradorligini ta'minlash talab etiladi.

Bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarining kelgusidagi faoliyatini tashkil etishga yo'naltiruvchi va muhim qo'llanma bo'la oladigan manba yaratilishini davr taqozo etmoqda.

Bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarini kasbiy pedagogik faoliyatga tayyorlashda quyidagilarga e'tibor qaratilishi lozim:

bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarini ilg'or pedagogik texnologiya, innovatsiya, innovatsion ta'lim nazariyasi, uning mohiyati, pedagogik faoliyatni loyihalash borasidagi bilimlarni o'zlashtirishiga erishish;

talabalarda texnik vositalar va axborot texnologiyalari xizmatidan samarali foydalanish borasidagi amaliy ko'nikma va malakalarni hosil qilish;

ularda tahsil oluvchilar jamoasi bilan muvaffaqiyatli muloqotni tashkil etish, pedagogik faoliyatga nisbatan ijodiy yondashuvni shakllantirish;

psixologik-pedagogik vaziyatlarni baholay olish va ularga mutanosib xatti-harakatni tashkil etish malakalarini shakllantirish;

pedagogik faoliyat mazmuni, ko'lami va samaradorligini oshirish vositalarini ko'rsatish va jismoniy tarbiya o'qituvchisining raqobatbardoshlik sifatleri haqida ma'lumot berish;

jismoniy tarbiya fani bo'yicha tashkil etiladigan mashg'ulotlar loyihasi ishlab chiqish, tahsil oluvchilar faoliyatini nazorat qilish, nazariy bilim, amaliy ko'nikma



va malakalarini baholash hamda ta'lim jarayonining samaradorligini aniqlashga imkon beruvchi dasturlarni ishlab chiqish kerak.

Bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilari maktab manfaatlarini shaxsiy qiziqishlari bilan muvofiqlashtira olishi lozim.

Shunday qilib, innovatsion faoliyatga tayyorlashda pedagoglarning psixologik tayyorgarligi, ularning shaxsiy imkoniyatlarini namoyish etishga yo'naltirish muhim ahamiyatga ega bo'lganligi sababli bu tadbirlar pedagogika oliygohlarida bakalavriatura va magistratura bosqichlaridayoq amalga oshirilishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida" Qonuni. - T.;2020, 23 sentyabr/ <https://lex.uz/docs/5013007>.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktyabrdagi "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5847-son Farmoni/ <https://lex.uz/docs/4545884>.

3. Popkin, Helen. FarmVille invades the real world, MSNBC ,June 1, 2021.-P.-78.

4. Stuart, Keith. 3D games enter a new generation, London: the Guardian, 19 September 2021.-P.93.



BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINING O'QUV FAOLIYATLARINI LOYIHA METODLARI ASOSIDA TASHKIL QILISH

M.A. IMINOVA,

Andijon viloyat xalq ta'limi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish hududiy markazi o'qituvchisi

Maqola o'quvchilarda loyiha metodi orqali o'quvchilarda o'quv faoliyatlarini tashkil qilish usullarining bir necha turlarini ochib berishga bag'ishlangan.

Tayanch tushunchalar: o'quvchi, o'quv faoliyati, boshlang'ich ta'lim, loyiha metodlari, samarali natija, o'quv dasturlari, mustaqil ish.

Статья посвящена выявлению нескольких типов способов организации учебной деятельности студентов проектным методом.

Ключевые понятия: студент, учебная деятельность, начальное образование, методы проекта, эффективные результаты, учебные планы, самостоятельная работа.

The article is devoted to the identification of several types of methods of organizing the educational activities of students by the project method.

Key words: student, learning activities, primary education, project methods, effective results, curriculum, independent work.

Ma'lumki, mamlakatimiz boshlang'ich ta'limida PIRLS, EGRA, EGMA-xalqaro baholash dasturlaridan kutiladigan natijalar ko'p jihatdan o'quvchilarning o'qish, matematika, ona tili bo'yicha o'quv faoliyatlarini to'g'ri tashkil qilish bilan bog'liq.

Boshlang'ich ta'lim jarayonida ta'limga muammoli yondashish o'quv dasturlarida, o'qituvchi bilimlarini bayon qilishda, o'quvchilarning mustaqil ishlarida ham o'z ifodasini topadi.

Bizning fikrimizcha, o'quvchilarning o'quv faoliyatlarini to'g'ri tashkil qilishda loyiha metodlari yetakchilik qiladi

Boshlang'ich sinf o'quvchilarini loyiha metodlari asosida o'qitish ularda faoliyatni rivojlantirish, fikrlar aloqadorligini tahlil qilish, g'oyalardagi qarama-qarshiliklarni bartaraf qilishda, inkorni inkor etishda ijobiy natijalar beradi.

Loyiha metodlari asosida berilgan didaktik topshiriqlar o'quvchilarni darsda egallagan bilimlarini to'liq idrok etishga, o'quv materiali ustida keng mushohada yuritishga undaydi. Ularda mustaqil fikrlash ko'nikmalarini hosil qiladi va eng asosiy ijtimoiy munosabatlar tizimida tanqidiy fikrlashga imkon yaratadi.

O'quvchilarda fikrlash faoliyatida loyiha metodlaridan foydalanish ularning shaxsida qiziquvchanlik, o'tkir zehnilik, mustaqillik, o'qishga qiziqish va ijodga intilish kabi fazilatlarini tarbiyalaydi.



Shu nuqtai nazardan olib qaralganda umumiy o'rta ta'lim maktablarida boshlang'ich o'qitishning yangi, ta'sirchan mexanizmlari, innovatsion yo'llarini belgilab olish lozim bo'ladi.

Bilish faoliyatini boshqarish bo'yicha loyiha metodlari quyidagi turlarga ajratish mumkin (1-jadval):

1-jadval. Loyiha metodlari turlari

LOYIHA METODLARI	
Didaktik yo'naltirilgan	Kichik guruxlarda o'qitish
Pedagogik yo'naltirilgan	Kompg'yuter yordamida o'qitish
Shaxsga yo'naltirilgan	Ekologik tarbiyaga yo'naltirilgan
Insonparvarlikka va shaxsga yo'naltirilgan	Texnika vositalari yordamida o'qitish
Hamkorlik texnologiyalariga yunaltirilgan	Repetitor tizimi va boshqalar
Darslik bo'yicha o'qitish	Dasturlashtiriladigan boshqaruv

Boshlang'ich ta'lim jarayonida loyiha metodlaridan elektron ta'limiy resurslar vositasida foydalanishda o'qituvchi birinchi navbatda shaxsning xususiyat va sifatleri tarkibiga alohida e'tibor qaratishi kerak. Shu bilan bir qatorda aqliy faoliyat usullarini shakllantirishga yo'naltirilgan-operatsion, estetik va axloqiy, ekologik munosabatlar sohasini shakllantirishga yo'naltirilgan emotsional-badiiy va emotsional — axloqiy, shaxsning o'z-o'zini rivojlantirish mexanizmlarini shakllantirishga yo'naltirilgan evristik loyiha metodlarini nazarda tutish maqsadga muvofiq.

Boshlang'ich ta'limda loyiha metodlaridan elektron ta'limiy resurslar vositasida foydalanish imkoniyatlari, ayrim alohida yo'nalish va maqsadlarga asosiy e'tibor karatilgani bilan farqlanadi. Bular:

axborotning ma'no-mazmunini, undan foydalanish tartibini qo'llash orqali o'quvchilarga yetkazish faoliyati;

axborotning ma'no-mazmunini idrok qilish, undan ko'rsatilgan tartibda mustaqil foydalana olish;

boshlang'ich ta'limga oid axborotdan foydalanish va turli harakatlarni bajarish ko'nikmalarini o'rgatuvchining o'zi o'rgangan darajada boshqalarning takrorlay olishini turli vosita va usullarni qo'llab amalga oshirish faoliyati;

axborotdan foydalanish va turli harakatlarni ko'rsatilgan tartibda mustaqil bajarish ko'nikmalarini egallash;

tushunish, o'rganish orqali axborotning ma'no-mazmuni, undan foydalanish yoki harakatlarni bajarish tartibi to'g'risida bilim va ko'nikmalarni o'zlashtirish.

Boshlang'ich ta'lim jarayonida loyiha metodlaridan elektron ta'limiy resurslar vositasida foydalanishda o'quv materialini o'zlashtirish shartli ravishda quyidagi darajalarga ajratiladi:



1) Kuzatuvchanlik, muammoga tadqiqiy yondashuv ko'nikmalarini o'zlashtirish;

2) amaliy faoliyatda qo'llash;

3) tahlil qilish, qiyoslash, umumlashtirish,

4) xulosalar chiqarish asosida takomillashtirish faoliyatini amalga oshirish imkoniyatiga ega bo'lish.

Boshlang'ich ta'lim jarayonida loyiha metodlaridan dinamik jadval, slydlar, virtual ko'rgazmalar vositasida foydalanish mumkin. Masalan, "Atrofimizdagi olam" o'quv predmetidan virtual ko'rgazmalarda bo'g'doyning rkvojlanihi, hujayralaming bo'linishi, gulning otalanishi va boshqalarni ko'rsatish mumkin.

Boshlang'ich ta'lim jarayonida loyiha metodlaridan elektron ta'limiy resurslar vositasida mushohada qilishga o'rgatish uchun o'quvchilarga film yoki uning bir qismini ko'rgandan keyin undash lozim.

O'quvchilarning o'z javoblarida ko'rgazmali metodlardan foydalanishi ularga hosil qilingan bilimlarini ishlatishga imkon beradi.

Loyiha metodlari o'qituvchi tomonidan tashkil qilinadigan va yo'naltiriladigan, o'quvchilar fikrini rivojlantirishga mo'ljallagan so'z, ko'rgazmalilik va amaliy ishning o'zaro murakkab bog'lanishda bo'lishini ko'rsatadi. Bular tabiat ob'ektlarini tanib olish va aniqlash bo'yicha ishlar; hodisalarni kuzatish va qayd qilish; tajriba o'tkazish (tajriba vositasida masalalarni xal qilish) kiradi.

Loyiha metodida beriladigan topshiriqlar, agar ularda o'quvchilarning ilgari olgan bilimlarini amaliyotda qo'llab xal qilinishi zarur bo'lgan savol hamda vazifa bo'lganda, ta'lim-tarbiyaviy jihatdan alohida qimmatli hisoblanadi: bunda uquvlar mexanik tarzda emas, balki bilimlarga asoslangan xolda rivojlanadi.

Shunday qilib, boshlang'ich ta'limda jarayonida loyiha metodlaridan elektron ta'limiy resurslar vositasida foydalanishda o'qituvchilarda empirik, nazariy tafakkurni rivojlantirish, faqat tabiiy- ilmiy emas, balki umummehnat xarakteridagi eksperimental amaliy faoliyatda ham muvaffaqiyatga erishish mumkin bo'ladi.

– Boshlang'ich ta'limda foydalanadigan didaktik topshiriqlar shakli - mazmunidan alohida o'rganish kuzatiladi. Buning natijasida induktiv va deduktiv mushohada yuritish, analiz va sintez kabi aqliy operatsiyalardan yiroq, fragmentar fikrlash qaror topadi. O'quvchilar mantiqiy fikr ketma-ketligi izhor etishlari, muayyan masalalar yuzasidan hukm chiqarish, xulosa yasashga qiynalishadi.

– Boshlang'ich sinf o'qituvchisi darslarni loyihalashtirganda oydinlashtirilgan maqsadlarni tizimsiz va kompleks yondashmagan holda, tarbiyaviy imkoniyatlarga urg'u bermay, olib boradi, natijada ta'lim samaradorligi va tarbiyaviy ahamiyatga molik masalalar dinamikasi kuzatilmaydi;

Tadqiq qilinayotgan muammo doirasida o'qituvchilar va o'quvchilar bilan



o'tkazilgan anketa-so'rovnomalari tahlilidan quyidagilar ma'lum bo'ldi:

– birinchidan, o'qituvchilarning asosiy qismi faqat dastur va darsliklarda belilangan talablar, muayyan topshiriqlar mavjud bo'lgan hollardagina amalga oshirishadilar;

– ikkinchidan, dasturlarda tadqiq qilinayotgan mavzu doirasida hal etilishi lozim bo'lgan maxsus tavsiyalar berilmaganligi, o'qituvchining o'ziga xos har doim ham zaruriy ko'rsatmalarni tanlash murakkab ekanligi aniqlandi.

– uchinchidan, amaldagi dasturlar bo'yicha tuzilgan darsliklar va o'quv qo'llanmalarda loyiha metodlarini qo'llash bo'yicha topshiriqlar aniq aks ettirmagan.

Internet va elektron pochta tizimi orqali tushunchalarni o'zlashtirish uchun atigi 7,7% o'quvchi murojaat qilishadi. Ko'rinib turibdiki, o'quvchilarning o'zlari bilimlarni o'zlashtirishga qanchalik urinmasin, bu borada maxsus yaxlit ko'nikmalarni shakllantirishga qaratilgan metodika tarkib topmaguncha bu masala o'z yechimini topa olmaydi.

O'z ishiga ijodiy, sidqidildan yondashadigan maktab o'qituvchilarining tajribalari tahlil qilinganda zamonaviy ta'lim berishda asosiy urg'u o'quv materiallarini optimal darajada tanlash bilan birgalikda o'qitish jarayonida *innovatsion* usullarni to'g'ri tanlay olish zarurligi ham ma'lum bo'ldi. Bunda

O'quvchilarning ijtimoiy tafakkurni shakllantirish, anglash, idrok qilish, mushoxada qilish ko'nikmalarini rivojlantirish jarayonini intensivlashtirish zarur. Bu esa o'z navbatida mustaqilligimizni qadrlay oladigan, o'zligini, jamiyat, davlat va oila oldidagi mas'uliyatni anglaydigan yetuk shaxsni shakllantirish kabi vazifalar bilan bog'liq jarayondir.

Boshlang'ich ta'lim jarayonida loyiha metodlaridan elektron ta'limiy resurslar vositasida foydalanishda didaktik topshiriqlar o'quvchiga moslashuvni va unga qulay sharoit va texnologik himoya bilan ta'minlashni talab qiladi. Bunda insonparvarlik maktabi amaliyoti tajribalarini xamda innovatsion faoliyatning aniq shakl va uslublarini inobatga olish lozim. Mazkur ishlarni amalga oshirishda quyidagilarga rioya qilishi shart:

– taqdim kilinayotgan o'quv axborotining tizimliliigi, uzviyligi va ketma-ketligini inobatga olish;

– o'quv materialining ixcham, soda, xajmd jixatidan kichik, ammo mazmun-moxiyatiga ko'ra keng kirraligiga e'tibor berish;

– faktik ma'lumotlarga ega, Davlat ta'lim standarti asosida tayyorlangan didaktik topshiriklarni o'quvchi yoshiga oid taqdim qila olish texnikasiga amal qilish;

– o'quv- ta'lim jarayonlarini shaxsning individual hislatiga qarab muvofiqlashtirish;

– har bir o'quvchi qobiliyati va qiziqishini rivojlantirish uchun kerakli



sharoitlarni yaratib berish;

- ta’lim- tarbiya faoliyatini differensiallash;
- o’quv- tarbiya faoliyatida pedagogik-psixologik xizmat;
- o’quvchiga va uning kuchi hamda imkoniyatlariga ishonish;
- o’quvchini qanday bo’lsa, shunday qabul qilish;
- ta’lim-tarbiya ishlarini muvaffaqiyatini ta’minlash;
- maktabning maqsadli yo’nalishini o’zgartirish;
- har bir o’quvchi rivojlanish darajasining asoslanishi;
- o’qituvchining shaxsiy ichki yo’l-yo’riqlari va ularni qayta yo’naltirish;
- insonparvarlik ta’limini kuchaytirish.

Ma’lumot mazmuni o’quv materiallarida moddiylashtirilgan ekan, loyihalash jarayonlarini boshqarish ma’lumot mazmuniga atroflicha pedagogik ishlov berish, tanlanadigan o’quv materiallarini o’quvchilarning real bilish imkoniyatlariga moslashtirishni taqozo qiladi. Shu yo’l bilan hajm jihatidan ixcham topshiriklar, o’quv majmualarining yaratilishi o’quvchining xar tomonlama fikrlash kobilyatini shakllantiradi. Yuqoridagi tezisga rioya qilish o’rganilayotgan muammo doirasidagi jarayonni boshqarish, axborotlarni optimal tanlash, ta’limning samaradorligini oshirish va sifatini yaxshilash imkoniyatlarini oshiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Загвязинский В.И., Гильманов С.А. Творчество в управлении школой. – М., 1991. – 61 с.
2. Зайцев Е.Л., Семина Л.И. Права, обязанности и ответственность участников образовательного процесса. – М.: Педагогика, 1997. С. 37-41.
3. Захарина Т.Г. Новая методология образования как основа проектирования новой модели образовательного учреждения // Проектирование инновационных процессов в социокультурной и образовательной сферах. Матер. V Межд. конф. – Сочи, 2011. – С. 128-129.
4. Зимняя И.А. Педагогическая психология. – М.: Логос, 2000. – 384 с.
5. Ильина Е.В. Рефлексивное управление обучением учащихся. – Барнаул, 2019. – 118 с.



FAN, ISHLAB CHIQRISH VA TEXNOLOGIYALAR INTEGRATSIYALASHUVINI TA'MINLASH JARAYONLARIDA BO'LAJAK MUTAXASSISLARNING KASBIY SALOHİYATINI RIVOJLANTIRISHDA SPORT KOUCHINGINING AHAMIYATI

S.A. AXMEDOVA,

*Navoiy davlat pedagogika institutining
Jismoniy madaniyat o'qituvchisi*

Maqola fan, ishlab chiqarish va texnologiyalar integratsiyalashuvini ta'minlash jarayonlarida bo'lajak mutaxassislarning kasbiy salohiyatini rivojlantirishga keng imkoniyat yaratilganligi zamirida sport kouchingining ahamiyati, uni rivojlantirish masalalariga bag'ishlangan.

Tayanch tushunchalar: *sport kouchingi, integratsiya, texnologiyalar, mutaxassis, jismoniy tarbiya.*

Статья посвящена вопросам развития спортивного коучинга в подготовке высококвалифицированных кадров в сфере интеграции науки, производственных отношений и технологий.

Ключевые понятия: *спортивный коучинг, интеграция, технология, специалист, физическая культура.*

Rivojlangan mamlakatlar ta'lim muassasalarida tahsil oluvchilarning sog'ligini saqlash va sport bilan shug'ullanishdagi ichki salohiyatni rivojlantirish, yoshlar orasida sog'lom turmush tarzini tarkib toptirishga mo'ljallangan ilmiy tadqiqotlar zamirida yoshlarni har tomonlama kamol toptirish va jismoniy sifatlarini rivojlantirish masalalarini tadqiq etishga katta e'tibor berilmoqda. Oliy ta'limda jismoniy tarbiya va sport sohasini qo'llab-quvvatlash, sport o'yinlari va qishki sport turlari (chang'i, chana uchish, fristayl va boshqalar)ni rivojlantirishga zamin hozirlanmoqda. Shuningdek, sport faoliyati va jismoniy madaniyat fani o'qituvchilarini tayyorlashda kouching, ya'ni sport sohasida murabbiylik, yo'lboshchilik qilish, tahsil oluvchi va tarbiyalanuvchilarda ijobiy sifatlarini qaror toptirishga mo'ljallangan kasbiy faoliyatga tayyorlashni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishlar va zamonaviy bozor kon'yunkturasiga moslashtirish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Mamlakatimizda fan, ishlab chiqarish va texnologiyalar integratsiyalashuvini ta'minlash jarayonlarida bo'lajak mutaxassislarning kasbiy salohiyatini rivojlantirishga keng imkoniyat yaratilmoqda.

jismoniy tarbiya o'qituvchilarida murabbiylik prinsiplarining to'rt blokli bosqichdan iborat faoliyati shakllantirilishi maqsadga muvofiq, jumladan: bilimning



umumiy ilmiy tamoyillari, sport sohasidagi boshqaruvni ta'minlash tamoyillari, pedagogik jaroayonlarda qarorlarni qabul qilish tizimida murabbiylikdan foydalanish tamoyillari, murabbiyning ish sharoitlarini ta'minlash tamoyillari. Bunda ta'lim kouchingida quyidagi asosiy prinsiplarga tayaniladi:

shaxsga yo'naltirilgan ta'lim, yutuqlarni qo'lga kiritish hissini shakllantirish, tahsil oluvchini ruhiy qo'llab-quvvatlash, uning tafakkur darajasini o'rganish, aniq reja asosida o'z faoliyatini tashkil qilishga o'rgatish. Binobarin, bularning barchasi, bo'lajak mutaxassislarda ta'lim jarayoniga mas'uliyat bilan yondashish va shaxsiy motivlari asosida ta'lim maqsadlariga erishishga xizmat qiladi.

O'rganilayotgan muammo bo'yicha asosiy psixologik-pedagogik ishlarning tahlili, tizimli, faoliyatga va shaxsga yo'naltirilgan yondashuvlarga tayanish bizlarga tadqiqot bo'yicha shakllantirilgan "bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarini sport kouchingi asosidagi kasbiy faoliyatga tayyorligi" tushunchasi mohiyatini mualliflik nuqtai nazaridan ifodalashga imkon berdi. Bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarini sport kouchingi asosida kasbiy faoliyatga tayyorlashda pedagogik faoliyatning maxsus uslubini shakllantirishni ta'minlaydigan ko'nikmalar biz tomonidan mutaxassisning integratsiyalashgan kasbiy ahamiyatli sifati sifatida tushuniladi, bu jismoniy tarbiya o'qituvchisining tashkilotchiligi, loyihachilik to'g'risidagi bilimlari, ko'nikmalarining kombinatsiyasidir.

Bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarini sport kouchingi asosida kelgusidagi kasbiy faoliyatiga tayyorlashda samarali emotsional va ixtiyoriy tartibga solishni talab qiladigan stressogenizm, yuqori darajadagi mas'uliyat, shaxslararo munosabatlar tufayli yuzaga kelgan boshqaruv faoliyatining emotiogenik xususiyatiga urg'u berilishi kerak. Shuning uchun, mutaxassislarning kasbga oid muhim fazilatlarini tavsiflashda, ko'p mualliflar hissiy tarkibiy qismlarni o'z ichiga olgan xususiyatlarni ta'riflashadi: Bular: hissiy cheklash, hissiy holat, empatiya, ekspressiv sezgirlik, samaradorlik. Bular tahsil oluvchilarni o'ziga jalb qilish qobiliyati, deb ham tushuniladi. Quyidagilar: emotsional cheklash, hissiy ta'sir, empatiya, ta'sirchan sezgirlik, samaradorlik (odamlarni o'ziga jalb qilish, o'z faoliyatini faollashtirish, hissiy-ixtiyoriy ta'sirlarning eng yaxshi vositalarini topish va ularni qo'llashning to'g'ri vaqtini tanlash qobiliyati), kommunikativ boshqaruv qobiliyatlari, muloqotda o'z his-tuyg'ularingizni boshqarish kabilar sport kouchingida muhim hisoblanadi. Bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarini sport kouchingi asosida kelgusidagi kasbiy faoliyatiga tayyorlashning o'ziga xos



xususiyatlari kasbning mazmunli va samarali tarkibiy qismlariga bog‘liq. Bular: “bo‘ysunuvchilarga nisbatan kouch, har qanday darajadagi ma‘mur, zamonaviy usullar asosida ishlarni tashkil etuvchi”[4, 137].

Hozirgi vaqtda sport kouchingi sohasida ta‘lim sub‘ektlari bilan ishlashda turli xil usullar va yondashuvlar qo‘llaniladi. Yangi usullardan biri sifatida yangi imkoniyatlarga yo‘l ochuvchi shaxslarning va umuman tashkilotning ishiga ta‘sir qilishning muhim vositasi sifatida tan olingan kouching xizmati (I.Bobrova, R.Brod, V.Zimin, I.Lutsenko, N.Plotnikova, A.Savkin), kouching uslubidagi zamonaviy menejment - bu ta‘lim sub‘ektlariga ta‘lim muassasasining ulkan qo‘shimcha manbai sifatida qarash, bu yerda har bir ishtirokchi ko‘pgina vazifalarni mustaqil ravishda hal qila oladigan, tashabbus ko‘rsatishga, tanlov qilishga, javobgarlikni o‘z zimmasiga olishga va qaror qabul qilishga qodir noyob ijodiy shaxsdir (E. A. Ermakova) I.L.Dobrotvorskiy).

Sport sohasi bo‘yicha mutaxassislarni tayyorlash A.Atoev, S.Axmedova, A.Abdullaev, B.Ashmarin, R.Abdumalikov, A.Voronin, L.Ayrapetyans va boshqalarning tadqiqot ishlarida ko‘rib chiqilgan.

Bo‘lajak jismoniy tarbiya o‘qituvchilarini sport kouchingi asosida kelgusidagi kasbiy faoliyatiga tayyorlashda quyidagi jihatlar alohida e‘tibor qaratish joiz: o‘quv jarayoniga sport kouchingi texnologiyalarini joriy etish va samarali usullarini topish; ta‘lim sub‘ektlarning hissiy kompetensiyasini shakllantirishning asosiy mezonlari - o‘z-o‘zini anglash, o‘zini o‘zi boshqarish, hissiy sezgirlik, munosabatlarni boshqarish (B.N.Smirnov, V.D.Chernyavskiy,) mezonlar asosida hissiy kompetensiyaning ichki va tashqi tarkibiy qismlarini aniqlash.

Bugungi kunda O‘zbekiston sporti tez rivojlanayotgan pallada sport kouchingi kasbiy kompetentlikni rivojlantirishning tashkiliy-didaktik mexanizmlari asosida shakllantirilgan, loyihaviy ta‘lim, aralash o‘qitish, tyutorlik xizmati va innovatsion-interaktiv texnologiyalarga asoslangan variativ faoliyatdir.

Bo‘lajak jismoniy tarbiya o‘qituvchilarini kelgusi pedagogik faoliyatiga tayyorlashda sport kouchingi alohida dolzarblik kasb etadi. Jismoniy tarbiya o‘qituvchilari tomonidan tarbiyalanayotgan yoshlarda sport sohasida yangi marralarni zabt etishga bo‘lgan motivatsiyani rivojlantirish uchun sport kouchingi dunyoning rivojlangan mamlakatlari ta‘lim muassasalarida keng quloq yozmoqda. Sport kouchingi talabalarning kelgusi faoliyatida hamda jismoniy chiniishlarini yuksaltirishda va bu sohada natijaviylilikka erishishda muhim bo‘lib, mutaxassislarni sport klublari, seksiyalari va to‘garaklarida faoliyat yuritishi uchun



